

ЦЕНТР ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
IQTISODIYOT FAKULTETI

# **MOLIYA VA SOLIQLAR**

fani bo'yicha  
ma`ruzalar kursi

Toshkent – 2012 yil

Mazkur ma`ruzalar kursida moliya tizimi, davlat, korxonalar, uy xo'jaligi, xalqaro moliya tizimlari, sug'urta bozori, soliq siyosati masalalari yoritilgan.

Ma`ruzalar kursi iqtisodiyot yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar, tadqiqotchilar va izlanuvchilar, tinglovchilar uchun mo'ljallangan

Ushbu ma`ruzalar kursi «Центр инновационных технологий» MChJ va «Iqtisod va moliya» jurnali tahririyatining homiyligida nashr etildi. Ushbu homiylik Innovation-korporativ hamkorlik doirasida amalga oshirilmoqda.

To'plab nashrga  
tayyorlovchilar:

i.f.n., dos. **Muminov N.G.** (kirish, 1-3 mavzular)

“Mintaqaviy iqtisodiyot va menejment”  
kafedrasi katta o'qituvchisi  
**Nigmatova D.Z.** (4-10 mavzular)

Mas'ul muharrir

i.f.n., dos. **Majidov N.M.**

Taqrizchilar:

O'zMU “Mintaqaviy iqtisodiyot va menejment”  
kafedrasi mudiri, dos. **Xolmirzayev A.A.**

Moliya vazirligi huzuridagi O'quv markazi “Davlat  
moliyasi” kafedrasi mudiri, dos. **Xaydarov M.T.**

O'zMU “Mintaqaviy iqtisodiyot va menejment”  
kafedrasi dos.v.b.,i.f.n. **Djumanova R.**

Mazkur ma`ruzalar kursi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Iqtisodiyot fakulteti O'quv- metodik Kengashining 13.06.2012 yildagi majlisida (11-bayonnoma) muhokama qilingan va universitet Ilmiy-metodik Kengashining 26.06.2012 yildagi majlisi (9-bayonnoma) qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

© MChJ «Центр инновационных технологий»

## MUNDARIJA

	Kirish	4
1-mavzu	Mamlakatning moliya tizimi: mohiyati va mazmuni	5
2-mavzu	Davlat va mahalliy moliya	13
3-mavzu	Korxonalar moliyasi	31
4-mavzu	Sug'urta tashkilotlari moliyasi	38
5-mavzu	Uy xo'jaligi moliyasi	55
6-mavzu	Xalqaro moliya	61
7-mavzu	Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati	68
8-mavzu	Soliq tizimi va soliq siyosati	83
9-mavzu	Yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar va yig'imlar	97
10-mavzu	Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibi	127
	Glossariy	138
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	143

## KIRISH

“Moliya va soliqlar” fani milliy iqtisodiyotimizning yetakchi sohasi hisoblangan milliy moliya tizimining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu fan iqtisodiy fanlar orasida muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy fanlardan biri hisoblanadi.

Jahon xo'jaligining taraqqiyoti va globallasuvi sharoitida har bir mamlakat milliy xo'jaligining barqarorligini ta'minlash maqsadida o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishlarini taqozo etmoqda. Milliy iqtisodiyot barqarorligining muhim omillaridan biri esa milliy daromadni ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqqan holda taqsimlash va har bir iqtisodiy sub'yekt manfaatlaridan kelib chiqqan holda pul fondlarni hosil qilish nisbatlariga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham milliy moliya tizimini isloh qilish makroiqtisodiy barqarorlik, davlat tomonidan ijtimoiy kafolatlarining moliyaviy asoslarini ta'minlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

“Moliya va soliqlar” fanini o'rganish natijasida talabalar iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, moliya tizimining bo'g'inlari va ularning alohida tavsifi, turli mulkchilik shakllarida faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'yektlari moliyasining xususiyatlari, sug'urta munosabatlarining moliyaviy jihatlarini to'g'risida bilim ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Xalqaro moliyaviy munosabatlar va uning hozirgi globallasuv sharoitidagi rivojlanish tendensiyalari, soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar to'g'risida bilim ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

“Moliya va soliqlar” fani hozirgi jahon moliyaviy iqtisodiy-inqirozi sharoitida milliy iqtisodiyotda moliya tizimining ahamiyati qanchalik yuqori ekanligi va moliyaviy resurslarni vujudga kelishi va uni sarflanishining umumiy qonuniyatlari hamda mavjud mexanizmi to'g'risida nazariy va amaliy bilimlarni qamrab oladi.

Ushbu fan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan byudjet-soliq siyosati va uning ustuvor yo'nalishlarining ilmiy-nazariy asoslarini qamrab oladi. Umuman fan davlatning moliya-soliq tizimi va uni hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidagi isloh qilishning ilmiy-nazariy asoslarini o'zida ifodalaydi.

# 1-MAVZU. MAMLAKATNING MOLIYA TIZIMI: MOHIYATI VA MAZMUNI

## Reja

1. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari
2. Moliya tizimi bo'g'inlarining tavsifi
3. Moliyaviy resurslar va ularning shakllanish manbalari

## Tayanch iboralar

Moliya, moliya tizimi, moliyaviy faoliyat, moliyaviy siyosat, pul munosabatlari, pul daromadlari, milliy daromad, baho, kredit, taqsimlash va qayta taqsimlash, nazorat qilish, tartibga solish, asosiy daromadlar, birlamchi daromadlar, jamg'arish, kreditlash, moliyaviy resurslar.

### 1. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari

**Moliya** davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini bajarish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga sharoit yaratish maqsadidagi iqtisodiy munosabatlar

**Moliya** - pul munosabatlarining ajralmas qismidir, shuning uchun uning roli va ahamiyati iqtisodiy munosabatlarda pul munosabatlari qanday o'rin egallashiga bog'liq.

Har qanday pul munosabatlari ham moliyaviy munosabatlarni aks ettirmaydi.

Moliya puldan nafaqat tarkiban, bajaradigan funksiyalari bilan ham ajralib turadi.

Pul- universal tovarning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, undan barcha qolgan tovarlarning qiymatini o'lchovi, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladi.

<b>Markazlashgan moliya</b>	<b>Markazlashmagan moliya</b>
Davlat byudjeti	Turli mulk shakllaridagi korxonalar moliyasi
Mahalliy byudjetlar	Nobank maxsus moliya-kredit institutlari moliyasi
Byudjetdan tashqari jamg'armalar	Mol-mulk va shaxsiy sug'urta moliyasi
Davlat krediti	Aholi moliyasi

Moliya YaIM va MD taqsimlash va qayta taqsimlashning iqtisodiy dastagi, pul vositalari fondini shakllantirish va ulardan foydalanish ustidan nazorat qilish qurolidir.

Moliyaning asosiy vazifasi -pul daromadlari va fondlarni shakllantirish yo'li orqali davlat va korxonalarining pul vositalariga ehtiyojini, moliyaviy resurslarni xarajat qilish ustidan nazoratni ta'minlash.

Moliya quyidagilar o'rtasida vujudga keluvchi pul munosabatlardir:

- tovar-moddiy boyliklarini sotib olish, mahsulot va xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonidagi korxonalar o'rtasidagi;

- pul vositalarining markazlashgan jamg'armalarini tashkil etish va ularni taqsimlash borasidagi korxonalar va davlatning yuqori organlari o'rtasidagi;
- davlat va korxonalar o'rtasida ularning byudjet tizimiga soliq to'lash va xarajatlarni moliyalashtirishda;
- davlat va fuqarolar o'rtasida soliqlarni, ixtiyoriy to'lovlarni kiritishda;
- korxonalar, fuqarolar va byudjetdan tashqari jamg'armalar o'rtasida to'lovlarni kiritish va resurslarni olishda;
- byudjet tizimining alohida bo'g'inlari o'rtasida;
- mulkiy va shaxsiy sug'urta organlari, korxonalar, aholi o'rtasida sug'urta badalini to'lash, sug'urta hodisasi ro'y berganda zararni qoplash borasida;
- korxonalarning fondlari aylanishi jarayonida.

Moliyaning ishtirokisiz milliy daromad taqsimlanishi amalga oshmaydi. Moliya - milliy daromadning shakllanishi va undan foydalanish o'rtasida ajralmas bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti davlat moliyasisiz mavjud bo'la olmaydi.

Tarixiy rivojlanishning ma'lum bosqichlarida jamiyatning qator ehtiyojlari faqat davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

Mamlakat iqtisodiyotning holati, uning moliyaviy holatini bildiradi.

Barqaror iqtisodiy o'sish, YaIM va milliy daromadning o'sishi sharoitida moliya o'zining turg'unligi va barqarorligi bilan xarakterlanadi, u ishlab chiqarishning keyingi rivojlanishi va mamlakat fuqarolari farovonligini oshirishni rag'batlantiradi.

Taqsimlash jarayonlari nafaqat moliya, balki baholar va kredit orqali amalga oshadi.

Ma'lumki, baho tovar qiymatining puldagi ifodasidir. Milliy daromad taqsimlanishi ro'y berishidan avval, tovar realizasiya qilinishi zarur. Baho pul vositalari miqdorini oldindan belgilaydi, keyingi taqsimlash jarayoniga asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, baho, tovarlarga bo'lgan talab va taklifni tartibga soladi va bu bilan takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Yirik qayta taqsimlash jarayonlari kredit munosabatlari sohasida bo'lib o'tadi. Moliya va kredit - o'zaro uzviy bog'liq kategoriyalardir. Birgalikda ular korxonalarining pul vositalari aylanishini kengaytirilgan asosda ta'minlaydi.

Kredit o'zida bank tizimi va maxsus moliya-kredit institutlari orqali amalga oshiriladigan ssuda fondi harakatini aks ettiradi. Banklar tashkilotlar va fuqarolarning bo'sh turgan pul vositalarini o'zida to'plab, ularni maqsadga yo'naltirilganlik, ta'minlanganlik, qaytarib berishlilik, haq to'lash, muddatlilik asosida bo'sh pul mablag'lariga talabi bo'lgan tashkilotlar va fuqarolarga beradi.

Moliya bir tomonlama qaytarilmaydigan qiymat harakatini bildiradi, kredit esa shartnomada belgilangan muddatda, oldindan o'rnatilgan foiz to'langan holda kreditorga qaytarib berilishi shart.

Moliyaning mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. Moliyaning asosiy funksiyalari:

- taqsimlash va qayta taqsimlash
- nazorat qilish
- tartibga solish (muvofiqlashtirish)

Moliyaning taqsimlash funksiyasi - milliy daromadning taqsimlanishi, ya'ni asosiy yoki birlamchi daromadlar yaratilgan davrda yuzaga chiqadi. Asosiy daromadlar milliy daromadning moddiy ishlab chiqarish ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishida hosil bo'ladi. Ular ikki guruhga bo'linadi:

- moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan xodimlar mehnatiga haq to'lash;
- moddiy ishlab chiqarish sohasi korxonalarining daromadlari.

Asosiy daromadlar milliy daromadning moddiy ishlab chiqarish ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishida hosil bo'ladi. Ular ikki guruhga bo'linadi:

- moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan xodimlar mehnatiga haq to'lash;
- moddiy ishlab chiqarish sohasi korxonalarining daromadlari.

Birlamchi daromadlar iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, mamalakatning mudofaa qobiliyatini ta'minlash, fuqarolarning moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo'lgan jamoat pul fondlarini tashkil etmaydi.

Milliy daromadning keyingi taqsimlanishi yoki qayta taqsimlash zaruriyati mavjud. Bu esa quyidagilar bilan bog'liq:

- tashkilotlarning daromadlari va jamg'armalaridan samarali va rasional foydalanish maqsadida vositalarni tarmoqlararo, tarmoq ichida, hududiy qayta taqsimlash;
- ishlab chiqarish sohasi bilan bir qatorda noishlab chiqarish sohasining mavjudligi, noishlab chiqarish sohasida esa milliy daromad yaratilmasligi (ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot, boshqarish);
- mamlakat fuqarolarining turli ijtimoiy guruhlari o'rtasida daromadlarning qayta taqsimlanishi;

Qayta taqsimlash natijasida ikkilamchi daromadlar hosil bo'ladi. Ularga noishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida olingan daromadlar, soliqlar (jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq va boshqalar) kiradi. Milliy daromadning qayta taqsimlanishi iqtisodiyotning tarmoqlari, mamlakat hududlari, mulk shakllari va aholining turli guruh ijtimoiy qatlamlari o'rtasida ro'y beradi.

Moliyaning nazorat qilish funksiyasi YaIMni muvofiq fondlar bo'yicha taqsimlanishi va ularning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishda yuzaga chiqadi.

Moliyaning nazorat qilish funksiyasi moliya organlarining ko'pqirrali faoliyatida ham namoyon bo'ladi. Moliya tizimi va soliq xizmati xodimlari moliyaviy rejalashtirish jarayonida, byudjet tizimining daromadlar va xarajatlar qismi ijrosida moliyaviy nazoratni amalga oshiradilar.

Moliyaning tartibga solish (muvofiqlashtirish) funksiyasi davlatning moliya orqali (davlat xarajatlari, soliqlar, davlat krediti) takror ishlab chiqarish jarayoniga aralashuvidir.

## 2. Moliya tizimi bo'g'inlarining tavsifi

Moliya tizimi mamlakat iqtisodiyoti uchun hayotiy zarur bo'lgan muhim quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Jamg'arish vazifasi
- Kreditlash vazifasi
- To'lovlarda xizmat ko'rsatish vazifasi
- Iqtisodiy siyosat vazifasi

**Jamg'arish vazifasi.** Moliya muassasalari tizimi aholiga, korxonalariga foizli va foizsiz omonatlar, qimmatli qog'ozlar, depozit sertifikatlari, obligatsiya va aksiyalar shaklidagi pul jamg'armalarining xilma-xil usullarini taklif etadi.

**Kreditlash vazifasi.** Bu moliya tizimining faol vazifasidir. U birinchi vazifa bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Chunki moliya muassasalarining, xususan banklarning kredit berish salohiyati mamlakat iqtisodiyotida jamg'arilayotgan moliya mablag'lariga bevosita bog'liqdir.

**To'lovlarda xizmat ko'rsatish vazifasi.** Har bir mamlakat iqtisodiyotida tovar moliya operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar doimo katta hajmlarda amalga oshiriladi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'z xodimlariga ish haqi va mukofotlar beradi. Xom-ashyo va tovar yetkazib beruvchilarga xaq to'laydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi. Bu hisob-kitoblarning barchasi turli tuman moliya vositalari, jumladan, to'lov topshiriqlari, talabnomalar, akkreditivlar, cheklar, veksellar, kredit kartochkalari va hokazolar yordamida bajariladi.

**Iqtisodiy siyosat vazifasi.** Hukumat tomonidan moliya tizimining pul-kredit va fiskal dastaklariga ta'sir ko'rsatilib, davlat iqtisodiy siyosatini zarur yo'nalishda o'tkaziladi.

**Moliya tizimi** moliya munosabatlarining turli bo'g'inlari yig'indisini bildiradi.

Ularning har biri pul mablag'lari jamg'armalarini shakllantirish va ishlatilishidagi xususiyatlari, ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi rolining turlichaligi bilan farqlanadi.

Moliya tizimi moliya munosabatlarining quyidagi sohalarni o'z ichiga oladi:

- davlat byudjeti,
- nodavlat jamg'armalar,
- davlat krediti,
- mulkiy va shaxsiy sug'urta jamg'armalari,
- fond bozori,
- turli mulkchilik shaklidagi korxonalar moliyasi (davlat korxonalari, jamoa korxonalari, xususiy firmalar, hissadorlik jamiyatlari, ijara mulki zaminidagi korxonalar, qo'shma korxonalar, jamoat tashkilotlari va boshqalar)

Yagona moliya tizimining asosi korxonalar moliyasi hisoblanadi, chunki ular moddiy ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadilar. Markazlashgan davlat jamg'armalarining manbasi moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilayotgan milliy daromad hisoblanadi.




Umumdavlat moliyasi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari rivojlanishining ma'lum sur'atlarni ta'minlashda, moliyaviy resurslarni iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat hududlari o'rtasida, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o'rtasida hamda mulk shakllari, aholining alohida guruh va qatlamlari o'rtasida qayta taqsimlashda yetakchi o'rin egallaydi.

Moliya tizimi orqali davlat markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini, jamg'arish va iste'mol fondlarini soliqlar, davlat byudjeti xarajatlari, davlat kreditini qo'llash bilan shakllantirishga ta'sir o'tkazadi.

**Davlat byudjeti** - moliya tizimining bosh bo'g'ini hisoblanadi. U davlat boshqaruv organlari funksiyalarini ta'minlash uchun markazlashgan pul jamg'armalarini shakllantirish va ishlatish shaklidir.

**Nobyudjet jamg'armalar** - bu davlat hukumati va mahalliy hokimiyatlarning byudjetga kiritilmaydigan xarajatlarni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan mablag'lardir. Nobyudjet jamg'armalarning shakllanishi oddiy soliq to'lovchi uchun soliqlardan hech qanday farq qilmaydigan majburiy maqsadli ajratmalar hisobidan amalga oshiriladi.

## MOLIYA TIZIMI



**Sug'urta** - ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liqdir. Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida moliya kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo, moliya to'raligicha daromadlarni taqsimlash bilan bog'liq bo'lsa, sug'urta esa faqat qayta taqsimlash munosabatlarini qamrab oladi.

**Davlat krediti** - bu shunday pul munosabatlar tartibiki, unda davlat qarz oluvchi bo'lib, qarz beruvchi sifatida esa yuridik yoki jismoniy shaxslar qatnashadilar. Davlat krediti byudjet kamomadini qoplashga, ssuda kapitali bozorini tenglashtirishga, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni moliyalashtirish manbalarini vujudga keltirishda, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishga sarf etiladi.

### **Davlat moliyasi**

Davlat byudjeti	Davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati taqsimlash va nazorat funksiyalari orqali amalga oshiriladi. Taksimlash funksiyasining amal qilish doirasi byudjet bilan munosabatlarga ijtimoiy ishlab chiqarishning deyarli barcha ishtirokchilari kirishi bilan belgilanadi.
Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar	Byudjetdan tashqari jamg'armalarning mohiyati shundan iboratki, boshqa masalalarni tashkil etishda sarf bo'lishi mumkin bo'lgan mablag'larning zahirasini barpo etishdir.
Davlat krediti	Davlat krediti xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun qarzlarni berishni anglatadi.
Davlat korxonalarini moliyasi	Mamlakat hududida faoliyat yurituvchi davlat korxonalarining moliyaviy ahvoli va barqarorligini ko'rsatadi

### **3. Moliyaviy resurslar va ularning shakllanish manbalari**

Mamlakat yalpi ichki mahsulotini tashkil etish va taqsimlash jarayonida iqtisodiy va moliyaviy faoliyati natijasida moliyaviy resurslar shakllanadi, davlat va xo'jalik sub'yektlari tomonidan jamlanadi.

**Milliy daromad** umumdavlat darajasida (makrodaraja) markazlashgan moliyaviy resurslarni (markazlashgan jamg'armalar) shakllanishida birinchi va asosiy manba hisoblanadi. Milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida pul mablag'larning markazlashgan jamg'armalari tashkil qiladi.

Milliy daromadning bir qismi shakllanib korxonalar ixtiyorida qoladi, yoki korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlariga ishlatish uchun makrodarajadagi markazlashmagan resurslar tashkil qilinadi.

Qoidaga binoan, moliyaviy resurslar xajmi milliy daromadga nisbatan ko'p, chunki, qo'shimcha mahsulot qiymati va zaruriy mahsulotlar qismidan tashqari moliyaviy resurslar amortizasion ajratmalarni ham qamrab oladi.

Asosiy ishlab chiqarish jamg'armalari qiymatidan bir qismi hisobidan tashkil topadigan amortizasion ajratmalar moliyaviy resurslarning ikkinchi zaruriy manbasi deb hisoblanadi.

**Markazlashgan moliyaviy resurslar** -bu soliqli va soliqsiz to'lovlar va ajratmalar orqali sof daromadning qayta taqsimlash natijasi.

#### **Markazlashgan moliyaviy resurslarning manbalari:**

- davlat ijtimoiy sug'urta, mol-mulk va shaxsiy sug'urtalarga qilinadigan ajratmalar

- byudjetdan tashqari jamg'armalarga qilinadigan ajratmalar
- xo'jalik aylanmasiga jalb etiladigan milliy boyliklarning bir qismini sotishdan olinadigan mablag'lar
- davlat qimmatli qog'ozlarni sotishdan olinadigan mablag'lar
- aholidan olinadigan tushumlar

### **Davlat moliya resurslari**

- kengaytirilgan ishlab chiqarish va umumdavlat talablarini ta'minlash uchun mo'ljallangan, davlat, korxonalar, tashkilot va aholi ixtiyorida mavjud pul mablag'larining jamg'armasi.
- Moliyaviy resurslarning asosiy manbasi bo'lib, milliy daromad, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar tashkilotlarning foydasi, amortizatsion va sug'urta jamg'armalari hisoblanadi.

### **Korxonalarining moliyaviy resurslari**

- bu xo'jalik sub'yektlar ixtiyorida mavjud barcha pul mablag'larning va tushumlarning jamlamasi.

Korxonalar moliyaviy resurslari quyidagilarga sarflanadi:

- maqsadli belgilangan pul jamg'armalar (mehnatga haq to'lash jamg'armasi, ishlab chiqarishni rivojlantirish jamg'armasi, moddiy rag'batlantirish jamg'armasi va boshq.)ni tashkil etishiga
- davlat byudjeti, bank, ta'minotchi, sug'urta organlari va boshqa korxonalar oldidagi majburiyatlarni bajarishga
- moliyaviy resurslar xom-ashyo, mahsulot sotib olish xarajatlarini moliyalashtirishga
- mehnatga haq to'lashga

Korxonalarining moliyaviy resurslari

- korxonaning shaxsiy mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar **hisobiga** shakllanadi.
- Foyda korxonadagi moliyaviy resurslarning shakllanishining asosiy manbasi hisoblanadi.

Korxonalarining moliyaviy resurslari quyidagilardan iborat:

#### a) korxonalarining daromadi:

- asosiy faoliyatidan olinadigan foyda;
- moliyaviy operatsiyalardan olinadigan foyda (qimmatli qog'ozlarni sotish);
- xo'jalik usuli bilan bajarilgan qurilish ishlaridan olingan foyda.

#### b) pul jamg'armalari:

- ustav jamg'armasi;
- amortizatsiya jamg'armasi;
- ishlab chiqarishni rivojlantirish jamg'armasi;
- zahira va boshqa jamg'armalar.

#### v) jalb qilingan mablag'lar:

- byudjet subsidiyasi;
- bank va tashkilotlarning kreditlari;
- boshlang'ich ulushlarga jalb qilingan moliyaviy resurslar va kreditorlik qarzlari.

Moliyaviy resurslarni tashkillashtirishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Korxonalarining moliyaviy resurslari shaxsiy mablag'lar, subsidiya va jalb qilingan mablag'lar hisobiga shakllanadi.
- Kelasi xo'jalik yiliga korxonalarining moliyaviy faoliyati o'tgan davrdagi faoliyatning ko'rsatkichlari va natijalari hamda kelgusi davr istiqbollari asosida rejalashtiriladi.
- Shaxsiy aylanma mablag'larini saqlanishini ta'minlash.

### **Nazorat savollari**

1. Moliya tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida nimadan iborat?
2. Moliyaning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Moliya qanday vazifalarni bajaradi?
4. Moliyaviy tizim nima?
5. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy tizimi qaysi bo'g'inlardan tashkil topgan?
6. Davlatning moliyaviy faoliyati deganda nimani tushunasiz?
7. Davlat pul mablag'larini to'plash shakllari.
8. Davlat pul mablag'larini taqsimlash usullari.
9. Moliyaviy siyosat tushunchasi nimadan iborat?
10. Moliyaviy siyosat turlari.
11. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi umumiy vakolatli davlat organlari.
12. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organlari.
13. Moliyaviy faoliyatning huquqiy shakllari.
14. Moliyaviy huquqiy aktlar va ularning turlari.
15. Moliyaviy faoliyatning ijtimoiy yo'naltirilganligi tamoyili.
16. Moliyaviy faoliyat sohasida funksiyalarning taq-simlanishi tamoyili.

## 2-MAVZU. DAVLAT VA MAHALLIY MOLIYA

### Reja

1. Byudjet va byudjet tizimi
2. Byudjet jarayoni
3. Byudjetlararo munosabatlar
4. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining g'azna ijrosi.
5. Davlat krediti.
6. Davlat maqsadli byudjetdan tashqari jamg'armalari

### Tayanch iboralar

Byudjet daromadlari, byudjet dotasiyalari, byudjet yili, byudjet jarayoni, byudjet profisiti, byudjet subvensiyalari, byudjet ssudalari, byudjet tashkiloti, byudjet taqchilligi, byudjet tizimi, byudjet transfertlari, byudjet tuzilishi, byudjet xarajatlari, byudjetdan mablag' ajratish, byudjetdan moliyalashtirish, byudjetdan tashqari jamg'armalar, byudjetni tartibga solish, davlat byudjeti, davlat zayomlari, davlat maqsadli jamg'armalari, kapital qo'yilma, mahalliy byudjet, moliya yili, respublika byudjeti, xarajatlar smetasi, g'aznachilik

### 1. Byudjet va byudjet tizimi

**Davlat byudjeti** - davlatning qonunchilik doirasida yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'z vazifa va funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini davlatning qo'lida to'planishini ta'minlovchi pul munosabatlaridir.


**Davlat byudjeti** - davlatning asosiy pul jamg'armasi, davlatning asosiy moliyaviy rejasi, byudjetning barcha daromadlari va xarajatlari ro'yxatini aks ettiruvchi hujjatdir.

**Davlat byudjeti** - davlat pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> O'zR «Бюджет тизими тўғрисида»gi Qonuni 14.12. 2000 у., № 158- II, 3 modda

SOLIQLAR  
 BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR  
 SOLIQSIZ DAROMADLAR  
**BYUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRADI**




Davlat byudjetining **funksiyalari**: Davlat byudjeti, daromadlarni shakllantirish bilan taqsimlash funksiyasini bajaradi – YaMMni taqsimotida qatnashadi.

**DAVLAT BUDJETI:**

Davlatning asosiy moliyaviy rejasi (hujjati)

<b>DAROMADLAR</b>	<b>XARAJATLAR</b>
yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;	ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar
jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;	iqtisodiyotga va markazlashtirilgan investisiyalarga xarajatlar
qo'shilgan qiymat solig'i;	boshqaruvga xarajatlar:
aksiz solig'i;	boshqa xarajatlar
jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulk solig'i	
jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan	
to'lanadigan yer solig'i	
suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;	

mikrofirmalar va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari to'laydigan yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	
boshqa soliqlar va majburiy to'lovlar	
soliqsiz daromadlar	




Davlat yuridik va jismoniy shaxslar oladigan daromad (foyda)ni taqsimlash jarayoniga qonunchilik aktlariga binoan uning bir qismini davlat byudjetining daromadlarini shakllantirish uchun soliqlar va majburiy to'lovlar ko'rinishida olish yo'li bilan tartibga soladi.

Davlat byudjetiga kelib tushayotgan pul mablag'lari davlat tomonidan qayta taqsimlanadi va quyidagilarga yo'naltiriladi:

- ijtimoiy rivojlanishga
- aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoyalashga;
- iqtisodiyot tarkibini yaxshilash va rivojlantirishga, uning alohida tarmoqlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga;
- davlat boshqaruvi;
- iqtisodiy hududlarni qo'llab-quvvatlash;


- davlat chegarasini qo'riqlash, armiyani saqlash, milliy havfsizlik va huquq-tartibotni ta'minlash;
- va boshqalar.

Byudjetning nazorat funksiyasi byudjet mablag'larini tushumi va undan foydalanish ustidan davlat nazoratini nazarda tutadi.



**Byudjet daromadlari** - qonunchilikda belgilangan tartibga binoan davlat hokimiyati organlari va mahalliy boshqaruv organlari ixtiyoriga beg'araz va qaytarmaslik tartibida kelib tushayotgan pul mablag'laridir.

Jahon amaliyotida pul tushumlarining byudjetga kelib tushishining uchta asosiy kanali mavjud





**Byudjet xarajatlari** - davlatga biriktirilgan vazifalarni xal qilish va funksiyalarini bajarilishini moliyaviy ta'minoti uchun yo'naltirilayotgan pul mablag'lari.


**Byudjetdan mablag' ajratish** – byudjet tashkilotlari va boshqa byudjetdan mablag' oluvchilarga Davlat byudjetidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mablag' ajratish.


**Byudjet transfertlari** – byudjetdan bevosita yoki vakolatli organ orqali yuridik yoki jismoniy shaxsga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

**Byudjet subvensiyalari** – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash uchun qaytarmaslik sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga ajratiladigan pul mablag'lari.

**Byudjet dotasiyalari** – o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

**Byudjet ssudalari** – yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarish sharti bilan yoki respublika byudjetidan yuridik shaxs-rezidentga yoki xorijiy davlatga ajratiladigan mablag'lar.







## 2. Byudjet jarayoni

Byudjet jarayonini qonun hujjatlariga muvofiq byudjet vakolatlari berilgan byudjet jarayonining quyidagi ishtirokchi organlari amalga oshiradilar:

- Vakillik hokimiyati organlari
- Ijroiya organlari
- Markaziy bank
- Byudjet tashkiloti
- Byudjet mablag'larini oluvchilar








### 3. Byudjetlararo munosabatlar

**Davlat byudjeti** respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarni o'z ichiga oladi. Davlat byudjeti tarkibida davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi



## Byudjetlar o'rtasida xarajatlarni amalga oshirish vakolatlarida cheklovlar

### Respublika byudjeti

- sud va prokuratura organlari faoliyati
- milliy xavfsizlik
- O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari va missiyalari
- yer tuzish, meliorasiya, tabiatni muhofaza qilish va epizootiyaga qarshi kurash chora-tadbirlari
- qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash
- gidrometeorologiya, do'lga qarshi kurash chora-tadbirlari

- mudofaa va jamoat tartibi
- iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi budjet tashkilotlarini saqlash
- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati
- ijtimoiy ta'minot
- ijtimoiy-madaniy tadbirlar: ta'lim, fan, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport
- davlatning markazlashtirilgan investisiyalari
- iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish

- aholini ijtimoiy himoya qilish

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar

**O'tkazib beriladigan daromadlar** - quyi byudjetning yetishmayotgan daromadlar qismini qoplash maqsadida tegishli hududlarda shakllanayotgan, lekin yuqori byudjetga o'tkazilayotgan daromadlar hisobiga yuqori byudjetdan quyi byudjetga ajratilayotgan mablag'lar.

**Byudjet ssudalari ajratish** - yuqori byudjetdan quyi byudjetga barcha byudjet manbalarini maksimal ravishda jalb etilishi kechiktirib bo'lmaydigan birinchi navbatdagi tadbirlarni moliyalashtirishni to'liq ta'minlamaslik sharti bilan beriladi, masalan, daromadlar tushumi va xarajatlarni amalga oshirish orasidagi kassa uzilishlarida beriladigan ssudalar. Ssudalar byudjet yilining 9 kalendar oyi muddatiga berilishi mumkin.

**O'zaro hisob-kitoblar** – qonunchilikka binoan alohida byudjetlarning parametrlariga o'zgartirishlar kiritilganda yoki ma'muriy-hududiy bo'linishlarni, tashkilotlarning bo'ysinishi o'zgarganda byudjet ijrosi jarayonida yuqori va quyi byudjetlar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar.

#### **4. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining g'azna ijrosi**

Jahon amaliyotida byudjet ijrosining g'aznachilik, bank va aralash tizimlari ma'lum.

Byudjet ijrosini tashkil etishning **g'aznachilik tizimi** sharoitida hisobvaraqlar va byudjet mablag'larini boshqarish maxsus moliya organi – G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladi.

G'aznachilik byudjet mablag'larining barcha tasarrufchilari va oluvchilari uchun kassir hisoblanadi hamda byudjet tashkilotlarining nomidan va topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshiradi.

**Bank tizimida** byudjetni tashkil etish va ijro etish funksiyasini Markaziy bank bajaradi (tijorat banklari qatnashuvchi variant ham mavjud).

**Aralash tizimda** byudjet hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish ham G'aznachilik, ham Markaziy Bank tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi davlat byudjetining barcha daromadlarini Yagona g'azna hisobvarag'iga kiritishdan, shuningdek davlat byudjetining xarajatlarini shu hisobvaraqdan to'lashdan iborat.

G'aznachilik tizimiga bosqichma-bosqich o'tishning asosiy elementlari:

- Huquqiy-me'yoriy baza yaratish;
- G'aznachilikning moddiy-texnik bazasini yaratish;
- G'aznachilik tizimi uchun kadrlarni tayyorlash;
- G'aznachilikning axborot tizimini yaratish.

#### **G'aznachilik tizimini joriy etilishining ijobiy natijalari**

- pul oqimlari harakati bo'yicha jarayonlarni qisqartirish.
- dastlabki nazorat qilish.
- joriy nazorat qilish.
- kassa ijrosining kunlik monitoringini o'tkazish
- Davlat moliyasining holati to'g'risidagi tezkor axborotlarni yig'ish.
- qisqa fursatda davlatning moliyaviy resurslari real hajmini aniqlash.

- vaqtinchalik harakatda bo'lmagan byudjetning erkin mablag'larini moliya bozorlarida samarali joylashtirib, undan olingan daromadni esa byudjet xarajatlarini to'liq moliyalashtirishga, byudjet taqchilligini kamaytirishga va davlat qarzlari to'loviga yo'naltirish.

#### **G'aznachilikning asosiy elementlari:**

- Yagona g'azna hisobvarag'i
- G'aznachilikning Bosh kitobi
- G'aznachilikning axborot tizimi

### **5. Davlat krediti**

O'zbekistonda davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilishda qarz majburiyatlarining quyidagi turlaridan foydalanilishi mumkin:


- davlat qimmatli qog'ozlari: qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan), o'rta muddatli (bir yildan besh yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan) va uzoq muddatli (besh yildan ortiq davrga chiqariladigan);
- kreditlar (qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli);
- O'zbekiston Respublikasining kafolatlari (ssuda oluvchi tomonidan zayomlarni qaytarmaslik holati vujudga kelganda to'lab berish kafolati majburiyatlari);
- byudjet daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik tafovutni qoplash uchun qisqa muddatli ssudalar (byudjet ijrosidagi kassa uzilishlari: daromadlar hali kelib tushmadi, xarajatlarni esa hozir amalga oshirish kerak).

O'zbekistonning moliya bozorida quyidagi turdagi davlat qimmatli qog'ozlari muomilada:

- Davlat qisqa muddatli obligasiyalari
- Davlat o'rta muddatli g'aznachilik majburiyatlari
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki obligasiyalari

O'zbekistonda davlat qarzini paydo bo'lishi va o'sishiga olib keluvchi holatlar, Hukumat – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organlar tomondan amalga oshiriladi.





## 6. Davlat maqsadli byudjetdan tashqari jamg'armalari

**Davlat maqsadli byudjetdan tashqari jamg'armalari** – davlat byudjeti tarkibida jamlanadigan jamg'armalar bo'lib, qonunchilik bilan ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' kelib tushishi me'yorlari va shartlari, hamda ushbu mablag'larni sarflanishi yo'nalishlari belgilab qo'yilgan.

Davlatning maqsadli byudjetdan tashqari jamg'armalari aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, ular avtonom boshqaruvga ega va o'sha davr uchun o'ziga xos ahamiyatga ega byudjetdan alohidalash va xarajatlarni ajratish asosida yoki jamg'armalarga maxsus daromadlar manbalarini birlashtirish orqali shakllanadi.


Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari quyidagi belgilarga ko'ra **tasniflanadi**:

- boshqaruv darajasiga ko'ra (umumdavlat, respublika, hududiy);
- amal qilishi muddatiga ko'ra (doimiy, vaqtinchalik – o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishi bilan o'z faoliyatini to'xtatadi);
- shakllantirish usullariga ko'ra (byudjetdan alohida, muhim ahamiyatga ega xarajatlarni ajratish, jamg'armalarga shaxsiy daromadlar manbalarini birlashtirish);
- funksional maqsadiga ko'ra (ijtimoiy, shaxsiy va mulk sug'urtasi, iqtisodiy, kredit, ilmiy-tadqiqot, investision, ekologik, harbiy-siyosiy, davlatlararo va b.).

Byudjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish manbalari:

- yuridik va jismoniy shaxslarning badallari;
- byudjetdan ajratmalar;
- tushumlar (lotereya, yo'llanmalar uchun to'lovlar va b.);

- jamg'armaning vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini investisiyalashdan tushgan daromadlar (moliya bozorida ishtirok etish);
- bank kreditlari;
- majburiy badallarni belgilangan vaqtda to'lamaganlik uchun penya va jarima summalari;
- yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari (ehson, hadya).



Huquqiy asosi	Vazifasi
<b>O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 30.12.2009 y. N PQ-1252-sonli Qarori</li> <li>• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta'minot vazirligi huzurida Pensiya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi 27.12.1996 y. N 459-sonli Qarori</li> </ul>	<p>Ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda pensiyalar, nafaqalar va kompensasiyalarni to'lashga yo'naltiriladigan mablag'larning maqsadli va aniq sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini samarali boshqarishni tashkil etish maqsadida tashkil etilgan.</p>
<b>Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" 1992 yil 13 yanvardagi 510-XII-son Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish respublika jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" 1992 yil 31 dekabrda 606-son Qarori; O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri. 1998 yil 1 maydagi 616-I-son Qonun</li> </ul>	<p>Ish bilan ta'minlash siyosatini amalga oshirish tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash va davlat ish bilan ta'minlash xizmatining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun tashkil etilgan.</p>
<b>O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llari qurish va ulardan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2003 yil 19 avgustdagi PF-3292-son Farmoni</li> </ul>	<p>Yo'l qurilishini boshqarish tizimini takomillashtirish, umumiy foydalaniladigan zamonaviy avtomobil yo'llari tarmog'ini yanada rivojlantirish, ortiqcha boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish, umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstruksiya</p>

	qilish va qurish uchun yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan.
<b>O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasining maxsus hisobvarag'i</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida davlat mulki Jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" 1992 yil 7 sentyabrdagi PF-471-son Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish va xususiyashtirish komitetini tashkil etish to'g'risida" 1992 yil 10 fevraldagi PF-337-son Farmoni</li> </ul>	<p>Iqtisodiy islohotlarni, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, shuningdek respublikada tadbirkorlikning rivojlanishini va uni qo'llab-quvvatlashni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.</p>
<b>O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" 11.05.2006 y.dagi PF-3751-son Farmoni</li> </ul>	<p>Ustuvor investision loyihalarni samarali moliyalashtirishni tashkil etish maqsadida tuzilgan.</p>
<b>O'zR MV huzuridagi ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasini Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi etib qayta tashkil qilish to'g'ricida"gi N PQ-1645-sonli 21.11.2011 y.dagi Qarori</li> </ul>	<p>Zamonaviy talablar va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda respublika ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini tizimli asosda rivojlantirish hamda mustahkamlash, ularni eng ilg'or o'quv, tashxis va davolash uskunalari, axborot-kompyuter texnikasi bilan jihozlash, buning uchun jamlanadigan byudjetdan tashqari va grant mablag'laridan o'rinli hamda samarali foydalanish maqsadida tashkil etilgan.</p>
<b>O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>O'zbekiston Respublikasi</li> </ul>	<p>Oliy ta'lim muassasalarining</p>

<p>Prezidentning “Oliy ta`lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to`g`risida”gi N PQ-1533-sonli 20.05.2011 y.dagi Qarori</p>	<p>moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiyalash, ularni zamonaviy o`quv va ilmiy-laboratoriya uskunalari bilan jihozlash, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash yo`nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, ta`lim standartlarini takomillashtirish, ilg`or pedagogik texnologiyalar va ta`lim shakllarini joriy etish, o`qituvchi kadrlarning mehnatini rag`batlantirishni kuchaytirish hisobiga ta`lim jarayonini yanada takomillashtirish asosida iqtisodiyotning tarmoqlari va sohalarida kerak bo`lgan oliy ma`lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida tashkil etilgan.</p>
<p><b>O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi</b></p>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” 2007 yil 29 oktyabrdagi PF-3932-son Farmoni.</li> </ul>	<p>Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini yanada barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligini ko`paytirish, shuningdek meliorasiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida tashkil etilgan.</p>

### Nazorat savollari

1. Davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatida xususiyatlarini aytib bering.
2. O`zbekiston Respublikasi “Byudjet tizimi to`g`risida”gi Qonuniga binoan Davlat byudjetiga ta`rif bering va uning mohiyatini tushuntirib bering
3. Davlat byudjeti funksiyalari mohiyatini tushuntirib bering.
4. Byudjet daromadlari bajaradigan funksiyalarni ayting va mohiyatini tushuntiring
5. Byudjetning maqsadli xarajatlari bajaradigan funksiyalarni ayting va mohiyatini tushuntiring
6. Byudjet tuzilmasiga ta`rif bering va uning mazmunini mohiyatini tushuntiring

7. Byudjet tizimini boshqarish sohasida vakolatli organlarining vakolatlari to'g'risida gapirib bering
8. Byudjet tizimini boshqarish sohasida ijro organlarining vakolatlari to'g'risida gapirib bering
9. Byudjet jarayoni ishtirokchilarini aytib bering
10. Davlat byudjeti daromadlar qismini yoritib bering
11. Davlat byudjeti xarajatlar qismini yoritib bering
12. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtat jadvalini ro'yxatdan o'tkazish tartibini yoritib bering
13. Davlat maqsadli jamg'armalari deganda nima tushuniladi?
14. Davlat uchun byudjetdan tashqari jamg'armalar ahamiyatini tushuntiring?
15. Byudjetdan tashqari jamg'armalar shakllanish manbalarini aytib bering
16. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi maqsadi va asosiy vazifalarini aytib bering
17. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini sarflashning asosiy yo'nalishlarini aytib bering
18. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasini tashkil etish maqsadi va asosiy vazifalarini aytib bering
19. Respublika yo'l jamg'armasining tashkil etilish maqsadi va asosiy vazifalarini aytib bering
20. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasining maxsus hisobvarag'ini tashkil etilish maqsadi va asosiy vazifalarini aytib bering

### 3-MAVZU. KORXONALAR MOLIYASI

#### Reja

1. Korxonada moliyasini tashkil etish
2. Korxonaning moliyaviy kapitali
3. Korxonada moliyaviy faoliyat

#### Tayanch iboralar

Aylanuvdan tashqari aktivlar, asosiy vositalar, ob`yektning dastlabki qiymati, tiklash qiymati, qoldiq qiymati, eskirish me`yori, jismoniy eskirish, ma`naviy eskirish, amortizasiya, fond samaradorligi, fond sig`imi, nomoddiy aktivlar, patent, mualliflik huquqi, lisenziya, xo`jalik mablag`lari, uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, moliyalash manbalari, taqsimlanmagan foyda, chetdan jalb etilgan mablag`lar, bank kreditlari, kreditorlik qarzlari, pul mablag`lari harakati, moliyaviy barqarorlik, to`lov qobiliyati.

#### 1. Korxonada moliyasini tashkil etish

Korxonada moliyasi ishlab chiqarish fondlarini shakllanishi, o`z moliyaviy mablag`larini tashkil topishi, moliyalashtirishning tashqi manbalarini jalb etish, ularni taqsimlash va foydalanish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlardir.

Korxonaning moliyaviy munosabatlari quyidagi yo`nalishlarda vujudga keladi:

- Korxonaning ustav kapitalini shakllanishi
- Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish
- Tijorat tashkilotlari va korxonalar o`rtasida
- Xo`jalik yurituvchi sub`yektlar bilan ularning bo`linmalari, yuqori tashkilotlari, assosiasiyalari o`rtasida
- Tijorat tashkilotlari, korxonalar bilan alohida xodimlar o`rtasida
- Xo`jalik sub`yekti va davlatning moliya tizimi o`rtasida
- Xo`jalik sub`yekti va bank tizimi o`rtasida
- Xo`jalik sub`yekti va sug`urta kompaniyasi o`rtasida

Korxonalaridagi moliyaviy munosabatlar xo`jalik faoliyati asosidagi aloqalarga bog`liq bo`lgan ma`lum bir tomoyillar asosida quriladi. Korxonada mustakilligi moddiy rag`batlantirish, moddiy javobgarlik va moliyaviy jamg`armalar bilan ta`minlashdir.

Moddiy rag`batlantirish tamoyili foyda olishda tadbirkor faoliyatiga ob`yektiv ta`sir o`tkazuvchi omildir. Xo`jalik faoliyatining natijalari korxonada kollektivi va tashkilotlarning har bir xodimi va butun davlatning manfaatlarini belgilab beradi.

Moddiy javobgarlik tamoyili moliyaviy xo`jalik faoliyati natijalari ustidan ma`lum javobgarlik tizimini talab qiladi. Xo`jalik sub`yektlari uchun bu tamoyilni amalga oshirish shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaganligi, korxonada rahbarlari soliq qonunchiligini buzganligi uchun moddiy javobgarlik jarimalar tizimi qo`llaniladi.

Moliyaviy zaxiralarni ta'minlash tamoyili tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik bilan amalga oshiriladi. Bozor munosabatlari sharoitida bunday tavakkalchilik tadbirkorning o'z rejalarini amalga oshirishda o'zining tamoyiliga va tavakkalchiligiga asoslanadi. Xo'jalik sub'yektlarining xaridorlar uchun bo'ladigan iqtisodiy kurashida mahsulotlarini kreditga berishi va buning uchun o'z vaqtida pulni qaytara olmasligi holati sharoitida yuz beradi.

Korxonalar moliyasi ikki asosiy funksiyani bajaradi. Bular: taqsimlash va nazorat funksiyalari. Shu ikki funktsiya uzviy o'zaro munosabatda bo'lishadi.

Taqsimlash funksiyasi. Uning yordamida birlamchi kapitalni shakllanishi yuzaga keladi. Birlamchi kapitalning shakllanish manbalari quyidagilardir:

- Ta'sischi'larning qo'shgan hissalarini
- Ichki mahsulotni qiymat ko'rinishida taqsimoti
- Daromad va moliyaviy resurslarni taqsimlash jarayonida asosiy qiymat nisbatlarini aniqlash
- Alohida korxonalar, tashkilot va davlatning manfaatlarini optimal nisbatini ta'minlash

Taqsimlash funksiyasi takror ishlab chiqarish jarayonini moliyalashtiradi va takror ishlab chiqarish jarayonining barcha faza (ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'mol) larini o'zaro bog'laydi.

Nazorat funksiyasining ob'yektiv asosi bo'lib mahsulotni ishlab chiqarish va sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, korxonaning daromadlari va pul fondlarini shakllanishi va undan foydalanish xarajatlari qiymat hisobi hisoblanadi.

Korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllarga bo'linishi mezonlari:

- ta'sischi'larning soni
- xo'jalik faoliyati uchun javobgarlik darajalari
- individual qo'yilmalarning usullari

Korxonalar shakllari:

- Individual korxonalar
- Ma'suliyati cheklangan jamiyat
- Aksioner jamiyat
- Davlat korxonasi

Ustav jamg'armasining manbalari:

- Aksioner kapital
- Pay badali
- Uzoq muddatli kredit
- Byudjet mablag'lari

Moliyaviy resurs manbalari:

- o'zining mablag'lari va unga tenglashtirilgan mablag'lar
- Moliya bozorida safarbar etilgan mablag'lar
- Moliya-bank tizimidan qayta taqsimlash tartibidagi pul tushumlari

Korxonaning o'z mablag'lari quyidagilardan iborat – foyda va amortizatsiya ajratmalari.



Foyda:

- Foyda to'liqligicha korxonada ixtiyorida qolmaydi, uning bir qismi soliqlar va soliqli to'lovlar ko'rinishida byudjetga tushadi.
- Korxonada ixtiyorida qoluvchi foyda jamg'arish va iste'mol maqsadlariga yo'naltiriladi
- Jamg'arishga yo'naltirilgan foyda ishlab chiqarishni rivojlantirishga ishlatiladi va korxonada mulkini ko'payishga olib keladi
- Iste'molga yo'naltirilgan foyda ijtimoiy vazifalarni yechishga xizmat qiladi

Foyda turli mulk shakllaridagi xo'jalik sub'yektlari tomonidan yaratilayotgan pul jamg'armalarining asosiy qismini puldagi ifodasi bo'lib, iqtisodiy kategoriya sifatida korxonada tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijasini ifodalaydi

Foyda quyidagilarni aks ettiruvchi ko'rsatkich:

- ishlab chiqarish samaradorligi
- ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi va sifati
- mehnat unumdorligining holati
- tannarx darajasi

## FOYDA

turli yo'nalishlar bo'yicha ajratiluvchi	korxonada ixtiyorida qoluvchi
soliqlar va yig'implarni to'lash	jamg'arish fondi
foizlarni to'lash	iste'mol fondi
ssudalarni to'lash	zaxira fondi
xarajat va zararni qoplash	taqsimlanmagan foyda
moliyaviy yordam ko'rsatish	emission daromad

Amortizasiya ajratmalari:

- pul shaklida asosiy fondlarning ko'chgan bir qismidir.
- investisiya jarayonining moliyaviy manbaidir.
- asosiy fondlarning belgilangan me'yorda va muddat ichida o'tkaziladi.

Amortizasiya ajratmalarini o'tkazish usullari:

- Teng miqdorlarda o'tkazish.
- Bajarilgan ishlar hajmiga qarab.
- Amortizasiya muddatlarini hisobiga.

Birinchi usuli asosiy fondlarning me'yoriy muddatlariga asoslanadi. Amortizasiya me'yori mehnat vositalarining jismoniy va ma'naviy eskirish va asosiy fondlar qiymatining me'yoriy muddatlariga bog'liq holda belgilanadi. Amortizasiya me'yori asosida fondlarni rivojlantirishi xususiyatlariga bog'liq holda belgilanadi. Amortizasiya ajratmalari miqdorining iqtisodiy asosi birinchi navbatda asosiy vositalar qiymatiga e'tibor beriladi. Hozirgi vaqtda inflyasiyaning kuchayishi asosiy fondlarning balans qiymatini hozirgi baholarda takror ishlab chiqarishni belgilash nuqtai nazarida ko'rib chiqish lozim.

Ikkinchi usul bu qazib chiqaruvchi va transport tarmoqlarida bajarilgan ish xajmiga qarab belgilanadi. Bu yerda amortizasiya o'sha ob'yektga foydalanish natijasida yuz beradi, hech qanday rol o'ynamaydi.

Uchinchi usul amortizasiyaning muddatlarini tezlashtirish maqsadida amortizasiyaning katta qismi birinchi yili qolgan qismi ikkinchi yili o'tkaziladi. Turli mamlakatlarda bu jarayon asosiy fondlarning yangilash hisobiga hamda inflyasiya natijasida beradigan yo'qotishlar mexanizmi sifatida qaraladi.

## **2. Korxonaning moliyaviy kapitali**

Korxonada moliyaviy boshqaruv mexanizmining mohiyati - kapital sarfi, uni jamg'arilishi va iste'molini qoplash uchun turli pul jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanishda mujassamlashgandir.

Asosiy kapital – bu asosiy mablag'lar; tugatilmagan uzoq muddatli investisiyalar; nomoddiy aktivlar; yangi uzoqmuddatli moliyaviy investisiyalar (qo'yilmalar) dir.

Asosiy kapital tarkibiga asosiy vositalar va uskunalarni sotib olishga yo'naltirilgan tugatilmagan kapital qo'yilmalarga xarajatlar kiradi.

Bu asosiy mablag'larni sotib olishga va qurishga xarajatlarning hali asosiy vositaga aylanishga ulgurmagani, xo'jalik faoliyati jarayonida qatnashmayotgan qismidir.

Bu xarajatlarning asosiy kapitalga kiritilishiga sabab shundagi, ular aylanma kapitaldan chiqarilgan bo'ladi (aylanma kapital summasi ularga teng hajmda kamaygan bo'ladi).

Uzoq muddatli moliyaviy investisiyalar:

- ustav kapitalida ulush bilan qatnashish, uzoq muddatga aksiya va obligatsiyalarni sotib olishga xarajatlardir.

- Uzoq muddatli moliyaviy qo'yimalarga xarajatlar ularning xarakteri va turlaridan kelib chiqib to'lanadi.

Moliyaviy investisiyalarga quyidagilar ham kiradi:

- qarz majburiyatlari sifatida boshqa korxonalariga taqdim etilgan uzoq muddatli zayomlar
- moliyaviy lizing ko'rinishida uzoq muddatli ijaraga berilgan mol-mulk qiymati

Nomoddiy aktivlar – bu patentlar va lisenziyalar.

Asosiy mablag'lar – bu mehnat vositasiga tegishli moddiy-ashyoviy boyliklarga sarflangan mablag'lardir.

Korxonalarining asosiy vositalarga qo'yimalari samaradorligini, ulardan foydalanish va takror ishlab chiqarishni tahlil etishda quyidagi holatlarga e'tiborni qaratish zarur: asosiy vositalarning funksional foydalilik darajasi bir necha yil davomida saqlanadi, shu sababdan ularni sotib olish va ulardan foydalanish xarajatlari ma'lum bir davrlarga taqsimlangandir; asosiy vositalarning jismoniy jihatdan almashtirilishi (yangilanishi) davri uning qiymat jihatdan almashtirilishi davriga mos kelmaydi, natijada korxonada faoliyati natijalarini pasaytiruvchi yo'qotishlar va zararlar yuzaga kelishi mumkin.

Asosiy vositalardan foydalanishning moliyaviy ko'rsatkichlari quyidagicha guruhlanadi:

- asosiy vositalarning hajmi, tarkibi va dinamikasi ko'rsatkichlari
- asosiy vositalarni takror ishlab chiqarilishi va aylanishi ko'rsatkichlari
- asosiy vositalardan foydalanish ko'rsatkichlari
- asosiy vositalarni saqlash va ishlatishga xarajatlar samaradorligi ko'rsatkichlari

Korxonaning aylanma kapitali doiraviy aylanishning barcha bosqichlarida mablag'larni uzluksiz harakatini ta'minlaydi, natijada ishlab chiqarishning pul va moliyaviy resurslardagi ehtiyojlarini qondiradi, to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Aylanma mablag'larni moliyalashtirishning barcha manbalari shaxsiy, qarzga olingan va jalb etilgan turlarga bo'linadi.

Shaxsiy mablag'lar:

- Shaxsiy aylanma mablag'lar korxonaning tashkil etilishi davrida, ustav jamg'armasi yaratilishi vaqtida shakllanadi.
- Bunda manba sifatida korxonada ta'sischilarining investitsion mablag'lari namoyon bo'ladi.
- Korxonada faoliyati davomida manba sifatida olingan foyda namoyon bo'lishi mumkin

Qarzga olingan mablag'lar - bankning qisqa muddatli kreditlari bo'lib, ular yordamida korxonaning vaqtinchalik qo'shimcha aylanma mablag'lardagi ehtiyoji qondiriladi.

Aylanma mablag'larni shakllantirishda kreditlarni jalb etishning asosiy yo'nalishlari:

- xom ashyo, materiallarning mavsumiy zaxiralari va ishlab chiqarishning mavsumiyliigi bilan bog'liq xarajatlarni kreditlash
- shaxsiy aylanma mablag'larni yetishmasligini vaqtinchalik qoplashga
- hisob-kitoblarni amalga oshirish va to'lov aylanmasini amalga oshirish

<b>Asosiy ishlab chiqarish fondlari</b>	<b>Aylanma ishlab chiqarish fondlari</b>
Uzoq muddat xizmat qiladi	Bir ishlab chiqarish siklida to'liq ishlatilib tugatiladi
Natural-ashyoviy shaklda bo'lib, iste'mol qiymatini uzoq vaqt saqlab qoladi	O'zining natural-ashyoviy shaklini mehnat jarayoni davomida o'zgartiradi, ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qiymatini yo'qotadi
Bir doiraviy aylanishini uzoq muddatda (bir necha yil) amalga oshiradi	Doiraviy aylanish davri ishlab chiqarish sikliga bog'liq (bir yilda bir necha marotaba)
O'z qiymatini mahsulotga asta-sekin, qism-qism qilib o'tkazadi	O'z qiymatini tayyor mahsulotga birdaniga va to'liq o'tkazadi

### **3. Korxonada moliyaviy faoliyat**

Korxonada moliyasini tashkil etish doirasida uning investision faoliyatini tahlil etish zarur.

Investisiyalar korxonaning dinamik rivojini ta'minlaydi va quyidagi vazifalarni yechishga yordam beradi:

- moliyaviy va moddiy resurslarni jamg'arish evaziga o'zining tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish
- yangi korxonalarni sotib olish
- diversifikatsiya

Zamonaviy sharoitlarda investisiyalarning quyidagi turlari keng rivoj topgandir:

- Moliyaviy investisiyalar
- To'g'ridan-to'g'ri investisiyalar

Moliyaviy investisiyalar - qimmatli qog'ozlarni sotib olish maqsadida amalga oshirilgan uzoq muddatli kapital qo'yilmalar.

Natijada investorning qimmatli qog'ozlar portfeli vujudga keladi. Ular kapital qo'yilmalarning qo'shimcha manbasi bo'lishi, hamda qimmatli qog'ozlar bozorida birja o'yinlari predmeti bo'lishi mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri investisiyalar - asosan real aktivlarni sotib olish bilan bog'liq aniq, uzoq muddatli loyihalarga moliyaviy qo'yilmalar.

Ular yangi ob'yektlarni yaratishga yoki faoliyat yuritayotgan korxonalarni kengaytirish va texnik qayta qurollantirishga yo'naltiriladi.

Korxonada moliyasini tashkil etishda amalga oshirilayotgan solikli to'lovlarning barcha turlari hisobga olinadi.

To'lov manbalaridan kelib chiqib korxonada soliqdagi quyidagicha tasniflanadi:

- mahsulot sotishdan tushumdan undiriladigan soliq (QQS, aksiz)
- mahsulot tannaxiga kiritiladigan soliqlar (yer solig'i, transport vositalariga egalik solig'i, yer qaridan foydalanish solig'i, suv solig'i)
- korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalariga bog'liq soliqlar (korxonalar mol-mulkiga soliq, reklama solig'i)
- Sof foydadan to'lanadigan soliq (korxonalar foydasiga soliq, mahalliy lisenziya yig'imlar)

### **Nazorat savollari**

1. Aylanuvdan tashqari aktivlarga nimalar kiradi?
2. Asosiy vositalarga ta'rif bering?
3. Asosiy vositalar nimalar hisobidan moliyalashtiriladi.
4. Asosiy vositalarning ma'naviy eskirishini qanday baholaysiz?
5. Nima uchun asosiy vositalarga amortizatsiya ajratmasi hisoblanadi?
6. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning qanday usullarini bilasiz?
7. Nomoddiy aktivlar nima va ular qanday baholanadi?
8. Nomoddiy aktivlarning hisobdan chiqarilishini izohlang?
9. Asosiy fondlar samaradorligi qanday aniqlanadi?
10. Korxonalar xo'jalik mablag'lariga nimalar kiradi?
11. Korxonalar xo'jalik mablag'lari qaysi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi?
12. Korxonaning xususiy kapitali tarkibini ayting?
13. Korxonani moliyalashtirishda chetdan qanday qilib mablag'lar jalb etish mumkin?
14. Korxonani moliyalash manbalari tarkibini tahlil qilishdan maqsad nima?
15. Nima uchun korxonalarda pul resurslari harakatini to'g'ri boshqarish kerak?
16. Korxonalar foydasi nimaga asosan va qanday taqsimlanadi?

## **4-MAVZU. SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIYASI**

### **Reja**

1. Sug'urta tushunchasining mazmuni, uning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari.
2. Sug'urta atamalari va sug'urtaning guruhlanishi.
3. Sug'urta bozori va uning tarkibiy tuzilishi
4. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari
5. Sug'urta faoliyatining moliyaviy asoslari

### **Tayanch iboralar**

Sug'urta, sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, sug'urta guvohnomasi, sug'urta summasi, sug'urta tarifi, sug'urta qoplamasi, sug'urta dalolatnomasi, sug'urta bozori, sug'urta brokeri, sug'urta portfeli, majburiy sug'urta, ixtiyoriy sug'urta, mulk sug'urtasi, shaxsiy sug'urta, javobgarlik sug'urtasi, ijtimoiy sug'urta, sug'urta tashkilotlari moliyasi

### **1. Sug'urta tushunchasining mazmuni, uning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari**

Sug'urta mavjud iqtisodiy atamalar orasida o'z mohiyati jihatidan murakkab va ko'p qirrali tushunchadir. Bu atama ishlab chiqarish va iste'mol, tabiiy ofatlar va ko'ngilsiz hodisalar, mulkchilik shakllari va inson hayotida turli sabablar tufayli sodir bo'ladigan salbiy hodisalar bilan chambarchas bog'langan.

Sug'urta - ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liqdir. Normal ishlab chiqarish jarayonining muhim sharti uning uzluksizligi va to'xtovsizligi hisoblanadi.

Agarda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulotda hodisalarning salbiy oqibatlarini ta'sirida to'xtasa yoki buzilsa, u holda jamiyat avvalo turli xil oldini olish qaratilgan tadbirlarini amalga oshirishga, mabodo ular ko'zlangan natijani bermasa, u holda yetkazilgan moddiy zararni qoplashga, ish kuchini ishlab chiqarishning normal sharoitlarini qayta tiklashga majbur bo'ladi.

Inson va tabiat o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, birinchi navbatda, tabiiy va boshqa ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish hamda yetkazilgan zararni yuzaga keltiradi. Bu ob'yektiv munosabatlar insonlarning erishgan hayot darajasini saqlab qolishga bo'lgan real va mavjud ehtiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni alohida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yig'indisi ijtimoiy ishlab chiqarishning sug'urtaviy himoyalash iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi. Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida moliya kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo, moliya to'laligicha daromadlarni taqsimlash bilan bog'liq bo'lsa, sug'urta esa faqatgina qayta taqsimlash munosabatlarinigina qamrab oladi.

*Sug'urta* – bu uning qatnashchilari o'rtasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan maqsadli sug'urta fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari majmuasidan iborat.

*Sug'urta iqtisodiy kategoriya* sifatida moliya kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo, sug'urta moliyadan xususiyatli jihatlarga egadir. Agar moliya qo'shilgan qiymat va pul daromadlarini birlamchi va qayta taqsimlash bilan bog'liq munosabatlarni ifodalasa, sug'urta, faqatgina qayta taqsimlash munosabatlarinigina qamrab oladi.

**Sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha keltirishimiz mumkin:**

1.Sug'urta xavf-xatarlar, tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar bilan bog'langan.

2.Sug'urta jarayonida sodir bo'ladigan munosabatlar chegaralangan bo'ladi. U tor doirada – zararlarni qoplashdan manfaatdor bo'lgan korxonalar va shaxslar bilan sug'urta tashkilotlarining harakat doirasida amal qiladi.

3.Sug'urtaning hudud doirasiga bog'liqligidir. Tabiiy ofatlardan keladigan zararlar kichik yoki katta hudud doirasini qamrab olishi mumkin. Zarar katta hududda bo'lsa, uni qoplash uchun ko'p mablag' talab qilinadi.

4.Sug'urtaning vaqt tushunchasi bilan bog'liqligidir. Sug'urta muddati turlicha bo'lishi mumkin: bir yildan bir necha o'n yilga mo'ljallab tuziladi.

5.Sug'urta badallarining zararni qoplashga sarflanishi, bu orqali sug'urtalanuvchi ixtiyoriga qaytarilishidir. Yangi ko'rsatmalarga binoan, ayrim sug'urta xillarida badalning bir qismi sug'urta hodisasi sodir bo'lmaganda ham belgilangan miqdorda qaytariladi. Bu xususiyatlar katta miqdorda zarar keltiruvchi hodisalarning tasodifiy xarakteri, zararlarni favqulodda miqdorda bo'lishi, buning uchun yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalarning oldini olish, ogohlantirish bilan bevosita bog'liqdir.

Sug'urta davlatning ichki doirasida ham, xalqaro doirada ham ma'lum funksiyani bajaradi:

***Sug'urtaning quyidagi funksiyalari mavjud:***

1. Xavf-xatar
2. Taqsimlash
3. Ogohlantirish
4. Nazorat
5. Investisiya
6. Jamg'arish
7. Axborot

Sug'urtaning xavf - xatari funksiyasi nima uchun zarur? Qadim zamonlardan buyon insoniyat tabiiy ofatlarning vayronagarchilik, ulkan zarar keltirish qirralarini, buning ishlab chiqarishga ko'rsatgan ta'sirini boshidan kechirgan. Mahsulot, mablag', urug'lik, yoqilg'i va moddiy ne'matlardan zaxira hosil qilgan, bu fond hisobidan ofat oqibatlarini tugatish uchun muhtojlarga yordam bergan. Zilzila, toshqin, yong'in oqibatlari sug'urtaning ana shu funksiyasi amal qilishi natijasida hosil qilingan fondlar asosida tugatilgan.

Sug'urtaning taqsimlash funksiyasi sug'urtalashda qatnashuvchilar o'rtasida pul mablag'larini qayta taqsimlanishini ta'minlaydi.

Sug'urtaning ogohlantirish funksiyasi: xavf-xatar funksiyasi bilan bog'langan. Turli xavf-xatarlarning oldini olish tadbirlari sug'urta to'lovchilarning umumiy tushumidan ajratma sifatida beriladigan mablag'lar hisobiga qoplanadi.

Sug'urtaning oqoxlantirish tadbirlariga sarflash uchun ajratiladigan mablag'lar favqulodda zararlarni va uning oqibatlarini kamaytirishda katta ahamiyat kashf etadi.

Nazorat qilish funksiyasida: sug'urta fondi mablag'ini maqsadli tashkil etish va foydalanishni nazorat qiladi. Shuningdek sug'urta kompaniyasining moliyaviy turg'unligini ta'minlash uchun nazorat funksiyasidan foydalaniladi.

Sug'urta badallarining yig'ilishi va ular hisobidan zararining qoplanishi bir vaqtda emas, balki turli muddatlarda sodir bo'ladi. Ishlatilmay bo'sh turgan mablag'lar hisobidan zaxira fondlari tashkil qilinadi va ularning bo'sh turgan qismidan tijorat maqsadlari uchun foydalaniladi. Sug'urtaning investisiya funksiyasi bo'sh turgan mablag'lardan samarali foydalanib, sug'urta tashkilotining moliyaviy ahvolini yaxshilashga yordam beradi.

Sug'urtaning jamg'arma funksiyasi: inson hayot bo'lganda sug'urtalashda yoki o'lim sodir bo'lganda sug'urta summasi mazmuniga ko'ra jamg'arma hisoblanadi.

Axborot funksiyasi sug'urtaning yangi funksiyasidir. Sug'urta faoliyatini rivojlantirish sug'urtalanuvchilarga sug'urta tashkilotlari haqida axborot berishni talab qiladi. Buning uchun ma'lumotlarni shakllantirish, sug'urta bozorini tashkil qilish lozim.

## **2. Sug'urta atamalari va sug'urtaning guruhlanishi**

Sug'urtada mujjassamlashadigan ko'p qirrali munosabatlar mazmuni so'z va atamalar orqali ifoda qilinadi.

Sug'urtaning o'ziga xos atamalari, tushunchalari mavjud. Atamalar yordamida sug'urta munosabatlarni tashkil qiluvchilarning huquq va vazifalari belgilanadi, ko'p qirrali sug'urta faoliyati tashkil qilinadi. Bu atamalar sug'urta jarayonining kaliti hisoblanadi. Kalitsiz eshik ochib bo'lmagandek, atamalarning mazmunini tushunmasdan sug'urta ishini boshqarib bo'lmaydi.

Atamalar to'rt guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh - sug'urtaning muhim tashkiliy qirralarini, shartlarini ifodalovchi atamalar.

Ikkinchi guruh - sug'urta fondini shakllanishi bilan bog'liq atamalar.

Uchinchi guruh - sug'urta fondini sarflanishi bilan bog'liq atamalar.

To'rtinchi guruh - xalqaro sug'urta atamalari.

***Sug'urta faoliyatini tashkil qilish bilan bog'langan atamalarga quyidagilar kiradi:***

- *Sug'urtalovchi*
- *Sug'urtalanuvchi*
- *Sug'urtaning ob'yekti va predmeti*



- *Sug'urta himoyasi*
- *Sug'urta javobgarligi*
- *Qayta sug'urta qilish*
- *O'zaro sug'urta qilish*
- *Sug'urta vakillari*
- *Sug'urta guvohnomasi*
- *Sug'urta qoplamasini oluvchi.*

**Sug'urtalovchi** – sug'urta qiluvchi tashkilot, sug'urta xizmatlarini ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar, sug'urta fondini tashkil qilish, sarflash va sug'urta operatsiyalarini o'tkazish uchun davlat lisenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxslar.

**Sug'urtalanuvchi** – o'z manfaatlaridan kelib chiqib sug'urta himoyasi bo'yicha xizmatlarni sotib oluvchilar, sug'urtadan manfaatdor bo'lgan va sug'urtalovchi bilan qonun yoki shartnoma asosida munosabatga kiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

**Sug'urtaning ob'yekti va predmeti** - mulk sug'urtasida ob'yekt sifatida moddiy boyliklar mol-mulk ko'zda tutilsa, shaxsiy sug'urtada fuqarolarni hayoti sog'ligi va mehnat qobiliyati ko'zda tutiladi. Sug'urta predmeti ana shu ob'yektlarni tarkibiy qismlaridir. Masalan, uy-joyda saqlanuvchi mol-mulklar ob'yekt bo'lsa, uy ro'zgor buyumlari, mebellar, gilamlar, televizorlar bu sug'urtaning predmeti hisoblanadi.

**Sug'urta himoyasi.** Sug'urtaning himoyasi bu moddiy jihatdan sug'urta fondidir. Sug'urta himoyasi faqat fond emas, balki yetkazilgan zararlarni qoplash bilan bog'langan taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

**Sug'urta javobgarligi.** Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchining qonunda yoki shartnomada ko'zda tutilgan javobgarligi, o'z zimmasiga olgan majburiyatlari, vazifalaridir. Agar ko'rsatilgan hodisalardan biri sodir bo'lsa, u holda sug'urta organlari o'z zimmasiga olgan majburiyat asosida sug'urta qoplamasini to'laydilar. Davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan ko'zda tutilgan javobgarlik xususiy sug'urta tashkilotlarida ko'zda tutilgan javobgarlikdan farq qiladi. Bundan tashqari har bir sug'urta tashkiloti sug'urtaning har bir turi bo'yicha o'z javobgarligini o'zi belgilaydi.

**Qayta sug'urta qilish.** Sug'urtalovchi ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini butunlay yoki qisman boshqa sug'urtalovchiga o'tkazish yoki qayta sug'urta qilish mumkin. Sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchining roziligi bilan asosiy shartnomani o'zgartirmasdan turib, sug'urta shartnomalari asosida o'zining javobgarligini to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan boshqa sug'urta tashkilotlariga topshirib, qayta sug'urta qildirsa bo'ladi. Sug'urta voqeasi yuz berganda qayta sug'urtalagan tashkilot shartnomaga ko'ra o'z zimmasiga olgan majburiyatlar doirasida javobgar bo'ladi.

**Birgalikda sug'urta qilish.** Bunda ikki yoki undan ortiq sug'urta tashkiloti bitta sug'urta shartnomasi tuzadi. Unda har bir sug'urtalovchining huquq va majburiyatlarini belgilovchi shartlar bo'lishi lozim.

***Sug'urta vakillari*** sug'urta xodimlari bo'lib, o'zlariga berilgan vakolatga muvofiq sug'urtalovchi nomidan va uning topshirig'i asosida ishlovchi jismoniy yoki yuridik shaxslardir.

***Sug'urta guvohnomasi (polis)*** mulk yoki shaxsiy sug'urta tashkil etilganligiga guvohlik beruvchi hujjatdir. Ixtiyoriy sug'urtada bunday hujjatlar birinchi badal to'langandan keyin beriladi.

***Sug'urta qoplamasini oluvchi*** sug'urta qoidalari yoki shartnomalarda ko'zda tutilgan, sug'urta hodisalari sodir bo'lganda yoki boshqa sabablar tufayli sug'urta tashkilotlaridan ma'lum miqdorda qoplama (mablag') oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

**Sug'urta fondining sug'urta badallari hisobidan shakllanishi o'ziga xos jarayon bo'lib, u badal miqdorini aniqlash bilan bog'liq qator tushunchalarga egadir. Bu tushunchalarga quyidagilar kiradi:**

- *Sug'urtaviy baholash*
- *Sug'urta summasi*
- *Sug'urta tarifi*
- *Sug'urta muddati*
- *Sug'urta boqimandasi*
- *Sug'urta to'lovi*

***Sug'urtaviy baholash.*** Bu mol-mulk sug'urtasida qo'llaniladi. Sug'urtaviy baholash asosida sug'urta ob'yektlarining qiymati aniqlanadi va sug'urta badallari hisoblanadi.

***Sug'urta so'mmasi*** - sug'urta ob'yektining qancha miqdorda (summaga) sug'urta qilinganidir.

***Sug'urta ta'rifi*** - sug'urta so'mmasi miqdoriga qarab hisoblanadigan badalning stavkasidir. Sug'urta tarifi asosida sug'urta to'lovlari hisoblab chiqiladi.

***Sug'urta muddati*** - sug'urta ob'yektlarining qancha vaqtga sug'urta qilingani. Sug'urta muddati bilan uning amal qilish muddatining boshlanish tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Sug'urta muddati sug'urta to'lovining birinchi badali to'langan davrdan boshlanadi.

***Sug'urta boqimandasi.*** Sug'urta badallarini to'lash muddatlari majburiy sug'urta bo'yicha amalda, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha esa sug'urta shartnomasida ko'rsatiladi. Agar badal belgilagan to'lov muddatida to'lanmasa, u holda to'lov boqimandaga aylanadi. Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lanmagan to'lov shartnomaning bekor qilinishiga asos bo'ladi. Majburiy sug'urta turlari bo'yicha to'lov muddatlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. O'z vaqtda to'lanmagan to'lov boqimandaga aylanadi, har bir kun uchun peniya hisoblanadi.

***Sug'urta to'lovi*** - tarif asosida hisoblangan sug'urta badalidir.

***Sug'urta fondini sarflash bilan aloqador atamalar:***

- Sug'urta hodisasi
- Sug'urta dalolatnomasi
- Sug'urtada zarar

- Sug'urta rentasi
- Sug'urta qoplamasi

**Sug'urta hodisasi.** Sug'urta xavf-xatarida ko'zda tutilgan favqulotda tasodiflardan birortasining sodir bo'lishi sug'urta hodisasi. Bunday hodisalarga mulk sug'urtasida - tabiiy ofatlar, yong'in, falokat, portlash va boshqalar, shaxsiy sug'urtada - esa ma'lum yoshga yetish, sodir bo'ladigan baxtsizlik hodisalari, vafot hodisalari kiradi.

**Sug'urta dalolatnomasi (akti).** Bu sug'urta hodisasining sodir bo'lganligini va uning sabablarini isbotlab beruvchi rasmiy hujjat. Mulk sug'urtasida dalolatnoma asosida zarar miqdori va unga to'lanadigan qoplama miqdori aniqlanadi. Hujjat qoplama olishda asos bo'ladi. Shaxsiy sug'urtada sug'urta dalolatnomasi baxtsizlik hodisasini tasdiqlash, uni sug'urtalanuvchini bu hodisa xizmat vazifalarini bajarishida yoki yo'lda bo'lganida sodir bo'lganini aniqlashga imkon beradi. Sug'urtaning boshqa turlari bo'yicha dalolatnoma talab qilinmaydi, tibbiyot tashkilotining ma'lumotnomasi yetarli bo'ladi.

**Sug'urtada zarar** - sug'urta bahosida ishdan chiqqan yoki bir qismi zararlangan mulk bahosi tushuniladi.

**Sug'urta rentasi** - qo'shimcha nafaqani sug'urtalash asosida sug'urtalanuvchiga oy yoki yil davomida to'lanadigan muntazam daromad. Qo'shimcha sug'urta nafaqasida agar badallar o'z vaqtida to'lab borilgan bo'lsa, pensiya yoshiga chiqqan oydan boshlab, qo'shimcha pensiya to'lanadi.

**Sug'urta qoplamasi** - sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi tufayli yetkazilgan zarar miqdorini qoplash uchun ajratilgan mablag'.

Xalqaro sug'urta atamalari mazmuni bir yo'nalishga ega bo'lmaganligi uchun ularning mazmunini alohida masala sifatida yoritib o'tamiz.

**Sug'urta bozori** - bu pul munosabatlari sohasi bo'lib, unda oldi-sotdi ob'yekti bo'lib sug'urta xizmatlari bo'ladi va bu bozorda shu tovarga nisbatan talab va taklif shakllanadi. Sug'urta bozori bir necha sug'urta tashkiloti tashabbusi bilan shakllanadi.

**Sug'urta portfeli.** Sug'urta kompaniyasi tomonidan olingan badallar yig'indisi yoki tuzilgan va to'langan shartnomalar soni.

**Sug'urta bonusi.** Transport sug'urtasida qo'llaniladigan atama bo'lib, bu orqali uzoq yillar davomida falokasiz ishlagan sug'urtalanuvchilarga sug'urta badali hisobidan beriladigan yengilliklar. Bu yengilliklar 2-3 oyga sug'urta badalidan ozod qilish yoki sug'urta badaliga nisbatan foiz hisobidan yengilliklar berish tarzida amalga oshiriladi.

**Kargo sug'urtasi.** Transport vositalaridagi barcha tashiladigan yuklarni transport vositalarsiz sug'urta qilinishi. Bunda sug'urta tashkiloti faqat sug'urtalangan yuklar uchun javobgar hisoblanadi.

**Kasko sug'urtasi.** Kasko sug'urtasida faqat transport vositalari sug'urta qilinadi. Agar yuk transport vositasi egasiga qarashli bo'lsa, u holda har ikki sug'urta vositasidan - kargo va kasko turlaridan foydalanish mumkin.

**Shomaj** ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni ko'zda tutib taxminan sug'urtalash usuli.

**Sug'urta franshizasi** turli sabablar bilan yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarning umumiy miqdorini sug'urta tashkiloti hisobidan qoplanmaydigan qismi.

**Sug'urta brokeri** - sug'urta tashkiloti va sug'urtalanuvchining sug'urtalash va sug'urta shartnomasini bajarishdagi munosabatlarni o'rnatuvchi shaxs. Sug'urta brokeri yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lib, u yoki bu sug'urta kompaniyasi bilan sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urtalanuvchining konsultanti rolini bajaradi. Sug'urta brokeri o'z nomidan faoliyat olib boradi.

**Sug'urta auditori** - sug'urta tashkilotlarining moliyaviy xo'jalik faoliyatlari ustidan mustaqil tekshirishga vakil qilingan maxsus tashkilot yoki shaxs.

**Anderrayter** - turli risklarni sug'urtalash vakolatiga ega sug'urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs.

**Binder** - sug'urtalovchi bilan sug'urtalanuvchi o'rtasidagi vaqtincha tuzilgan shartnoma. Bu kelgusida shartnoma tuzish uchun asos bo'ladi.

Sug'urta ishini boshqarish, uning o'xshash turlarini guruhlashtirishni talab qiladi.

**Sug'urtani guruhlashda ikkita me'zonga tayaniladi:**

1. Sug'urtalash shakli bo'yicha;
2. Sug'urta ob'yektlari bo'yicha

**Sug'urtalash shakli bo'yicha quyidagi sug'urta turlari mavjud:**

- Majburiy sug'urta;
- Ixtiyoriy sug'urta

**Sug'urtalash ob'yektlari bo'yicha quyidagi sug'urta turlari mavjud:**

- Mulk sug'urtasi;
- Shaxsiy sug'urta;
- Javobgarlik sug'urtasi;
- Iqtisodiy risklar sug'urtasi;
- Ijtimoiy sug'urta

**Mulk sug'urtasi** sug'urta ob'yekti bo'lib fuqarolar, korxonalar va tashkilotlarning mol-mulki hisoblanadi.

**Shaxsiy sug'urtada** sug'urta ob'yekti bo'lib insonning hayoti, sog'lig'i va mehnat qilish qobiliyati hisoblanadi. Shaxsiy sug'urta 1) hayot sug'urtasiga, 2) baxtsiz hodisalar sug'urtasiga, 3) tibbiy sug'urtaga bo'linadi.

**Javobgarlik sug'urtasida** sug'urta ob'yekti bo'lib uchinchi shaxs oldidagi javobgarlik hisoblanadi. Mulk va shaxsiy sug'urtadan farqli sug'urtalanuvchining manfaatlaridan tashqari uchinchi shaxsning manfaatlari ham himoya qilinadi. Javobgarlik sug'urtasi 1) qarzdorlik sug'urtasiga, 2) fuqarolik javobgarligi sug'urtasiga bo'linadi.

**Iqtisodiy risklar sug'urtasida** sug'urta ob'yekti bo'lib tadbirkorlik faoliyati jarayonida kelib chiqadigan zarar hisoblanadi.

**Ijtimoiy sug'urtada** sug'urta ob'yekti bo'lib fuqarolarning daromad darajasi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urtaga nafaqa sug'urtasi kiradi.

### 3. Sug'urta bozori va uning tarkibiy tuzilishi

Sug'urta bozori moliyaviy bozorining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Sug'urta bozorida sug'urta xizmatlarini taklif etuvchi turli hil sug'urta kompaniyalari va sug'urta xizmatlariga ehtiyoj sezuvchi sub'yektlar ishtirok etadilar.

Agar, sug'urta bozorida sug'urta xizmatlarini taqdim etuvchi sug'urta kompaniyalari uchun sug'urta daromad olishning asosiy manbai sifatidagi biznes hisoblansa, sug'urtalanuvchi uchun ro'y berishi mumkin bo'lgan sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida ko'riladigan ehtimolli zararlarni kamaytirish imkoniyatidir.

*Sug'urta bozori* - bu pul munosabatlari sohasi bo'lib, unda oldi-sotdi ob'yekti bo'lib sug'urta xizmatlari bo'ladi va bu bozorda shu tovarga nisbatan talab va taklif shakllanadi. Sug'urta bozorini amal qilishining asosiy sharti sug'urta xizmatlariga ehtiyoj (talab) va bu ehtiyojlarni qondirishga layoqatli sug'urtalovchilarning mavjudligidir.

#### Sug'urta bozorining umumiy tuzilmasi



Sug'urta bozori tarkibiy jihatdan tashkiliy-huquqiy va hududiy jihatlari bo'yicha bo'linishi mumkin. Tashkiliy-huquqiy jihatdan aksioner, qo'shma, xususiy va davlat sug'urta tashkilotlaridan iborat bo'ladi. Hududiy jihatdan esa milliy, mintaqaviy va xalqaro sug'urta bozorlariga bo'linadi. Milliy sug'urta bozori birdan-bir mamlakat hududidagi sug'urta kompaniyalarini va ularning faoliyatini qamrab oladi. Bunga O'zbekiston sug'urta bozorini misol qilib olishimiz mumkin. Hozirgi kunda milliy sug'urta bozorimizda ko'plab sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Mintaqaviy sug'urta bozori deganda, savdo-iqtisodiy va boshqa jihatlardan o'zaro munosabatda bo'lgan bir nechta mamlakatlar hududlarini qamrab oluvchi bozor tushuniladi. Xalqaro sug'urta bozori sifatida dunyo miqyosida sug'urta faoliyatini olib boruvchi mamlakatlarning sug'urta bozori tushuniladi. Sug'urta bozori bozor munosabatlari sub'yektlarining mustaqilligini, ularning sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha teng huquqli hamkorligini ko'zda tutadi.

#### ***Sug'urta bozorining sub'yektlari quyidagilardan iborat.***

1. O'z manfaatlaridan kelib chiqib sug'urta himoyasi bo'yicha xizmatlarni sotib oluvchilar (sug'urtalanuvchilar). ***Sug'urtalanuvchilar*** – sug'urtadan manfaatdor bo'lgan va sug'urtalovchi bilan qonun yoki shartnoma asosida munosabatga kiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

2. Sug'urta xizmatlarini ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar (sug'urtalovchilar). ***Sug'urtalovchilar*** – sug'urta fondini tashkil qilish, sarflash va sug'urta operasiyalarini o'tkazish uchun davlat lisenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxslar.

3. Sug'urta shartnomalarini tuzish funksiyalarini bajaruvchi vositachilar (sug'urta agentlari va brokerlari). ***Sug'urta agentlari*** o'zlariga berilgan vakolatga muvofiq sug'urtalovchi tashkilot nomidan va uning topshirig'i asosida faoliyat olib boruvchi (sug'urta polislarini sotadi, ya'ni sug'urta shartnomalarini tuzadi, yangilaydi, hujjatlarni rasmiylashtiradi) jismoniy yoki yuridik shaxslardir. Quyidagi yuridik shaxslar sug'urta agentlari bo'lishi mumkin: yuridik konsultasiyalar, turistik agentliklar, notarial idoralar. ***Sug'urta brokeri*** yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lib, u yoki bu sug'urta kompaniyasi bilan sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urtalanuvchining konsultanti rolini bajaradi. Sug'urta agentidan farqli sug'urta brokeri o'z nomidan faoliyat olib boradi.

#### ***Sug'urta bozorining asosiy vazifalari:***

- sug'urta xizmatlariga talabni shakllantirish (marketing, reklama);
- shartnomalar tuzish va sug'urta polislarini sotish;
- maqsadga muvofiq va egiluvchan tarif siyosatini olib borish;
- o'z infratuzilmasini tartibga solish.

#### ***Sug'urta bozorining shakllanishi va rivojlanishi quyidagi tamoyillarga tayanadi:***

- ***Demonopolizasiya tamoyili***, ya'ni sug'urta bozorida barcha sug'urta tashkilotlari (davlat, xususiy, aksionerlik) o'z faoliyatini olib borishlari mumkin.

- **Raqobat tamoyili**, ya`ni sug`urta xizmatlarini taqdim etishda, sug`urtalanuvchilarni jalb etishda va sug`urta fondlariga pul mablag`larining kirib kelishini ta`minlashda sug`urta tashkilotlari o`rtasida raqobat bo`lishi kerak.
- **Sug`urtalovchilarning hamkorligi tamoyili**, ya`ni katta yoki xavfli risklarni qayta sug`urtalash yoki birgalikda sug`urtalashda manna shu tamoyilga tayanish kerak. Bunday hamkorlik qayta sug`urtalashning rivojlanishiga, sug`urta fondlari va assosiasiyalarining shakllanishiga olib keladi.
- **Tanlash erkinligi tamoyili**, ya`ni sug`urtalanuvchilar sug`urta xizmatlari, shakllari va ob`yektlari shartlarini tanlashda erkin bo`lishlari kerak.
- **Sug`urta himoyasining ishonchliligi va kafolatlanganligi tamoyili**, ya`ni bu tamoyil sug`urta faoliyati huquqiy asosga tayanishi kerakligini ko`rsatadi.
- **Oshkoralik tamoyil**, ya`ni sug`urta tashkilotlari faoliyati haqidagi ma`lumotlar yetarli darajada oshkora bo`lishi kerak. Bu tamoyil sug`urtalanuvchiga sug`urta kompaniyasini tanlashda imkon beradi.

Sug`urta bozorida tovar sifatida sug`urta xizmatlari chiqadi. Sug`urta xizmatlari shartnoma asosida (ixtiyoriy sug`urtada) yoki qonun asosida (majburiy sug`urtada) ko`rsatilishi mumkin.

Sug`urta xizmatlarining bahosi sug`urta tariflarida o`z aksini topadi.

Sug`urta xizmatlari bahosi, yoki tarif stavkasi (brutto-stavka), ikki qismdan iborat: netto-stavka va yuklama.

Sug`urta tarifining asosiy qismi – netto stavka – sug`urtalanuvchilarga to`lanadigan sug`urta to`lovlarini shakllantirishga qaratilgan.

Tarif stavkasining ikkinchi elementi – yuklama. U o`z ichiga sug`urtalovchining ish yuritish bilan bog`liq xarajatlarini, ogoxlantirish tadbirlariga sarflanadigan xarajatlarni, zaxira fondiga ketadigan ajratmalarni va sug`urta operasiasini olib borishdan keladigan foydani oladi.

Sug`urta bozorining assortimenti bu sug`urtalanuvchi tomonidan foydalanishi mumkin bo`lgan sug`urta turlaridir.

Sug`urta bozorining rivojlanishi uchun sug`urta xizmatlariga talab bo`lishini, shuningdek sug`urta xizmatlari taklifi talabdan oshishini taqozo etadi.

#### **4. O`zbekiston Respublikasida faoliyat ko`rsatayotgan sug`urta tashkilotlari**

Respublikamizda hozirgi kunda juda ko`p sug`urta kompaniyalari o`z faoliyatini olib borishmoqda. Quyidagi jadvalda respublikamizda faoliyat ko`rsatayotgan sug`urta kompaniyalari keltirilgan.

#### **O`zbekistonda faoliyat ko`rsatayotgan sug`urta kompaniyalari (01.04.2008 yil holatiga ko`ra)**

<b>№</b>	<b>yuridik shaxs nomi</b>	<b>yuridik shaxsning to`liq nomi</b>	<b>Tashkiliy huquqiy shakli</b>
----------	---------------------------	--------------------------------------	---------------------------------

1.	EIMSK «O'zbekinvest»	Eksport import milliy sug'urta kompaniyasi «O'zbekinvest»	Davlat korxonasi
2.	DASK «O'zagrosug'urta»	Davlat aksionerlik sug'urta kompaniyasi «O'zagrosug'urta»	Davlat aksionerlik
3.	DASK «Kafolat»	Davlat aksionerlik sug'urta kompaniyasi «Kafolat»	Davlat aksionerlik
4.	SA «MADAD»	Hususiy tadbirkorlik va kichik biznesni sug'urtalash agentligi «MADAD»	Davlat aksionerlik
5.	SP SK «UzAIG»	O'zbekiston-Amerika qo'shma korxonasi, sug'urta kompaniyasi «UzAIG»	Yopiq aksionerlik jamiyati
6.	SK «Universal Sugurta»	Sug'urta kompaniyasi «Universal Sugurta»	Yopiq aksionerlik jamiyati
7.	SK «AJSK»	Osiyo temiryo'l sug'urta kompaniyasi «AJSK»	Ochiq aksionerlik jamiyati
8.	SK «ARK sug'urta guruhi»	Sug'urta kompaniyasi «ARK sug'urta guruhi»	Ochiq aksionerlik jamiyati
9.	SK «ASKO-VOSTOK»	Sug'urta kompaniyasi «ASKO-VOSTOK»	Yopiq aksionerlik jamiyati
10.	SP SK «ALSKOM»	O'zbekiston Rossiya qo'shma korxonasi, sug'urta kompaniyasi «ALSKOM»	Ochiq aksionerlik jamiyati
11.	SK «ALFA INVEST»	Sug'urta kompaniyasi «ALFA INVEST»	Yopiq aksionerlik jamiyati
12.	IP SK «Fotis Sugurta»	Xorijiy korxonasi, sug'urta kompaniyasi «Fotis Sugurta» (Niderlandiya)	Yopiq aksionerlik jamiyati
13.	SAO «Kapital Sugurta»	Ochiq aksionerlik jamiyati «Kapital Sugurta»	Ochiq aksionerlik jamiyati
14.	MSK «Ishonch»	Banklararo sug'urta kompaniyasi «Ishonch»	MChJ
15.	SP PK «Transinsurans»	O'zbekiston Shveysariya qo'shma korxonasi, qayta sug'urtalash kompaniyasi «Transinsurans»	MChJ
16.	SK «Transinsurans Plus»	Sug'urta kompaniyasi «Transinsurans Plus»	MChJ
17.	SO «Parvina Sug'urta»	Sug'urta birlashmasi «Parvina Sug'urta»	MChJ
18.	SK «Unipolis»	Sug'urta kompaniyasi «Birja savdosug'urta»	MChJ
19.	CK «Temir Yollari-Sugurta»	Sug'urta agentligi «Temir Yollari-Sugurta»	MChJ
20.	SK «Toshkent	Sug'urta kompaniyasi «Toshkent	MChJ



	sug'urta»	sug'urta»	
21.	SK «Alliance Insurance»	Sug'urta kompaniyasi «Alliance Insurance»	MChJ
22.	SP SK «Standart Insurance Group»	O'zbekiston Shveysariya Qo'shma korxonasi, sug'urta kompaniyasi «Standart Insurance Group»	MChJ
23.	SP SK «Asia Insurans»	O'zbekiston Britaniya qo'shma korxonasi, sug'urta kompaniyasi «Asia Insurans»	MChJ
24.	SK «Kafil Sugurta»	Sug'urta kompaniyasi «Kafil Sugurta»	MChJ
25.	SK «Inter Tesko»	Sug'urta kompaniyasi «Inter Tesko»	MChJ
26.	SK «Garant Insurance Group»	Sug'urta kompaniyasi «Garant Insurance Group»	Qiz korxonasi
27.	SK «UVT-INSHURANS»	Sug'urta kompaniyasi «UVT-INSHURANS»	Qiz korxonasi
28.	SK «O'zbekinvest Xayot»	Sug'urta kompaniyasi «O'zbekinvest Xayot»	Qiz korxonasi

Javdvaldan ko'rinib turibdiki respublikamizda 1ta milliy sug'urta kompaniyasi, 3ta davlat ishtirokidagi asionerlik sug'urta kompaniyasi, 9 ta aksionerlik jamiyati ko'rinishidagi sug'urta kompaniyalari (shulardan 3tasi xorijiy kapital ishtirokida tuzilgan), 12 ta MChJ ko'rinishidagi sug'urta kompaniyalari (shulardan 3 tasi xorijiy kapital ishtirokida tuzilgan), 3 ta qiz korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Quyidagi jadvalda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma kompaniyalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma sug'urta kompaniyalari haqida ma'lumotlar

№	Kompaniya nomi	Ustav fondi, ming dollar	Ustav fondida xorijiy kapitalning ulushi, %	Xorijiy kompaniya nomi	Davlat nomi
1.	«UzAIG»	2000	51	«AIG»	AQSh
2.	«ALSKOM»	1610,3	36,8 3,4	OOO SK «Soglasie» «Gervakd Investmens LLP»	Rossiya Buyuk Britaniya
3.	«Fotis Sugurta»	1000	98 2	«Fotis B.V.» norezident bo'lgan jismoniy	Niderlandiya

				shaxslar	
4.	«Transinsurans»	2622,2	90	«Serval Shipping AG»	Shveysariya
5.	«Standart Insurance Group»	500	38	«ZEROMAX GmbH»	Shveysariya
6.	«Asia Insurans»	1339,9	99,3	«Logostar LTD»	Buyuk Britaniya

*«O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi* ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati shaklida, yuridik shaxs sifatida tashkil qilinib, o'zining mustaqil balansi, hisob va valyuta raqamlariga ega.

Kompaniya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 fevraldagi farmoniga muvofiq tashkil etildi.

*«Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi.* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 14 martdagi qaroriga muvofiq shahar hududida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta xizmatlarini ko'rsatadigan «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi.

*«Madad» sug'urta agentligi.* "Madad" sug'urta agentligi 1995 yilda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni qo'llab quvvatlash, ularga samarali sug'urta xizmatlari ko'rsatishdir.

*«O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi.* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq 1994 yil 21 yanvarda «O'zbekinvest» milliy sug'urta kompaniyasi (1997 yil Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi o'zgartirildi) tashkil etildi.

*«O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta tashkilotining asosiy maqsadi* respublika iqtisodiyotida eksport o'sishini yanada rag'batlantirish, eksport qiluvchilarni sug'urtaviy himoya qilishni ta'minlash, xorijiy mamlakatlar investorlari bilan aloqa qiluvchi o'zbek investorlarining faoliyatini kuchaytirish, iqtisodiyotning ustivor tarmoqlariga jalb etilayotgan chet el investisiyalarini kompleks sug'urtaviy himoya qilishdir.

Kompaniyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri - investisiyalarni faqat iqtisodiy xavf-xatardangina emas, balki siyosiy xavf-xatarlardan (urush, inqilob, fuqarolar g'alayoni, pul o'tkazishni chegaralash va boshqalar) ham himoya qilishdir. Shu munosabat bilan xorijiy mamlakatlarda sug'urtaning bu turiga qiziqish kuchaymoqda.

## 5. Sug'urta faoliyatining moliyaviy asoslari

*Sug'urta tashkilotlarining moliyasi* tabiiy ofatlar, kutilmagan hodisalar natijasida yetkazilgan zararlarni qoplash va ularni oldini olish maqsadida shakllangan pul resurslari fondlari bilan bog'liq munosabatlarni ifoda etadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin markazlashgan sug'urta fondi o'rniga markazlashmagan davlat aksiyadorlik va xususiy sug'urta kompaniyalarining moliyasi shakllandi.

Mustaqillik yillarida sug'urta markazlashgan tartibda emas, balki markazlashmagan tartibda boshqarila boshlandi. Hozirda har bir sug'urta tashkiloti o'zining mustaqil moliyasiga ega bo'lib, ular orasida davlat aksiyadorlik sug'urta tashkilotlari O'zagrosug'urta, Kafolat, O'zbekinvest va Madad sug'urta tashkilotlarining mustaqil moliyalari markaziy o'rin tutadi.

*Sug'urta tashkilotlarining moliyasini tashkil etuvchi pul munosabatlari ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:*

- Sug'urta himoyasi tashkil qilish bilan bog'liq pul munosabatlari.
- Sug'urta fondini tashkil qilish bilan bog'liq pul munosabatlari.

*Sug'urta himoyasini shakllantiruvchi pul munosabatlari yana ikki bosqichdan o'tadi.*

- Birinchi bosqichida sug'urta fondini shakllantiruvchi taqsimlash munosabatlari;
- Ikkinchi bosqichda undan foydalanish bilan bog'liq investisiya munosabatlari.

Sug'urta fondlari tarif asosida hisoblanadigan sug'urta to'lovlari asosida shakllanadi.

Sug'urta to'lovlarini qabul qilish va uning sarflanishi bir vaqtda sodir bo'lmasdan, turli vaqtlarda sodir bo'ladi. To'plangan sug'urta mablag'larining bir qismi sug'urta tashkiloti ixtiyorida qoladi. Lekin bozor iqtisodiyoti davrida sug'urta tashkiloti faqat o'z xarajatlarini qoplash bilan chegaralanmay, balki foyda olishni ham ko'zda tutadi.

Lekin shuni aytish kerakki, bu o'rinda «foyda» atamasi shartli ma'noda qo'llaniladi, chunki sug'urta tashkilotlari milliy daromad hosil qilishda qatnashmaydilar. Shuning uchun sug'urta tashkilotlari katta xajmda foyda olishga intilmasliklari kerak, chunki buning natijasida sug'urta tashkiloti bilan sug'urtalanuvchi o'rtasidagi ekvivalentlik tamoyili buziladi. Foyda deganda shunday ijobiy natija ko'zda tutiladiki, sug'urta himoyasini amalga oshirish maqsadida daromadlarning xarajatlardan oshgan holda muvozanatlanishi ta'minlanadi. Shunga qaramasdan hududda kamroq zarar ko'rilsa, sug'urta tashkilotlarining foyda miqdori ba'zan yuqori bo'lishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari foydasining asosiy manbai uning investisiya faoliyati hisoblanadi. Bu faoliyat natijasida sug'urta fondi mablag'larining bir qismi tijorat maqsadlarini ko'zlab sarflanadi.

Sug'urta faoliyatining maqsadi ulkan ijtimoiy ahamiyatiga ega bo'lgan ko'rsatiladigan xizmatlar bo'lsa, investisiya faoliyatining maqsadi esa foyda olishdan iborat. Haqiqatdan ham bu ikki yo'nalish o'zaro uzviy bog'langan.

Shunday qilib sug'urtalanuvchining moliyaviy barqarorligining negizi ularning ustav kapitalini va sug'urta zaxiralarini mavjud bo'lishi, shuningdek, qayta sug'urta qilish tizimidan olingan manfaatdorlik hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotlari daromad va xarajatlarining muvozanati ularning barqarorligini ifoda qiladi.

Sug'urta tashkilotlari zimmalariga olgan sug'urta majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash maqsadida shaxsiy sug'urta bo'yicha bo'lg'usi to'lovlar, mulkiy va javobgarlik sug'urtasi bo'yicha zaxiralarni vujudga keltiradilar. Bu zaxiralar musodara qilinishi mumkin emas. Sug'urta tashkilotlari soliqlar to'langandan keyin qoladigan va o'z ixtiyorlariga kelib tushadigan daromadlaridan o'z faoliyatlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan fondlar tashkil qilishlari mumkin.

Sug'urta tashkilotlarining daromadlari sug'urta tadbirlaridan keladigan daromadlardan, investisiya faoliyatlaridan va boshqa tushumlar hisobidan shakllanishi mumkin. Sug'urta to'lovlari sug'urta tashkilotlarining birlamchi daromadidir. Uning asosida sug'urta mablag'larining doimiy xarajatlari amalga oshiriladi, shu bilan birga u investisiya faoliyatini mablag' bilan ta'minlashining manbai hisoblanadi.

Sug'urta xarajatlariga mablag' sarflash bilan uning ixtiyoriga daromadlarning kelib tushishi o'rtasida muayyan vaqt o'tadi. Bu vaqt davomida daromad bilan xarajatning farqidan, ya'ni daromadlarni xarajatlardan oshgan qismidan foydalanish mumkin. Shaxsiy sug'urtada zaxira mablag'lari 10 yil va undan ko'p davrda sug'urta ixtiyorida bo'lishi mumkin undan tashqari alohida zaxira fondlari shakllanadi. Demak, ular o'n yillar davomida harakatsiz yotishi mumkin. Bu imkoniyatlar sug'urta fondidan qarz fondini shakllantirishga, tijorat munosabatlarida qatnashishga imkon beradi.

Sug'urtalovchining bu mablag'lari iqtisodiyotning har bir tarmog'iga kredit berish, qimmatbaho qog'ozlar sotib olish va boshqa maqsadlar uchun foydalanilishi mumkin.

Bundan tashqari, sug'urta tashkilotlari kadrlar tayyorlash, maslahat berish va boshqa xizmat ko'rsatishdan ham daromad olishlari mumkin.

Sug'urta tashkilotlarining xarajatlari sug'urta fondining taqsimlanishi jarayonida shakllanishi mumkin. Bu xarajatlar ikki bir-biriga bog'liq iqtisodiy jarayonga xizmat qiladi.

- Sug'urta bo'yicha zararlarni qoplash majburiyatlarini sug'urtalanuvchilarga to'lash.
- Sug'urta tashkiloti faoliyatini mablag' bilan ta'minlash.  
Xarajatlarni quyidagi moddalarga ajratish mumkin.
  1. Sug'urta qoplamalari va sug'urta ta'minotiga mablag' ajratish
  2. Sug'urta rezervlariga mablag' ajratish
  3. Ogohlantirish tadbirlariga mablag' ajratish
  4. Mablag'lardan bir qismini qayta sug'urtalashga o'tkazish
  5. Sug'urtani boshqarishga mablag' ajratish
  6. Boshqa xarajatlar

Bu xarajatlarning hammasi sug'urta xizmatlarining tannarxini tashkil qiladi.

Daromad va xarajatlarni taqqoslab sug'urta tadbirlarining yakunlari aniqlanadi. Bu ko'rsatkich sug'urta tashkilotining barcha faoliyati va sug'urtalashning har biri bo'yicha hisoblanadi.

Moliyaviy natija ikki ko'rsatkich bilan ifodalanadi:

1. Sug'urtalovchining foydasi (zarari)

## 2. Badallar rezervining ko'payishi.

Sug'urta tadbirlaridan olinadigan foyda sug'urta xizmatlari ko'rsatish bahosi bilan uning tannarxi o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi. Daromadlik darajasi rentabellik sifatida yillik foyda miqdorini yillik sug'urta badallari miqdoriga munosabati sifatida aniqlanadi.

Sug'urta tadbirlaridan olinadigan foydadan tashqari investisiya tadbirlaridan ham foyda olinishi mumkin.

Sug'urta tashkilotining sug'urta tadbirlari va investisiya faoliyatidan olinadigan daromadlari daromad solig'iga tortiladi.

Sug'urta hodisalarining tasodifiy sodir bo'lishi qulay sharoitlar va ayrim yillarda ortiqcha mablag'lardan zaxira fondini shakllantirishni taqozo etadi. Bu tadbir sug'urta tashkilotlari moliyaviy ahvolini barkaror bo'lishini ta'minlaydi.

Rezerv-(zaxira) fondlarini manbai netto stavkasining ortib qolgan mablag'i bo'lib, bu qoldiq, yildan yilga ko'payib va noqulay yilda sarflash uchun to'planib boriladi. Noqulay yillarda xarajatlarning daromadlaridan ortgan qismi ana shu rezerv fondlari hisobidan qoplanadi.

Sug'urta sohasida zararining 3 xili kuzatiladi.

Birinchi xilga har yili takrorlanib turadigan bir me'yordagi zararlar xajmi kiradi, ikkinchisiga o'rtacha zarardan ko'proq sodir bo'lgan zararlar, uchinchisiga esa ulkan sifatlar natijasida hosil bo'lgan katta miqyosdagi zararlar kiradi. Birinchi va ikkinchi xil zararlarni sug'urta tashkiloti hisobidagi zaxira fondlari hisobidan qoplansa, uchinchi xildagi zararlar esa katta miqdordagi zaxira fondini tashkil qilishni talab qiladi.

Katta miqdordagi zaxira fondlari bir necha sug'urta tashkiloti ishtirokida tashkil qilinishi mumkin. Bunday fondlarni tashkil qilishda qayta sug'urtalash usullaridan ham foydalaniladi. Bundan tashqari sug'urta zaxiralarini shakllantirishda badallar rezervlardan ham foydalaniladi.

Sug'urta kompaniyasi moliyaviy xo'jalik faoliyatining asosiy umumlashtiruvchi ko'rsatkichlariga mablag'lar tushumlari va ishlab chiqarish xarajatlariga ajratiladigan mablag'lar, zaxiraviy fondlar, ish yuritish xarajatlari kiradi.

Soliq to'langandan keyin kolgan daromaddan kompaniyaning fondlarini tashkil qilish va ko'paytirishga yo'naltirilgan mablag'lar ish haqi fondi, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarish va moddiy rag'batlantirish fondlari chegirib tashlangandan keyin sof foyda aniqlanadi. Bu foyda dividendlar shaklida aksiyadorlar orasida egalik qilayotgan aksiyalari soniga qarab proporsional taqsimlanadi

### **Nazorat savollari**

1. Sug'urta tushunchasiga ta'rif bering.
2. Sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'ring.
3. Sug'urta qanday funksiyalarni bajaradi?
4. Sug'urta atamalari necha guruhga bo'linadi?
5. Sug'urta faoliyatini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan atamalar mohiyatini ochib bering.

6. Sug'urta fondini shakllanishi bilan bog'liq atamalar mohiyatini ochib bering.
7. Sug'urta fondini sarflanishi bilan bog'liq atamalar mohiyatini ochib bering.
8. Xalqaro sug'urta atamalarining mohiyatini ochib bering.
9. Sug'urta bozori deganda nimani tushunasiz?
10. Sug'urtalash shakli bo'yicha sug'urtaning qanday turlari mavjud?
11. Sug'urtalash ob'yektlari bo'yicha sug'urtaning qanday turlari mavjud?
12. Sug'urta bozorining umumiy tuzilmasini tushuntirib bering.
13. Sug'urta bozorining asosiy vazifalarini tushuntirib bering.
14. Sug'urta bozorining shakllanishi va rivojlanishi qanday tamoyillariga tayanadi?
15. Sug'urta tashkilotlari moliyasi tushunchasiga ta'rif bering.
16. Sug'urta tashkilotlarining moliyasini tashkil etuvchi pul munosabatlari yo'nalishlarini tushuntirib bering.
17. Sug'urta tashkilotlarining daromadlari qanday shakllanadi?
18. Sug'urta tashkilotlarining xarajatlarini tushuntirib bering.
19. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy natijasi qanday ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi?
20. Sug'urta bozorining sub'yektlarini sanab o'ting.

## 5-MAVZU. UY XO'JALIGI MOLIYASI

### Reja

1. Uy xo'jaligi moliyasining mohiyati va funksiyalari
2. Uy xo'jaligining moliyaviy resurslari
3. Uy xo'jaligi byudjeti

### Tayanch iboralar

Uy xo'jaligi, uy xo'jaligi moliyasi, uy xo'jaligining moliyaviy resurslari, uy xo'jaligi daromadlari, nominal daromad, real daromad, o'z ixtiyoridagi daromad.

#### 1. Uy xo'jaligi moliyasining mohiyati va funksiyalari

Iqtisodiy faoliyatda uy xo'jaliklari asosiy sub'yektlardan biri hisoblanadi, chunki bu faoliyat natijasi nafaqat bitta oilaning, balki butun mamlakat aholisining farovonligiga ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyot nazariyasida *uy xo'jaligi* deganda birgalikda yashaydigan, umumiy byudjetga ega bo'lgan, bitta yoki bir nechta shaxslar tomonidan yuritiladigan xo'jalik tushuniladi.

#### *Uy xo'jaliklari quyidagi funksiyalarni bajaradi:*

- Ishlab chiqarish funksiyasi
- Iqtisodiy noishlab chiqarish funksiyasi

#### *Ishlab chiqarish funksiyasiga quyidagilar kiradi:*

- Shaxsiy yordamchi xo'jalikni yuritish
- Individual mehnat va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish
- Individual oilaviy savdo bilan shug'ullanish

#### *Iqtisodiy noishlab chiqarish funksiyasiga quyidagilar kiradi:*

- Ijara faoliyati bilan shug'ullanish
- Qimmatli qog'ozlar bilan, bank operatsiyalari bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanish.

*Uy xo'jaligi moliyasi* – bu uy xo'jaligi a'zolarining moddiy va ijtimoiy hayot sharoitlarini ta'minlash maqsadida pul mablag'lari fondini shakllantirish va foydalanish bo'yicha vujudga keladigan iqtisodiy pul munosabatlarining ifodasidir.

#### *Uy xo'jaligi moliyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:*

- Oilaning hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash funksiyasi
- Taqsimlash funksiyasi

Uy xo'jaligi moliyasining birinchi funksiyasi oila a'zolarining yashashi uchun sharoitlar yaratib beradi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi bu funksiyaning namoyon bo'lish shakliga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Natural xo'jalikda uy xo'jaligi a'zolari tomonidan yaratilgan mahsulot asosan o'z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Bozorning paydo bo'lishi va tovar-pul munosabatlarining shakllanishi natijasida:

- Oilaning moddiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa ehtiyojlari kengaydi;

- Uy xo'jaliklarining pul mablag'lari yaratildi va ko'paydi;
- Oilani moddiy na'matlar bilan ta'minlashga qaratilgan pul fondi – oila byudjeti shakllantirildi.

Uy xo'jaliklari moliyasining taqsimlash funksiyasi milliy daromadning birlamchi taqsimotini va oilaning birlamchi daromadlarining shakllanishini qamrab oladi.

Uy xo'jaligi moliyasining taqsimlash funksiyasi uchta bosqichni o'z ichiga oladi:

- pul fondlarini shakllantirish
- taqsimlash
- foydalanish.

Uy xo'jaligi moliyasining har ikkala funksiyasi o'zaro bir-biriga bog'liq, bir vaqtda bir-birini to'ldirib turadi.

***Uy xo'jaliklarining moliyaviy munosabatlari ikki guruhga bo'linadi:***

- Uy xo'jaliklari bilan moliyaviy tizim bo'g'inlari o'rtasidagi munosabat (davlat moliyasi – byudjet va byudjetdan tashqari fondlar, tijorat korxonalar moliyasi). Bunday munosabatlar natijasida ish haqi, pensiya, turli xil nafaqalar ko'rinishidagi birlamchi daromadlar yaratiladi.
- Uy xo'jaliklari a'zolari o'rtasidagi munosabat. Bunday munosabat natijasida mablag'lar taqsimlanadi, ajratiladi va oilaning pul fondlari shakllanadi.

## **2. Uy xo'jaligining moliyaviy resurslari**

***Uy xo'jaligining moliyaviy resurslari*** bu oilaning ixtiyorida bo'lgan pul mablag'larining umumiy fondidir. Uy xo'jaligi a'zolarining ishlab chiqarish faoliyati natijasida yaratilgan moliyaviy resurslar milliy daromadning bir qismi sifatida namoyon bo'ladi. Uy xo'jaligi pul fondining xajmi har bir oila a'zolarining harakatiga bog'liq.

***Uy xo'jaligining umumiy fondi asosida ikkita fond shakllanadi:***

- iste'mol fondi
- jamg'arma fondi.

***Iste'mol fondi*** oilaning shaxsiy ehtiyojlarini (oziq-ovqat mahsulotlarini, sanoat mahsulotlarini sotib olishga, turli pullik xizmatlarni to'lashga) qondirishga qaratilgan.

***Jamg'arma fondi*** mablag'lari kelgusida qimmatbaho tovarlarni sotib olishga yoki foyda olish uchun boshlang'ich kapital sifatida ishlatishga qaratilgan.

Moliyaviy resurslarning fond shakli oilaning imkoniyatlari bilan ehtiyojlarini bog'lashga, shuningdek har bir oila a'zosining ehtiyojini qondirishga, nazorat qilishga imkon beradi.


***Uy xo'jaliklari moliyaviy resurslarining tarkibi quyidagilardan iborat:***

- xususiy mablag'lar, ya'ni oilaning har bir a'zosi tomonidan ishlab topilgan ish haqi, yordamchi xo'jalikdan olingan daromad, tijorat faoliyati natijasida keladigan foyda;



- bozorga yo'naltirilgan mablag'lar, ya'ni dividendlar, foizlar, kreditlar;
- qayta taqsimlash natijasida keladigan mablag'lar – pensiyalar, turli nafaqalar.

Uy xo'jaliklarining moliyaviy resurslari markazlashmagan moliyaviy resurslarga kiradi va mamlakat moliyaviy resurslarining aylanishi bilan bevosita bog'liq



**5.1 – rasm. Uy xo'jaliklari moliyaviy resurslarining aylanishi chizmasi**

1 – soliqlar, 2 – transfert to'lovlar, 3 – kreditlar, 4 – sug'urta badallari, 5 – ijtimoiy himoya, 6 – jamg'arilgan mablag'lar, 7 – foizlar, foyda, renta, 8 – ish haqi, 9 – tovar va xizmatlar, ishchi kuchi bahosi

Uy xo'jaligi moliyasi markazlashgan moliya (davlat va mahalliy byudjet, byudjetdan tashqari ijtimoiy fond) va markazlashmagan moliya (korxonalar moliyasi, moliyaviy bozor) bilan o'zaro bog'langan. Ular o'rtasida bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama uzluksiz pul oqimlari vujudga keladi. Davlat va uy xo'jaliklari o'rtasida pul oqimlarining doimiy harakati vujudga keladi. Uy xo'jaligi a'zolari davlat sektoriga o'z mehnatini taqdim etishadi, tovar va xizmatlarini davlatga sotishadi. Buning evaziga ish haqi va daromad olishadi. Shuningdek, moliyaviy munosabatlar byudjetga va byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlarga soliqlar, yig'imlar, boj va turli ajratmalarni to'lashda ham vujudga keladi. Bundan tashqari, uy xo'jaliklari davlatdan turli hil transfert to'lovlarini, natural shakldagi ne'mat va xizmatlarni olishadi. Uy xo'jaligi bilan nodavlat sektori – korxonalar, tashkilotlar, kompaniyalar o'rtasida ham pul oqimlari vujudga keladi. Uy xo'jaliklari korxonalar va tashkilotlarning tovar va xizmatlaridan foydalanishadi, ularning bahosini pul shaklida qaytarishadi. Shuningdek yuridik shaxslar uy xo'jaliklarini kredit resurslar, foyda dividend, foiz, ijara haqi ko'rinishidagi daromadlar bilan ta'minlashi mumkin.

Moliyaviy resurslarning aylanishi natijasida uy xo'jaliklari o'zining shaxsiy ehtiyojlarini bugun va kelgusida doimiy ravishda qondirishlari mumkin.

### 3. Uy xo'jaligi byudjeti

Moliyaviy resurslar uy xo'jaligi byudjetini shakllantiradi. O'zining moddiy mohiyatiga ko'ra **uy xo'jaligi byudjeti** – bu uy xo'jaligi pul mablag'lari fondini shakllantirish va foydalanish shaklidir. U o'zida uy xo'jaligi a'zolarining umumiy daromadlarini va shaxsiy ehtiyojlarini ta'minlaydigan xarajatlarni birlashtiradi.

**Uy xo'jaliklari daromadlari** - bu oila a'zolari tomonidan ma'lum davr ichida olingan yoki ishlab chiqarilgan pul va natural shaklidagi daromadlar yig'indisidir.

Daromadlar:

- nominal,
- o'z ixtiyoridagi
- real daromadlarga ajratiladi.

**Nominal daromadlar** - bu soliqlar va narxlarni hisobga olmagan holdagi pul shaklidagi daromadlari miqdoridir.

**O'z ixtiyoridagi daromadlar** - bu soliq va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan keyin qolgan daromaddir, demak, bu daromad aholining jamg'arish va ehtiyojlarni qondirish uchun foydalanadigan mablag'larini o'z ichiga oladi.


**Real daromad** - bu qo'lga tekkan pulning xarid qobiliyati, ya'ni unga bozorda nima berishidir.

Uy xo'jaliklari daromadlari pul shaklidagi va natural shakldagi daromadlarga bo'linadi

**Pul shaklidagi daromadlar** ish haqi ko'rinishidagi barcha tushumlar, pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar; mulkdan olinadigan foiz, aksiyalar, qimmatbaho qog'ozlar, ko'chmas mulk, dividendlar, renta ko'rinishidagi daromadlar; chorva hayvonlari, tomorqa xo'jaligi mahsulotlari, turli buyumlar va boshqa tovarlarni sotishdan tushadigan tushumlar, turli xizmatlar ko'rsatishdan olingan haqlar va hokazolardan tashkil topadi.

**Natural shakldagi daromadlar** - dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, bog'-qo'rg'on, shaxsiy tomorqadan olingan mahsulotlar, tabiat in'omlaridan, shaxsiy, oilaviy ehtiyojlar uchun tayyorlanadigan mahsulotlardan tarkib topadi.

Uy xo'jaliklarining daromadlari tarkibi 5.2- rasmda keltirilgan



**5.2 – rasm. Uy xo'jaliklari daromadlari tarkibi**

Uy xo'jaliklarining pul shaklidagi daromadlarni quyidagi belgilar bo'yicha tasniflanadi

**1. Daromad manbaiga ko'ra**

- Mehnat faoliyatidan olinadigan ish haqi va qo'shimcha haq;
- Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad;
- Ijaraga berilgan mol-mulkdan olinadigan daromad;
- Sug'urta qoplamalari;
- Mol-mulkni sotishdan keladigan daromad;
- Davlat pul fondlaridan to'lanadigan to'lovlar

**2. Uzluksizligiga ko'ra**

- Doimiy daromadlar (ish haqi);
- Davriy daromadlar (dividentlar);
- Tasodifiy yoki bir martalik daromadlar (mualliflik gonorarlari)

**3. Kafolatlanganligiga ko'ra**

- Kafolatlangan daromadlar (davlat nafaqasi);
- Shartli kafolatlangan (ish haqi);
- Kafolatlanmagan (gonorarlar)

Uy xo'jaliklari pul daromadlarining shakllanishi ular tomonidan turli ko'rinishdagi xarajatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

**Uy xo'jaliklarining xarajatlari quyidagi belgilar bo'yicha tasniflanadi:**

**1. Doimiylik darajasiga ko'ra**

- Doimiy xarajatlar (oziq-ovqat xarajatlari, kommunal to'lovlar);
- Bir tartibdagi xarajatlar (kiyim-kechak xarajatlari);
- Bir martalik xarajatlar (davolanish xarajatlari).

## **2. Zarurlik darajasiga ko'ra**

- Birinchi navbatdagi xarajatlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, davolanish);
- Ikkinchi darajali xarajatlar (ta'lim);
- Boshqa xarajatlar.

## **3. Ishlatilish maqsadiga ko'ra**

- Iste'mol xarajatlari (tovarlarni sotib olish va xizmatlarni to'lash);
- Majmuriy va ixtiyoriy to'lovlar;
- Uy xo'jaliklari jamg'armalari va omonatlari.

### **Nazorat savollari**

1. Uy xo'jaligi tushunchasiga ta'rif bering.
2. Uy xo'jaliklari qanday funksiyalarni bajaradi?
3. Uy xo'jaligi moliyasi tushunchasiga ta'rif bering.
4. Uy xo'jaligi moliyasi qanday funksiyalarni bajaradi?
5. Uy xo'jaliklarining moliyaviy munosabatlarini tushuntirib bering.
6. Uy xo'jaliklarining moliyaviy resurslari deganda nimani tushunasiz?
7. Uy xo'jaliklari moliyaviy resurslarining aylanishi sxemasini tushuntirib bering.
8. Uy xo'jaligi byudjeti tushunchasiga ta'rif bering.
9. Uy xo'jaligi daromadlari qanday ko'rinishda bo'ladi?
10. Uy xo'jaligi daromadlarining tarkibini tushuntirib bering.
11. Nominal daromad tushunchasining mohiyatini ochib bering.
12. O'z ixtiyoridagi daromad tushunchasining mohiyatini ochib bering
13. Real daromad tushunchasining mohiyatini ochib bering.
14. Uy xo'jaliklari daromadlari qanday tasniflanadi?
15. Uy xo'jaliklari xarajatlari qanday tasniflanadi?

## 6-MAVZU. XALQARO MOLIYA

### Reja

1. Xalqaro moliya: mazmuni va tashkiliy tamoyillari
2. Global moliyaviy tashkilotlar va ularning funksiyalari
3. Mintaqaviy xalqaro moliyaviy tashkilotlar

### Tayanch iboralar

Xalqaro moliya, global moliyaviy resurslar, global moliyaviy tashkilotlar.

#### 1. Xalqaro moliya: mazmuni va tashkiliy tamoyillari.

**Xalqaro moliya**- Xalqaro moliyaviy resurslar va ularning global harakatini tavsiflovchi tushunchadir. Jahon savdosining shiddatli o'sib borishi, ishlab chiqarish masshtabi va ixtisoslashuvining rivojlanishi, kapitallarning xalqaro oqimini, davlatlararo tovarlar, xizmatlar va mehnat resurslarining harakatini rivojlanishi Xalqaro moliyaning rivojlanishi va Xalqaro moliyaviy bozorlarning shakllanishi, davlatlararo moliyaviy munosabatlarni tobora murakkablashuvi uchun sharoit yaratdi.

Xalqaro moliya doimiy o'zgarib turuvchi Xalqaro pul tizimining holati va rivojlanishini, alohida mamlakatlar to'lov balansining holati va o'zgarishini, Xalqaro moliyaviy bozorlar, Xalqaro moliyaviy korporasiyalar, Xalqaro bank va investision faoliyatni o'zida aks ettiradi. Jahon moliya tizimining asosiy ishtirokchilari banklar, transmilliy korporasiyalar, portfel investorlar va Xalqaro rasmiy qarz beruvchi donorlar hisoblanadi.

Jahon moliyaviy resurslari (global moliyaviy resurslar) - barcha mamlakatlar, Xalqaro tashkilotlar va jahonning moliyaviy markazlariga tegishli moliyaviy resurslarning global xajmidir. Ular Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ya'ni rezident va norezidentlar o'rtasidagi munosabatlarda foydalaniladi.

Jahon moliyaviy resurslarining manbalari quyidagilardan iboratdir:

- donor mamlakatlar, qaysiki, jahon moliyaviy resurslarida ustuvor ahamiyat kasb etuvchi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar;
- Xalqaro tashkilotlar fondlari;
- xususiy shaxslar, kompaniyalar, tashkilotlar, rivojlangan mamlakatlar hukumatlariga tegishli jahon oltin valyuta zahiralarining sezilarli qismi va boshqalar.

Keyingi yillarda Xalqaro moliyaning rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatdi.

Xalqaro moliyaviy operasiyalar alohida mamlakatlarning milliy moliya tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlariga ega bo'la boshladi.

Jahon iqtisodiyotining globallasuviga transmilliy korporasiyalar (TMK) va transmilliy banklarning (TMB) vujudga kelishi va keskin rivojlanishi ham sezilarli turtki bo'ldi. Butunjahon xo'jaligining transmilliylashuvi natijasida mamlakatlararo milliy ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va birlashishi TMKlarning faoliyatini yanada rivojlantirdi. TMKlar tomonidan mamlakat iqtisodiyotiga bevosita investisiyalash ishlab chiqarishda menejment, marketing, texnologiyalarni joriy etishning yangi usullarining yoyilishiga va shu asosda, jahon iqtisodiyotining globallasuv jarayonini tezlashtirdi.

Iqtisodiyotni tartibga soluvchi eski davlatlararo mexanizm o'rniga globallasuv, integrasiya, transmilliylashuv va mintaqalashuv jarayonlariga muvofiq keladigan munosabatlar qaror topa boshladi. Ikki tomonlama manfaatli munosabatlar ko'p tomonlama hamkorlikka, milliy ishlab chiqarish transmilliy ishlab chiqarish shakliga o'ta boshladi. Jahon iqtisodiy ta'sirchan sub'yektlari rolini butunjahon xo'jaligining qariyb barcha sohalarini tartibga solib turuvchi turli xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar egallay boshladi.

Ayniqsa keyingi yillarda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining ta'sirida jahon xo'jaligining taraqqiyotidagi o'zgarishlar Xalqaro moliyaga jiddiy ta'sir etdi.

Xususan, 2009 yil jahon iqtisodiyoti tarixida ikkinchi jahon urushidan keyingi shunday yil bo'ldiki unda birinchi marta butun jahon ishlab chiqarish hamda odam boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdori qisqargani kuzatildi. O'tgan yil undan oldingi yilgiga nisbatan 1% o'sish bo'ldi, vaholanki bu ko'rsatkich 1946 yildan keyingi har yillik o'rtacha o'sish 3,5% edi. Xalqaro savdo esa 2008 yildagi holatdan 25% ga kamaydi, bu esa 2 jahon urushidan keyingi eng yirik tushish bo'ldi. Yalpi milliy mahsulot davlatlar orasida Rossiyada -7,9% , Meksikada -6,5 % , Yaponiyada -5,7%, Italiya va Germaniyada -5,0% ga kamaydi. Ammo bir paytning o'zida yalpi milliy mahsulot Xitoyda +8,4 % , Hindistonda +6,1% va Indoneziyada +4,4% o'sishga erishildi. Dunyo davlatlari ichida ishlab chiqarish Makaoda +13,2%, Ozarbayjonda +9,3 % va Qatarda +9,2 % ga o'sdi.

O'tgan yili dunyo bo'yicha jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad taxminan 2% ga kamaydi, ya'ni 10,500 AQSh \$ ni tashkil etdi hamda ishsizlik darajasi 2008 (7%) ga nisbatan ham o'sib jahonda o'rtacha 9 % ni tashkil qildi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investisiyalar esa 4% ( 800 milliard AQSh \$) ga qisqardi. Byudjet defisiti esa dunyodagi har 5 mamlakatdan 4 tasida kuzatildi. Bunga sabablardan xomashyo mahsulotlar narxining tushishi, kredit berishdagi ko'plab cheklovlar hamda davlatlarning proteksionizm siyosatining unchalik qattiq qo'llamasligi orqali tovarlarga nisbatan talabning kamayib ketishiga olib keldi. Shu bilan bir qatorda, davlatlarning tashqi qarzdorligi oldingi yilga nisbatan o'rtacha 6% ga kamaydi, chunki Xalqaro banklarning yangi kredit ajratmalari yo'qoldi.

Global tanazzul aslida esa Moliya bozoriga nisbatan ishonchsizlikning oshishi, banklarning tanazzuli, kredit ajratmalarining qisqarishi, ipoteka bozorlaridagi narxlarning tushib ketishi, kapital qo'yilmalarning foiz ulushlarining qisqarishi, iste'molchilarning ishonchsizligi hamda savdo tushumining keskin kamayishi asosiy sabablardan, deb belgilanadi. Bunday ko'rinishdagi moliyaviy qiyinchiliklarga javoban ko'pgina davlatlar ko'proq monetar va fiskal siyosatga e'tiborni qaratib, proteksiyonistik siyosatni amalga oshirishni esa ma'qul topmadilar. Natijada 2009 yilning yarmiga kelib dunyo iqtisodiyotida yangi muammo yuzaga keldi. Muammo esa tanazzulga qolayotgan iqtisodiyotni qanday qilib qutqarib qolish edi.

Byudjet defisiti oqibatida har 15 davlatdan 14 tasi aylanma kapitalga ehtiyoj sezdi. Bu esa global miqyosda g'aznadagi yangi davlat qarzlari keltirib chiqardi, ya'ni iqtisodni rivojlantirishga sarflanadiga chiqimlar miqdori jahon bo'yicha o'rtacha 4 trillion AQSh \$ ini tashkil etib qo'ydi. Ustama foiz ulushi darajasi past ko'rsatkichlarda ushlab turish hamda qarzlarni to'lash uchun iqtisodiyotdagi valyuta miqdorini oshirdilar. 2010 yilning boshida inflyasiya bilan ta'sirlashuvsiz mahsulot hajmi bozorda ko'payib ketdi. Bu yerda foiz darajalarni ko'paytirmasdan inflyasiya darajasini me'yorda ushlab turish markaziy banklarning ma'suliyatli ishidir, ammo, iqtisodiy o'sishga bu salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Jahondagi tanazzul dunyoning yana boshqa masalalarida global muammolarni yuzaga chiqardi. Allaqachon to'lib toshgan globusdagi har yili o'rtacha 80 millionga ko'payib borayotgan dunyo aholisi endi ishsizlik, ekologiya muhitining yomonlashuvi, zararli chiqindilarni yo'qotish muammosi, epidemiya, ichimlik suvining tanqisligi, ochlik, dengiz baliqchiligining belgilangan me'yordan ortiq rivojlanishi, daraxtzorlarning kamayishi, cho'llashish hamda qayta tiklanmaydigan resurslarga nisbatan iste'molning ko'pligi kabi muammolarga duch kelmoqda.

Iqtisodiy-siyosiy boshqaruv organi bo'lgan mahalliy hukumatlar esa Xalqaro emigrasiya, tovarlar oqimi, moliyaviy holat hamda texnologik o'zgarishlarni boshqarolmay qoldilar. Davlat ichkarisidagi regional separatistik harakatlar kichik etnik va millatlararo kelishmovchiliklar ustidan boshqaruvni yo'lga qo'ya oldilar. Bunga ko'pgina sobiq ittifoq davlatlari, sobiq Yugoslaviya, Hindiston, Iroq, Indoneziya va Kanada davlatlari misol bo'la oladi. Ammo, markaziy davlat boshqaruvlari asosan Yevropa Ittifoqida Xalqaro miqyosidagi muammolarni hal qilish borasida o'z kuch va mavqelarini yo'qotib bormoqdalar.

G'arbiy Yevropadagi 1999 yilda yagona umumiy valyuta yevroning joriy qilinishi aslida iqtisodiyotlarni umumlashtirish yo'lida qilingan yangi qadam bo'lsada ammo, bunga aloqador bo'lgan yevro davlatlaridagi mahalliy daromad o'sish darajalari, pul islohoti yo'nalishlari hamda madaniy-siyosiy vaziyatlarning turlichaligi sababli iqtisodiy risk tobora ortib ketdi.

G'arb davlatlaridagi resurslarni tashkil qilish borasidagi ijtimoiy yordam masalaridagi murakkabliklar tufayli yangi ishchi o'rinlarni barpo qilish uchun investisiyalar sonini ko'paytirish bo'yicha muammolar tug'ildi. Natijada, sanoatga yetarli ishchi kuchini tayyorlash uchun, mehnat resurslari sonini kambag'al davlatlar ishchi kuchi hisobiga to'ldira boshladilar.

AQSh dagi 11 sentyabr voqeasidan keyin iqtisodiyotdagi moliyaviy riskning ortishi natijasida investorlar o'zlarining pullarini antiterror dasturlari uchun emas, balki boshqa yo'nalishlarga yo'naltira boshladilar.

Iroq va Afg'onistondagi urushlar iqtisodiy- investision loyihalarga o'z tahlikasini o'tkazdi. Lekin shunga qaramasdan hozirgi barcha jabhalardagi texnologik rivojlanishlar kengaydi. Bu masalan, qishloq xo'jaligida, medisinada, alternativ energiya resurslarini barpo qilishda, metallurgiya hamda transport sohasida ko'zga tashlanadi. Shuningdek, yaxshilangan global aloqa tarmoqlari Xalqaro savdoda sarf-xarajatlarni qisqartirdi. Bunday qulayliklar mehnat resurslarining va mehnatni taqsimlashning global mavqei oshishida qulaylik yaratmoqda. Mana shunday ko'rsatkichlar esa dunyo iqtisodiyotini qayta rivojlanish potentsiali hali yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Xalqaro aloqalarning rivojida moliyaning roli uch yo'nalishda namoyon bo'ladi:

- Turli xil yo'nalishdagi xalqaro hamkorlikni moliyalashtirish uchun kerakli manbalar qidirish va mobilizatsiyalash.
- Xalqaro integrasion jarayonlarni muvofiqlashtirish.
- Har qaysi xalqaro munosabatlarning turi va bevosita ishtirokchilarini rivojlantirishga rag'batlantirish.

## **2. Global moliyaviy tashkilotlar va ularning funksiyalari**

Xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlarning institutsional asosini ko'p sonli xalqaro moliyaviy (global) tashkilotlar ham tashkil qiladi. Ularning har biri yirik moliyaviy resurslari va salohiyati bilan xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlarni tartibga soladi.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar jahon moliyaviy resurslari bozorini barqarorlashtirish va Xalqaro kapital harakatini rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan.

Xalqaro (global) moliyaviy tashkilotlarga Birlashgan Millatlar Tashkilotining mahsus Xalqaro moliya institutlari hisoblangan Xalqaro Valyuta Fondi, Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Bankini (Jahon banki guruhi) kiritishimiz mumkin.

Shu bilan birgalikda Xalqaro Hisob-kitoblar banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa Xalqaro moliyaviy institutlarni ham sanab o'tishimiz mumkin.

*Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:*

- jahon hamjamiyatining Xalqaro moliya va jahon iqtisodiyotini barqarorlashtirish maqsadidagi saiy harakatlarini birlashtirish;



- davlatlararo valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solishni amalga oshirish;
- jahon valyuta, hisob-kitob va kredit siyosati strategiya va taktikasini hamkorlikda ishlab chiqish va muvofiqlashtirish.

Xalqaro moliyaviy institutlar (tashkilotlar) orasida Xalqaro valyuta fondi(XVF) alohida ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotdir. Ushbu fond 1945 yilda tashkil etilgan. XVFning maqsadi a`zo mamlakatlar valyuta-moliya siyosatini muvofiqlashtirish, to'lov balansini tartibga solish va valyuta kursini barqarorligini qo'llab-quvvatlash uchun qarz berish hisoblanadi. XVF iqtisodiy nobarqaror mamlakatlar to'lov balansida qiyinchilik sezayotgan o'z a`zolarini imtiyozli moliyalashtiradi, ularga turli texnik yordamlar ko'rsatadi.

XVF xalqaro valyuta tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagi mexanizmlar bo'yicha qarz beradi:

1. Qarz olish to'g'risidagi bosh shartnoma. 1962 yilda qabul qilingan, unda 11 ta ishtirokchi qatnashadi.

2. Qarzlarni to'g'risidagi yangi shartnoma. 1997 yilda qabul qilingan, 25 ta davlat va muassasalar ishtirok etadi.

“Stend-bay” kreditlari XVFning kreditlash siyosatining asosini tashkil etadi. Ushbu kredit shartnomasi asosan a`zo mamlakatlarning to'lov balansida mavjud muammolarni hal qilish uchun qisqa muddatli kreditlarni berishni nazarda tutadi. Odatda ushbu kreditning muddati 12-18 oyni tashkil etadi<sup>2</sup>.

Kengaytirilgan kredit mexanizmi. XVF kengaytirilgan kreditlash mexanizmi bo'yicha a`zo mamlakatlar belgilangan miqdorda kredit olish huquqiga ega bo'lib, odatda, uch-to'rt yilga taqdim etiladi.

Kambag'allikka qarshi va iqtisodiy o'sishni qo'llab quvvatlash mexanizmi. 1999 yil noyabrda joriy etilgan bo'lib, dastlab amal qilgan tuzilmani qayta qurishni kengaytirilgan moliyalashning davomi hisoblanadi.

Qo'shimcha zahiralarni moliyalash mexanizmi.

Qoplovchi moliyalash 1963 yilda joriy etilgan bo'lib, jahon bozorlarida tovar xom ashyo narxining o'zgarishi natijasida eksport tushumi kamomadi hosil bo'lgan yoki oziq ovqat importi qiymatining o'sishiga duch kelgan mamlakatlarga taqdim etiladi.

Favqulodda yordam. Ushbu tartib favquloddagi holatlar tufayli to'lov balansida muammolar vujudga kelgan a`zo mamlakatlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekistonning XVF bilan oxirgi moliyaviy shartnomasi 1995 yil 18 dekabrda 124,7 mln. SDR miqdorida “Stend-bay” krediti olish to'g'risida tuzilgan. Hozir O'zbekiston XVF oldida hech qanday majburiyatga ega emas.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki – umumjahon bankingning asosiy tashkiloti bo'lib, birinchi davlatlararo investision institut hisoblanadi.

<sup>2</sup> Вахабов А.В. ва бошқ. Хорижий инвестициялар.-Т.: Молия, 2010 йил.87-88 б.

XTTBning maqsadi – a`zo mamlakatlar iqtisodiyotini qayta qurishga va rivojlanishiga kapital qo'yilmalar berish, xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlash, to'lov balansi muvozanatini ta'minlashga qaratilgan qarz berishdan iborat.

2009 yil oxirida bank tomonidan berilgan kreditlar 479 mlrd. dollarga yetdi. Bank 2009 yilda 42 ta mamlakatga 1226 ta yangi loyihalar bo'yicha jami 32,9 mlrd. dollar miqdorida kredit ajratdi.

### **3. Mintaqaviy xalqaro moliyaviy tashkilotlar**

Mintaqaviy moliya institutlari tarkibida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) - 1991 yilda tashkil topgan va unga 56 ta mamlakat a`zo. YTTB Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'yicha islohotlarni o'tkazishda ko'maklashish maqsadida tuzilgan.

YTTBning faoliyat doirasi quyidaglardan iborat:

- infratuzilmani rivojlantirish;
- turli xususiy va xususiylashtirilgan korxonalarni loyihalarini moliyalashtirish va kreditlash. Bunda resurslarning 60%i xususiy sektorga, 40%i davlat sektoriga mo'ljallangan.
- xususiy kapital qo'yimalarga kafolat berish;
- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini qayta qurish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
- aniq loyihalarga maslahat-texnik yordam berish.

Bank taqdim etadigan kreditning eng kam miqdori 5 mln. yevroni tashkil etadi.

O'zbekiston 1992 yildan YTTB a`zosi hisoblanadi. YTTB 1992 yildan to hozirgi vaqtgacha iqtisodiyotning turli sohalaridagi 550 mln. yevro miqdorida 50 dan ortiq loyihalarni moliyalashtirdi.

Mintaqaviy rivojlanish banklarining yana bir turi Osiyo taraqqiyot bankidir (OTB). Ushbu bank 1966 yilda tashkil etilgan. 57 ta mamlakat a`zo hisoblanib, shundan 41 tasi hududiy mamlakatlar va 16 tasi hududdan tashqari mamlakatlardir.

OTBning maqsadi Osiyo qit`asidagi rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy rivojlanishda ko'maklashi, hududiy hamkorlikni rag'batlantirish, a`zo mamlakatlarga texnik yordam ko'rsatish va ularning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirishdan iborat.

O'zbekiston OTBga 1995 yilda a`zo bo'lgan. Bankning mintaqaviy a`zolari ro'yxatida 15 o'rinni, yirik aksionerlari ro'yxatida 22 o'rinni egallaydi.

1995-2010 yilga qadar O'zbekistonga 30 ta loyiha uchun umumiy summasi 1,29 mlrd. dollardan ortiq kreditlar ajratdi. Shuningdek, OTB O'zbekistonga 40,75 mln. dollar miqdorida texnik yordam ko'rsatdi.

2010 yilda O'zbekiston va OTB moliyaviy hamkorlik dasturi doirasida mamlakatning transport va energetika infratuzilmasini modernizatsiyalash hamda kichik biznesni qo'llab quvvatlash maqsadida 1 mln. dollar miqdorida 3 ta yangi loyiha tayyorlanishi va tasdiqlanishi ko'zda tutilgan<sup>3</sup>.

Islom taraqqiyot banki (ITB) mintaqaviy moliyaviy tashkilotlarning biridir. Ushbu bank 1974 yilda tashkil etilgan. Islom diniga e'tiqod qiluvchi 35 ta mamlakat a'zo. ITBning maqsadi a'zo mamlakatlarning rivojlanish loyihalarini, tashqi savdoni kreditlash va savdo, sanoat kompaniyalari kapitallarini investitsiyalashdan iborat.

O'zbekiston ITBga 2003 yil 3 sentyabrda a'zo bo'lib kirgan. Bank O'zbekistonga 2003-2009 yillar mobaynida umumiy qiymati 150 mln. dollarga teng moliyaviy xizmatlar ko'rsatgan.

### **Nazorat savollari**

1. Xalqaro moliya tushunchasiga ta'rif bering.
2. Jaxon moliyaviy resurslari tushunchasiga ta'rif bering
3. Jahon moliyaviy resurslarining manbalarini keltirib o'ring.
4. Xalqaro aloqalarning rivojida moliyaning roli qanday yo'nalishda namoyon bo'ladi?
5. Global moliyaviy tashkilotlar qanday maqsadda tashkil etiladi?
6. Global moliyaviy tashkilotlarning asosiy vazifalarini sanab o'ring.
7. Global moliyaviy tashkilotlarga qaysi tashkilotlar kiradi.
8. Xalqaro Valyuta Fondi qachon tashkil etilgan?
9. Xalqaro Valyuta Fondi faoliyatini tushuntirib bering.
10. Mintaqaviy moliyaviy tashkilotlarga qaysi tashkilotlar kiradi?
11. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki qachon tashkil topgan?
12. YTTBning faoliyat doirasini tushuntirib bering.
13. O'zbekiston YTTBga qachon a'zo bo'lgan.
14. Osiyo taraqqiyot banki qachon tashkil topgan?
15. Osiyo taraqqiyot bankining faoliyatini tushuntirib bering.
16. O'zbekiston OTBga qachon a'zo bo'lgan?
17. Islom taraqqiyot banki qachon tashkil topgan?
18. ITBning faoliyatini tushuntirib bering.
19. O'zbekiston ITBga qachon a'zo bo'lgan?

---

<sup>3</sup> Вахабов А.В. ва бошқ. Хорижий инвестициялар.-Т.: Молия, 2010 йил.99-100 б.

## **7-MAVZU. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI**

### **Reja**

1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ob`yektiv zarurligi
2. Soliqlarning o`ziga xos belgilari
3. Soliqqa tortish tamoyillari
4. Soliqlarning funksiyalari va vazifalari
5. Soliq elementlari

### **Tayanch iboralar**

Soliqlar, soliqqa tortish tizimi, soliq sub`yekti, soliq solish ob`yekti, soliq manbai, soliqqa tortish birligi, soliq solinadigan baza, soliq stavkasi, soliq yuki, proporsional soliq stavkasi, progressiv soliq stavkasi, nolli stavka, regressiv soliq stavkasi, soliq imtiyozlari.

#### **1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ob`yektiv zarurligi**

Soliqlar bevosita davlatning paydo bo`lishi bilan bog`liqdir, ya`ni davlat o`zining vazifalarini bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Jamiyatda iqtisodiy samarasiz bo`lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni ob`yektiv amal qilinishini talab etadi. Soliqlarning ob`yektiv zarurligini bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin:

- birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag` bilan ta`minlash zarurligi,
- ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalarini bilan.

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko`p bo`lib, bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida davlatning yangi vazifalari paydo bo`ladi. Bularga kam ta`minlanganlarga ijtimoiy yordam ko`rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo`jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. Shu bilan birga, davlat jamiyat a`zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o`zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o`q-dorilarga ham mablag`lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib intizom o`rnatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko`plab mablag` yo`naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo`lgan soliqlarni ham ob`yektiv zarur qilib qo`yadi.

Hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo`lgan moliyaviy mablag`larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo`llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Ma`lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat. Ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

### ***Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi.***

Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi.

Soliq tushunchasi – iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. Uning xarakterli tomoni shundaki – u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqida tegishli bo'lgan pul mablag'larini davlat va munisipal tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovlarni aks ettiradi, ya'ni soliq – davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgilangan stavkalar bo'yicha, soliq to'lovchining bundan biron bir muayyan manfaat ko'rishi bilan bevosita bog'lanmagan tarzda undiriladigan pul yig'imi.

Hozirgi vaqtda soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi.

Soliq to'lash xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va fuqarolar bilan davlat o'rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliqlar byudjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga;
- ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investisiyalarni ko'paytirishga;
- raqobatbardosh mahsulot hissasini ko'paytirishga;
- kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga;
- xususi korxonalar ochish bilan bog'liq bo'lgan bozor infratuzilmasini barpo qilishga;
- umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi tarixida hali birorta davlat soliqlarsiz mavjud bo'lgan emas. Bozor iqtisodiyotida ham davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi. Imtiyozlar yordamida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi va hokazo. Shuning uchun soliqlar orqali shakllangan mablag'larning eng kam miqdori davlat vazifasi bajarilishiga taalluqli eng kam xarajat hajmi bilan bog'liq bo'ladi va shu hajm bilan chegaralanadi.

Soliqlar rivojlangan tovar ishlab chiqarishning muhim kategoriyasi bo'lib, albatta yanada kengroq kategoriya – davlat byudjeti bilan chambarchas bog'langan. Chunki soliqlar byudjetning shakllanishida ishtirok etadi.<sup>4</sup>

Soliqlar moliyaviy resurslarni davlat ixtiyorida to'planib borishini ta'minlaydi, bu resurslardan iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, mintaqaviy vazifalarni hal qilish, ishning samaradorligi va sifatini rag'batlantirish, ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib daromadlarni tartibga solish uchun foydalaniladi.

Davlat soliqlarni davlat byudjetini shakllantirish uchun amalga kiritadi, soliqlar birorta aniq xarajatlarni qoplash maqsadiga ega emas, bu ayrim turdagi daromadlardan tushadigan tushumlardan amalga oshiriladigan xarajatlar ularga bog'liq bo'lib qolishining oldini olish zarurati bilan asoslangan. Biroq bir qancha hollarda umumiy soliqlar bilan birga maqsadli soliqlar ham belgilanadi, ularning amalga kiritilishi iqtisodiy faoliyatda ijobiy rol o'ynashi mumkin.

## **2. Soliqlarning o'ziga xos belgilari**

U yoki bu iqtisodiy kategoriyaning mohiyatini chuqurroq anglash uchun unga xos umumiy belgilarni aniqlash lozim bo'ladi.

### ***Soliqlarning umumiy belgilarini quyidagicha ifodalash mumkin:***

1. *Soliq to'lovchi daromadining u yoki bu summasini davlatga to'lar ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yoxud xizmat olmaydi. Alohida olingan soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq miqdori bilan u iste'mol qiladigan ijtimoiy ne'matlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatga ko'ra soliq narxdan, (tovar yoki xizmatlarni ixtiyoriy iste'mol qilganligi uchun to'lanadigan haq sifatida) ruxsatnoma (lisenziya)lar va vositachilik yig'imlaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy to'lovlar hisoblansada, biroq hamma vaqt hukumat tomonidan ko'rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko'rilishi bilan bog'liqdir.*

---

<sup>4</sup> Вахобов А., Срождиддинова З. Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети. –Т.: ТМИ, 2002. 36 – бет.

2. *Soliqlar majburiy to'lovlar hisoblanadi.* Soliqlarning to'liq miqdorda va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik soliq to'lovchilar zimmasiga yuklangan bo'lsa-da, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to'laydilar, davlat soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarni qattiq jazolaydi.

3. *Davlat foydasiga soliq to'lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo'yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko'zda tutilgan qismi undirib olinadi.* Ko'pgina davlatlarning, shu jumladan, O'zbekistonning ham qonunlarida soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga faqat Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan organlar haqlidirlar, deb mustahkamlab qo'yilgan. O'zining xohish-istagiga qarab yangi soliqlar belgilash yoki ularning hajmlarini aniqlashga hech kimning haqqi yo'q. To'lovlarning qonuniy, ochiq-oydin xususiyatga ega bo'lishi soliqlarning bosh tavsifi hisoblanadi.

4. *Soliqlar davlat yoki mahalliy byudjetga kelib tushadi,* ya'ni soliqlar byudjetdan tashqari fondlar yoki turli xil boshqa fondlarga kelib tushmaydi.

5. *Soliqlarga xos bo'lgan umumiy belgilardan biri sifatida davlat hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mulkchilikni qayta taqsimlash jarayonining yuzaga kelishidir.* Soddaroq qilib aytganda, korxonalar va aholidan olinadigan soliqlar, aslida ular mulkning ma'lum bir qismini davlat hisobiga o'tkazilishini bildiradi. Bu bilan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga tegishli bo'lgan mulk daromad shaklida majburiy to'lov bo'lib, davlat mulkiga aylanadi.

Soliq kategoriyasi boshqa iqtisodiy kategoriyalar: moliya, kredit, sug'urta, investisiya kabilar bilan umumiy o'xshashlikka ega, ya'ni ularning barchasi pulli munosabatlarni ifodalaydi. Lekin soliqlarning o'ziga xos yuqorida qayd etilgan belgilari mavjudki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqlash uchun xizmat qiladi.

### **3. Soliqqa tortish tamoyillari**

Soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi.

*Hozirda soliqqa tortish samarali tizimining quyidagi tamoyillarini ta'riflab o'tish mumkin:*

- Soliqqa tortishning yetarlilik tamoyili.
- Soliqqa tortishning tadbirkorlik va investisiyalarni rag'batlantirish tamoyili.
- Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili.
- Soliqqa tortishning oddiylik va xolislik tamoyili.
- Soliqqa tortishning boshqarishga qulaylik tamoyili.
- Soliqqa tortishning soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyili.
- Soliqqa tortishning soliq stavkalarini qiyoslash tamoyili.

**1. Soliqqa tortishning yetarlilik tamoyili.** Mazkur tamoyilga muvofiq soliqqa tortish darajasi shunday bo'lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslari to'planishini ta'minlasin. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, soliq stavkalari (o'zicha olganda) soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to'lovchi soliq to'lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo'lgani holda ayni choqda o'zining ba'zi xarajatlarini qisqartiradi. Masalan, davlat umumiy foydalanish yo'llarining holati yaxshi saqlanishini ta'minlash bilan soliq to'lovchining transport xarajatlarini kamaytiradi, bepul maorif, sog'liqni saqlashni ta'minlash bilan yollanma xodimlarning xarajatlarini qisqartiradi, demak, ish haqi xarajatlarini ham kamaytirgan bo'ladi. Shunday qilib, to'langan soliqlarning faqat xizmatlar ko'rinishidagi talab etilmagan bir qismigina soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, yetarlilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat'iy ravishda uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

**2. Soliqqa tortishning tadbirkorlik va investisiyalarni rag'batlantirish tamoyili.** Soliq tizimi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni, jumladan, chet el sub'yektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirishni, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi lozim.

Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilmasligi hamda xo'jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo'ymasligi lozim. Agar soliqlar katta bo'lgani uchun tadbirkorlarning ishlab chiqarishni kengaytirishdan, boshqa turdagi iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdan manfaatdorligiga putur yetkazsa, mamlakat iqtisodiyoti pastga qarab ketishi xavfi tug'iladi. Soliqlar miqdori haddan tashqari katta qilib belgilansa, ishlab chiqarish hajmlari kamayib ketadi, bu jarayon zaxiralar, banklardagi pul mablag'larining barakasi uchishiga, ilgari to'plangan mablag'larning yeyilib ketishiga olib keladi.

Soliqqa tortish, agar u, birinchidan, ishchi kuchini ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan darajada saqlab turishga zarur bo'lgan iste'molning minimal hajmlariga salbiy ta'sir esa, ikkinchidan, mehnatga nisbatan iqtisodiy va moddiy rag'batlarning harakat doirasini toraytirib qo'ysa, uchinchidan, jamg'arma miqdorini kamaytirs va mablag'ning to'planish jarayonini sekinlashtirsa, ishlab chiqarish imkoniyatlarini yomonlashtirib yuborishi mumkin.

Soliqqa tortishning keyingi ikki salbiy omilini batafsil ko'rib chiqaylik. Moddiy rag'batlantirishlarga nisbatan soliqqa tortishning noxush ta'sir etishi ish haqi tizimida salbiy alomatlar paydo bo'lishida ko'zga tashlanadi.

Yuqori darajada tabaqalashtirilgan soliq stavkalarining qo'llanilishi natijasida xodim tomonidan ana shu moddiy rag'batni qabul qilishdagi oddiylik va maqbullik ko'lami torayib qoladi.



Soliqqa tortish bazasi va uning hajmlarini noto'g'ri belgilash xodimning malaka oshirishiga, rasionalizatorlik va ixtirochilik faoliyati bilan shug'ullanishiga va boshqa sohalarga bo'lgan intilishiga salbiy ta'sir etadi, boisi – mehnatga to'lanadigan haq miqdori, haqiqiy mehnat xarajatlarining murakkabligi va xususiyati o'zgarishiga befarq bo'lib qoladi.

Soliqqa tortishning iqtisodiy omillarga ta'siri ikki xil ko'rinishda bo'ladi hamda qiyosiy oqibat va daromad oqibati shaklida ifodalanadi. Qiyosiy oqibat mehnat natijalari, jamg'arish, investisiyalash, yangi g'oyalarni joriy etish va ishlab chiqarish faoliyatining boshqa xil ko'rinishlari bilan shug'ullanish uchun nisbatan kamroq darajada rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa progressiv (oshib boruvchi) soliqqa tortishda bunday oqibatning rag'batlantirishga zid ta'siri yaqqol ifodalanadi.

Dunyodagi bir qator mamlakatlarda kapitaldan kelgan daromad va iste'molga qarab soliqqa tortishni ko'zda tutgan soliq islohoti o'tkazilmoqda. Soliqqa tortishning salbiy ta'sirini silliqlash maqsadida ishchi kuchini taklif etish sohasida ish haqi ko'rinishidagi daromadlardan olinadigan soliqlarning eng yuqori qilib belgilangan stavkalari pasaytirilmoqda. Jamg'arish va investisiyalashga soliqlarning ta'sir etishi borasida ham muayyan yutuqlarga erishildi.

Soliqlarning ta'siri investisiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko'rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investisiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kamchilik va nuqsonlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin, bu hol pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining o'zgarishiga ham ta'sir etmay qolmaydi.

Soliqqa tortishdagi og'irlikni kapitaldan shaxsiy jamg'arishga o'tkazishning umumiy ta'sirini bir xil ma'noda baholash qiyin, jamg'armaning umumiy hajmi uchun kelib chiqadigan oqibatlar soliq tushumlarining hukumat tomonidan ishlatilish xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Agar yopiq iqtisodiyot sharoitida soliq tizimi uy xo'jaliklaridagi jamg'armalar darajasining pasayib ketishiga olib kelgan bo'lsa, u holda bir tekis foiz stavkasi oshgan, bu esa investisiya kapitaliga talabning kamayishi ta'sir ko'rsatgan bo'ladi. Ochiq iqtisodiyotda esa jamg'armalardan olinadigan daromad soliqlari investisiyalarga cheklangan darajada ta'sir qiladi, chunki bunda chet eldan kapitalning ko'proq oqib kelish imkoniyati bor, binobarin, xorijlik sarmoyador jahon bozorida ustun hisoblangan stavkani mo'ljallaydi. Biroq bunday holatda kapitalga bo'lgan mulkchilik harakatga keladi. Bunga misol tariqasida Yaponiyadan kapitalning AQShga oqib o'tganligini ko'rsatish mumkin, AQShda kapitaldan foydalanganlik uchun foiz stavkasi past bo'lgan. Ayni paytda AQShda rezidentlar jamg'armalarini soliqqa tortish stavkasi Yaponiyadagiga qaraganda yuqori edi.

Binobarin, soliq siyosati o'z-o'zidan, agar u davlatning moliya-pul siyosati boshqa unsurlardan ayri holda amalga oshirilsa, takror ishlab chiqarish jarayonlariga rag'batlantiruvchi ta'sir o'tkazmasligi ham mumkin.

**3. Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili.** Adolat tamoyillariga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy ob`yektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Adolatlilik tamoyilining bir qancha asosiy guruhdagi soliqqa tortish tamoyillariga bo`linadi. Bularni ikki guruhga bo`lgan holda o`rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda gorizontal va vertikal adolatni bir-biridan farqlash lozim. Gorizontal adolat tamoyili daromad olishning turli sharoitlarida soliq to`lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning taxminan teng shartlarini qo`llashni ko`zda tutadi.

Vertikal adolat deganda, xo`jalik yuritishning bir muncha og`ir sharoitlarida ishlayotgan sub`yektlar uchun soliqqa tortishning bir qadar yumshoqroq shartlarini, yengil daromad olish imkoniyatiga ega bo`lgan sub`yektlar uchun esa og`irroq shartlarni qo`llash tushuniladi. Soliqlarning rag`batlantirish funksiyasini bajarish doirasida ikkinchi tamoyil buzilishi mumkin. Masalan, xalq iste`moli tovarlari ishlab chiqarishni rag`batlantirish maqsadida ularni ishlab chiqarish bo`yicha soliqqa tortishda bir qadar imtiyozli shartlar yoki buning aksicha vino-arog va tamaki mahsulotlarini iste`mol qilishni cheklash uchun ulardan olinadigan egri soliqlarning yuqori stavkalari belgilangan hollar ham bo`ladi.

Ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirishga turlicha yondashuvlar bo`lishi mumkin. Agar soliqlarni to`plangan soliqlar hisobidan ro`yobga chiqariladigan davlat dasturlaridan keyinchalik foyda ko`radigan shaxslar to`lasa, u holda adolatli deb hisoblanadi. Aytaylik, transport vositalariga soliqlardan tushadigan mablag`ni davlat katta yo`llarni ta`mirlashga yoki qurishga sarflasa, bundan soliq to`lovchilarning o`zlari – avtomobil egalari naf ko`radi. Biroq bunday yondashuvni keng miqyosda amalga oshirishning iloji bo`lmaydi. Huquq-tartibotni mustahkamlash, maorifni rivojlantirish, atrof-muhitni qo`riqlashdan aniq ravishda kim ko`proq foyda ko`rishini qanday qilib hisoblab chiqish mumkin? Hatto bepul sog`liqni saqlash dasturlaridan asosan ko`p bolali oilalar, keksa va nochor fuqarolar foydalanishlari aniqlab chiqilgan taqdirda ham ana shu maqsadlar uchun maxsus soliqlarni aynan ularning o`zidan undirishni talab qilish adolatdan bo`ladimi?

Amaliyotda boshqacha yondashuv birmuncha kengroq qo`llaniladi, unga ko`ra to`lov qobiliyati tamoyili asos qilib olinadi: soliq to`lovchining daromadi qanchalik yuqori bo`lsa, undan shuncha ko`p miqdorda soliq undiriladi. Bu gapning ma`nosi shuki, badavlat odamlar bepul maktab maorifi, milliy mudofaa, sog`liqni saqlash va boshqa sohalar uchun bir qadar yuksak iqtisodiy mas`uliyatni his etishlari lozim, chunki ular kambag`allarga nisbatan ko`proq to`lashga qodirdirlar. Boy odamlar bepul davlat dasturlaridan foydalanadilarmi? Agar foydalansalar, bu qay darajada ahamiyasiz? Aslini olganda, o`ziga to`q kishilar ta`lim berish va xizmat ko`rsatish yaxshiroq yo`lga qo`yilgan maktab va shifoxonalarni tanlaydilar. Bunday to`lov qobiliyati konsepsiyasi AQSh soliq siyosatida keng tarqalgan.

Biroq amaliyotda soliqqa tortishning mazkur konsepsiyasi tez-tez jiddiy qiyinchiliklarga duch kelib turadi. Yiliga 100 ming dollar daromad oladigan kishi yiliga 10 ming dollar daromad oladigan kishiga nisbatan ko'proq soliq to'lashga qodir, degan fikrga qo'shilish mumkin. Biroq bunda birinchi kishi ikkinchisiga qaraganda aynan necha barobar ko'p soliq to'lash imkoniyatiga ega, degan masala noaniqdir. Badavlat odam o'zining daromadidan o'sha hissani va mutlaq katta summani to'laydimi yoki soliq sifatida umuman ko'proq hissani to'laydimi? Afsuski, aniq bir kishining soliq to'lash imkoniyatlarini o'lchash uchun ilmiy asoslangan qandaydir usullar yo'q. Amaliyotda bunga javob, takliflar va taxminlar empirik yo'l bilan yoki hukumatning daromadlarga bo'lgan joriy ehtiyojlari, siyosiy qarashi asosida paydo bo'ladi.

Soliqqa tortishdagi adolat tamoyili ba'zi hollarda taqsimotdagi ijtimoiy adolat tamoyili ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, bu tamoyilni daromadlarni teng ravishda taqsimlash, baravrlashtirish deb tushunmaslik kerak. Qonun oldida tenglikka rioya etilishi, ijtimoiy mumtozlikka, irq va dinga munosiblikka asoslangan imtiyozlarning bekor qilinishi, inson asosiy huquqlarga birday ega bo'lishi kabi tenglik tamoyillari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida mustahkamlab qo'yilgan va bu tamoyillarga qadriyatlarining ijtimoiy tizimiga qat'iy amal qilmoq lozim. Moddiy tenglik, ya'ni daromadlar, mulk, iste'mol sohasidagi tenglik haqida gap ketadigan bo'lsa, aytish kerakki, bunday tenglikka erishib bo'lmaydi. Davlat va jamiyat barcha fuqarolar yaxshi hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berishlari kerak, albatta, soliqqa tortish tizimi esa istiqbolga mo'ljallangan rejada aholining farovonligini umumiy tarzda amalga oshirish orqali jamiyat quyi qatlamlarining ahvoli izchil ravishda yaxshilanib borishiga ko'maklashmog'i zarur.

**4. Soliqqa tortishning oddiylik va xolislik tamoyili.** Bu tamoyil soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek soliqlarning eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu o'rinda nazarda tutilayotgan narsa shuki, soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi doirasida beriladigan imtiyozlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lmasligi, balki muayyan faoliyat turlarini rag'batlantirishga, soliq to'lovchilarning mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat'i nazar, ma'lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilmog'i lozim. Ba'zi sohalarda paydo bo'ladigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ehtiyojni qondirishni byudjet-kredit siyosati orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shuki, soliq imtiyozlarining haddan tashqari ko'pligi qonunlarni murakkablashtirib yuboradi, tushunishni qiyinlashtiradi hamda turlicha talqin qilinishiga olib keladi, bu hol pirovard natijada soliq to'lovchilarning soliqlarga nisbatan munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga aniq qilib belgilangan imtiyozlar soliq yukini boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga o'tkazib, ijtimoiy adolasizlik ro'y berishiga olib keladi.

**5. Soliqqa tortishning boshqarishga qulaylik tamoyili.** Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko'p hollarda soliqning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

Ayrim mamlakatlarda soliqqa tortishning nihoyatda murakkab tartibi amal qiladi, aytaylik, shkala va stavkalar turi, soliqlar tarkibi, ularni to'lash qoidalari va tartiblari haddan tashqari ko'p. Buning ustiga ular soliq tushumlarining ko'payishiga hech qanday yordam bermaydi hamda soliqning rag'batlantiruvchi funksiyasi bajarilishida rol o'ynamaydi.

Ma'muriy boshqaruvchilik bilan soliqqa tortish tamoyillarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan maqsadga erishish o'rtasida muvozanat saqlanib qolishi nihoyatda muhimdir. Murakkab tuzilgan choralarning samarasi kam bo'ladi, ularni amalga oshirishdagi muvaffaqiyat ko'pdan-ko'p axborot to'plash va undan foydalanishga bog'liq. Soliq xizmati va soliq madaniyatining rivojlanganlik darajasini ham hisobga olish kerak.

**6. Soliqqa tortishning soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyili.** Mazkur tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliqqa tortish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to'g'riligini bevosita nazorat qilish usullarini qo'llash orqali soliq to'lovchilarning xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliqqa tortish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

**7. Soliqqa tortishning soliq stavkalarini qiyoslash tamoyili.** Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya'ni mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo'lgan xo'jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo'yilgudek bo'lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investisiyalarni jalb qilishni mushkullashtirib yuboradi, aksincha, yengil sharoit yaratilsa, mamlakat byudjetiga salbiy ta'sir qiladi.

#### **4. Soliqlarning funksiyalari va vazifalari**

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi. Funksiya deganda, odatda kategoriyaning hayotda ko'p qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy harakatlarini tushunish lozim.

Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, funksiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo'lib ertaga yo'q bo'lib ketadigan holatlar soliq funksiyasi bo'la olmaydi. Demak, funksiya kategoriyasi doimiy, qat'iy takrorlanib turadigan voqelikni ifodalaydi. Shunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib soliqlar funksiyasini aniqlash kerak.

Soliqlarning funksiyalari masalasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas.

***Soliqlarning quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:***

- Fiskal funksiyasi
- Tartibga solish funksiyasi
- Rag'batlantirish funksiyasi
- Nazorat funksiyasi
- Soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi.

***1. Soliqlarning asosiy funksiyasi - fiskal funktsiya hisoblanib*** (lotincha *fiscus* so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni anglatadi), bu funksiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir bo'lagini davlat apparati, mamlakat mudofaasi, noishlab chiqarish sohasining umuman o'z daromadlari manbaiga ega bo'lmagan qismini (ko'pgina madaniyat muassasalari, jumladan, kutubxonalar, arxivlar va boshqalar) yoki lozim darajada rivojlanishini ta'minlash uchun o'zining mablag'i yetishmaydigan tarmoqlarni (fundamental organ, teatrlar, muzeylar, ko'plab o'quv yurtlari va hokazo) saqlab turish maqsadida undirib olish yo'li bilan davlat byudjetining daromad qismini shakllantirish soliqlar fiskal funksiyasining eng muhim elementi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan fiskal funksiyaning ahamiyati oshib boradi. Ishlab chiqarish ijtimoiy tushadiligining chuqurlashishi fan-texnika taraqqiyotining rivojlanish munosabati bilan asosan soliqlar hisobiga shakllantiriladigan moliyaviy resurslar oqimini ko'paytirishning real zarurati yuzaga keladi. Davlat iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarga ko'proq e'tibor bergan sari ko'p moliyaviy resurslarni sarflamoqda, lekin soliq tizimi o'zining fiskal funksiyasi va vazifalarini bajarishi jarayonida ishlab chiqarish o'sishiga, jang'arish jarayoniga xalal bermasligi, ijtimoiy adolatni buzmasligi hamda xalq xo'jaligining umumiy tuzilmasida buzilishlar va chetga chiqishlar sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi, bozor jarayoniga putur yetkazmasligi kerak.

Soliqlarning ushbu funksiyasi orqali hosil bo'ladigan pul resurslari davlat fondi (davlat byudjeti) orqali qayta taqsimlanadi, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, ustuvor tarmoqlarni investisiyalashga yo'naltiriladi.

Jahon amaliyotida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari va yuqori daromad oluvchi shaxslar uchun progressiv stavkalar belgilash ham qo'llanadi, ya'ni aholining kam daromad oladigan qismini ijtimoiy himoya qilish maqsadida daromadlarning bir qismi qayta taqsimlanadi. Bunday yondashuvlar soliqqa tortiladigan daromad aniqlanayotganida soliqqa tortilmaydigan minimum miqdoridagi daromad qo'shilmaydi, ayni paytda ortiqcha daromadlar soliqqa yuqori progressiv stavkalar bo'yicha tortiladi.

**2. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funksiyasi ularning iqtisodiyotdagi tartibga soluvchilik roli hisoblanadi,** ya'ni davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan xalq xo'jaligi tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayyan «soliq muhiti»ni yaratadi. Ushbu funksiya orqali soliq tizimiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni muayyan tarmoqda ishlab chiqarish sur'atlarini rag'batlantiradi yoki jilovlab turadi, sarmoyaning bir tarmoqdan soliq muhiti eng ma'qul bo'lgan boshqa tarmoqqa qo'yilishini kuchaytiradi yoki pasaytiradi, shuningdek aholining to'lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

Soliqlarning tartibga soluvchi sifatidagi funksiyasining ahamiyati bozor sharoitida o'sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma'muriy qaram qilish usullari yo'q bo'lib ketadi yoki juda oz holda qoladi, korxonalar faoliyatini farmoyishlar, ko'rsatmalar va buyruqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo'lgan «yuqori tashkilot» tushunchasining o'zi asta-sekin yo'qola boradi. Biroq iqtisodiy faollikni izga solib turish, uning rivojlanishini jamiyat uchun maqbul bo'lgan yo'nalishda rag'batlantirish zarurati saqlanib qoladi.

**3. Rag'batlantirish funksiyasi** soliq tizimining eng muhim funksiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom-ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investisiya faoliyatini jonlantirishga rag'batlantiradi. Soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi orqali davlat iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlaydi, bu bilan fiskal funksiyani bajarish uchun bazani kengaytiradi va ishlab chiqarishni qo'llab quvvatlab, davlat oqilona soliq siyosatini olib borish yo'li bilan soliq yukini oshirmasdan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning erkin faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi.

**4. Soliqlarning nazorat funksiyasi** soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish ob'yekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

**5. Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi** ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funksiya orqali xarajatlar hajmi va konkret soliqlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarishga sarflanganligi to'g'risida axborot berib turilishi juda zarur. Shunday qilinsa, soliqlarning byudjetga tushishi to'liq, o'z vaqtida va oson kechadi.

**Soliqlar bajaradigan vazifalarga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- Umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatni zaruriy moliyaviy resurslar bilan ta'minlab berish.
- Mamlakat iqtisodiyotida qulay investisiya muhitini yaratishga ko'maklashish.
- Aholining mehnat faolligini rag'batlantirish.

- Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat prinsiplari o'rtasidagi muvofqlikka erishish.

**1. Umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatni zaruriy moliyaviy resurslar bilan ta'minlab berish.** Soliqlarning fiskallik funksiyasi ushbu vazifani hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu vazifani hal qilish davlatning iqtisodiyotga qay darajada aralashuviga ko'p jihatdan bog'liq. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, soliqlarning fiskallik funksiyasi shunchalik faol bo'ladi. Ammo soliqlarning ushbu vazifasi faqat iqtisodiy jarayonlarni qamrab olmaydi, balki davlatning noishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishi ham davlatning ortiqcha moliyaviy resurslarga muhtojligini keltirib chiqaradi.

**2. Mamlakat iqtisodiyotida qulay investisiya muhitini yaratishga ko'maklashish.** O'zbekiston Respublikasida soliqlarning ushbu vazifasini bajarishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, hozirgi kunda sarmoyalarning asosiy qismi savdo va xizmatlar sohasiga yo'naltirilayotganligi tashvishli holdir. Buning asosiy sababi foyda normasining bu sohalarda kattaligidir. Soliqlar sarmoyalarni bevosita mahsulot ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirishning qudratli vositasi bo'lishi kerak.

**3. Aholining mehnat faolligini rag'batlantirish.** Soliqlar deyarli barcha mamlakatlarda ushbu vazifani bajaradi. Chunki ular aholi daromadlarini tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Daromadlardan olinadigan soliq stavkalarining eng yuqori chegarasini sezilarli darajada pasaytirish ishchi kuchining taklifi bilan bog'liq salbiy oqibatlarining oldini olishi mumkin. 70-80 yillarda Shvesiyada soliq stavkalarini aholi daromadlariga progressiv ravishda qo'llash malakali ishchilarning boshqa mamlakatlar tomon migrasiyasiga olib kelgan.

**4. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat prinsiplari o'rtasidagi muvofqlikka erishish.** Amaldagi soliq'larga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliqlarning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Milliy va xorijiy investorlar kapital qo'yilmalarini amalga oshirar ekan, ular o'zlarining soliq majburiyatlarini aniq bilishi kerak. Soliq turlari va stavkalari barqaror va tez-tez o'zgarmaydigan bo'lishi kerak. Soliqqa tortish tizimida mustahkam ishonch bo'lmagan taqdirda uzoq muddatli investisiyalarning harakati susayadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, soliqlarning byudjetga ijobiy ta'siridan tashqari, muhim iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sohasida ham ulardan faol foydalanish mumkin. Narx-navoning isloh qilinishi, tashqi savdoning erkinlashtirilishi, mehnat bozorining isloh qilinishi va hokozalar yangi paydo bo'lgan tijorat tuzilmalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zaruratini yuzaga keltiradi. Bu vazifani soliq stavkalarini tabaqalashtirish yo'li orqali hal etish mumkin.

Shunday qilib, soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga qarab, qisqa muddatli, o'rt va uzoq muddatli vazifalarga bo'linadi. Bu vazifalar mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Soliqlar nafaqat davlat byudjetining tushumlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga, balki davlat daromadlarini byudjetning o'rt muddatli rejada hayotiylikini yaxshilash maqsadida moslashuvchanligini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

## 5. Soliq elementlari

Qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undirilgan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari yig'indisi *soliqqa tortish tizimi deb ataladi*. Soliqqa tortish tizimining tarkibiy qismini soliq elementlari tashkil qiladi.

*Soliqlarning elementlariga quyidagilar kiradi:*

- soliq sub'yekti;
- soliq ob'yekti;
- soliq manbai;
- soliqqa tortish birligi;
- soliq bazasi;
- soliq stavkasi;
- soliq yuki;

*Soliq sub'yekt* – soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar.

*Soliq ob'yekti* – soliq solinadigan daromad, oborot yoki mulkdir. Uning foyda, ish haqi, yer, imorat, jami xarajat kabi turlari mavjud.

*Soliq manbai* – bu sub'yektning daromadidir. Ba'zi soliqlarda daromad va foyda ham soliq ob'yekti, ham soliq manbai bo'ladi. Lekin boshqa soliqlarda ob'yektlar har xil, manba esa – daromad bo'ladi.

*Soliqqa tortish birligi* – bu ob'yektning o'lchov birligi. Bu daromad solig'ida so'm, yer solig'ida kv. metr, suv solig'ida kub. metr va boshqalar.

*Soliq bazasi* – soliq ob'yektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori.

*Soliq stavkasi* – ob'yektning har birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir, ya'ni davlatning soliq ob'yektidagi ulushi, hissasidir. Soliq stavkasi ikki usulda belgilanadi: qat'iy stavkalarda (so'mlarda) va nisbiy stavkalarda – foizlarda ifodalanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish va inflyasiya sharoitida nisbiy stavkalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunday holda byudjet inflyasiyadan ko'p mablag' yo'qotmaydi. Agar stavka sumlarda hisobga olinsa, soliqlardan tushgan byudjet daromadi yil oxiriga borib, hech qanday iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

*Soliq yuki* – soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'idagi faoliyati natijasida to'lagan soliqlarning yig'indisini ifodalaydi.



**Soliq stavkalarining turlari.** O'zbekiston soliq qonunchiligida soliq stavkalarining asosan uch turi amal qiladi: proporsional, progressiv va nolli stavkalar. 2002 yildan boshlab yuridik shaxslarning foyda solig'i va mol-mulk solig'i bo'yicha asosiy stavkaga qo'shimcha regressiv stavka (imtiyoz tariqasida) qo'llanila boshlandi.

**Proporsional** soliq stavkasida ob'yekt qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bir xil ulushdagi (proporsiyada) soliq to'lanadi. Masalan, QQS bo'yicha mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) oborotiga 20 foizli stavka belgilangan bo'lsa, oborot 10 ming so'm bo'lsa ham, 100 ming so'm bo'lsa ham hattoki million so'm bo'lsa ham stavka 20 foiz turaveradi, ya'ni ulush o'zgarmaydi.

**Progressiv soliq** stavkasida esa daromad, ob'yekt ko'payib borishi bilan soliq stavkasi ham yonma-yon o'sib boradi. Bu bizning soliq qonunchiligimizda faqat fuqarolarning daromad solig'ida qo'llaniladi. 2010 yilda minimal ish haqi 6 barobariga teng qismiga 11 foiz, 6 barobaridan 10 barobarlik qismiga 17 foiz va 10 barobaridan oshgan qismiga 22 foiz soliq stavkasi belgilangan. Bu stavka xaznaviy nuqtai nazardan salmoqlidir. Ammo iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazardan unchalik yaxshi emas. Bu stavka ishchilarni ko'proq ishlab ko'proq daromad olishga, mehnat unumdorligini oshirishga yaxshi qiziqitirmaydi. Bu stavkaning yildan yilga kamaya borishi, bu kamchilikni bartaraf etishga qaratilgan. Hozirgi kunda bunday stavkani qo'llashdan maqsad pul inflyasiyasini jilovlash, pul muomalasini mustahkamlash va byudjetga salmoqli daromad tushishini ko'zda tutadi.

**Nolli stavka.** Chet el mamlakatlari amaliyotidan foydalanib, bizda ham QQS eksportga tovar ortganda va chetdan tovarlar keltirishda (qurilish materiallariga) nolli stavkani 1998 yildan qo'llanilmoqda. QQS bo'yicha nolli stavka eksportga tovarlar (ishlar, xizmatlar) oborilganda, qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'itlar va yoqilg'i-moylash mahsulotlari sotilganda, hamda elchixonalar va vakolatxonalarga tovarlar ortilganda qo'llaniladi. Nolli stavka mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish uchun juda yaxshi, chunki o'z mahsulotiga QQS hisoblamaydi, olgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi hisobga olinadi.

**Regressiv** soliq stavkasida daromad yoki ob'yekt oshib borishi bilan soliq stavkasi kamayib borib, mahsulot ishlab chiqarish rag'batlantiriladi. Masalan, yuridik shaxslarining foyda solig'ida, mol-mulk solig'ida eksportga tovar ishlab chiqarib, erkin almashtiriladigan valyutada sotgan yuridik shaxslar umumiy ishlab chiqargan muhsulotlarga nisbatan eksport hissasiga qarab kamaytirilgan soliq to'laydilar (30 va 50 foizga). Bu 2002 yildan kiritilgan soliq siyosati bo'lib iqtisodiy rivojlanishga katta naf keltiradi.

**Soliq imtiyozlari** soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha beriladigan turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik, doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin. Soliq imtiyozlarining turlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Soliqlarning ob'yektiv zarurligini asoslab bering.

2. Soliq tushunchasiga ta`rif bering.
3. Soliqlarning umumiy belgilarini izohlab bering.
4. Soliq tamoyillarining mohiyatini tushuntiring.
5. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?
6. Soliqlarning bajaradigan vazifalarini tushuntirib bering.
7. Soliqqa tortish tizimi tushunchasi nimani ifodalaydi?
8. Soliq elementlarini sanab o`ting
9. Soliq stavkalarining qanday turlari mavjud?
10. Soliq solish ob`yekti nima?
11. Soliq imtiyozlari tushunchasi nimani ifodalaydi?
12. Soliq yuki deganda nimani tushunasiz?

## 8-MAVZU. SOLIQ TIZIMI VA SOLIQ SIYOSATI

### Reja

1. Soliq tizimi va uning tarkibi
2. Soliqlarning guruhlanishi
3. Soliq siyosati, uning asosiy yo'nalishlari
4. Soliq siyosatining makroiqtisodiy samarasi

### Tayanch iboralar

Soliq tizimi, soliq siyosati, to'g'ri soliq, egri soliq, soliq strategiyasi, soliq taktikasi, soliq konsepsiyasi, soliqlarni guruhlash.

#### 1. Soliq tizimi va uning tarkibi

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi. Bu ta'rif soliq tizimini keng ma'noda tushunishdir. Soliq qonunchiligida soliq tizimi tor ma'noda talqin qilinib, *bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi soliq tizimi deb ataladi*. Soliq tizimiga nisbatan bunday yondashuv ayrim adabiyotlarda ham keltirilganligini ta'kidlash o'rinli. Qayd etilgan ta'rifda soliq va yig'imlar yagona mohiyat, ya'ni «majburiy xarakterga ega bo'lgan munosabat» va ularning bir-biri bilan bog'liqligi va nihoyat byudjetga tushishligini ko'rsatadi.

Prezident I.A. Karimov tomonidan, «avvalo soliq tizimi o'ziga xos vazifani - fiskal, qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarishi kerak»,<sup>5</sup>- degan fikr bildirilgan edi.

Soliqlar bo'yicha izlanishlar olib borgan ayrim mualliflarning soliq tizimiga yondashuvi boshqacha. Soliq tizimiga, xususan, soliqlar yoki ularga tenglashtirilgan to'lovlar tizimi (majmui) sifatida qarash mumkin emas. Soliq solishning muhim shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi, soliqlarning turlari, ularni byudjet darajalari o'rtasida taqsimlash tartibi, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq to'lovchilarning huquqlari, majburiyatlari, ular manfaatlarini himoya qilish usullari, soliq munosabatlari ishtirokchilarining javobgarligi va shu bilan birga ushbu elementlar soliq tizimining tarkibiy unsurlari ekanligini ta'kidlaydi va soliq tizimi deganda ana shu elementlarning majmuasidan iborat bo'lgan va ular o'rtasidagi munosabatlar majmuasidan kelib chiqib ifodalash mumkin.

Umuman olganda, soliq tizimini tarkiban soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliqqa tortish tizimi, soliq mexanizmi kabilarga ajratish mumkin. Ushbu elementlar bevosita mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning tarkibini belgilab beradi.

---

<sup>5</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. 358-б.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23 – moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududida umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi. Ular O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan joriy etiladi va bekor qilinadi.

### O'zbekiston Respublikasida soliqlar tizimi tarkibi

<i>Umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar</i>	<i>Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar</i>
<p>1.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;</p> <p>2.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;</p> <p>3.Qo'shilgan qiymat solig'i;</p> <p>4.Aksiz solig'i;</p> <p>5.Yer qat'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;</p> <p>6.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;</p> <p>7.Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Yagona ijtimoiy to'lov;</li> <li>• Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;</li> <li>• Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar;</li> </ul> <p>8.Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;</li> <li>• Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;</li> </ul> <p>9.Davlat boji;</p> <p>10.Bojxona to'lovlari;</p> <p><i>Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan umumdavlat soliqlari:</i></p> <p>11.Yagona soliq to'lovi;</p> <p>12.Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.</p>	<p>1.Mol – mulk solig'i;</p> <p>2.Yer solig'i;</p> <p>3.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;</p> <p>4.Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;</p> <p>5.Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im;</p> <p>6. Yagona yer solig'i (soddalashtirilgan tartibdagi soliq).</p>

Soliqlarning umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z byudjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga va boshqa majburiy to'lovlarga ega bo'lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat miqyosida katta vazifalarni, jumladan, sog'liqni saqlash, maorif, fan, mudofaa, xavfsizlikni saqlash, aholini ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator shu kabi strategik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning byudjeti ham, soliqlari ham salmoqli bo'lishni talab etadi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy byudjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Bordi – yu, ajratma yetmasa subvensiya yoki subsidiya beriladi. Umumdavlat va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo'lib, ular byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar hisoblanadi.

Mahalliy soliqlar hukumatlar bajaradigan vazifalarga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq birlashtirib beriladi. Mahalliy hokimiyat organlari, asosan, fuqarolarga yaqin bo'lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni, jumladan, maktab, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar ularning byudjet xarajatlarining 30 – 40 foizini qoplaydi, xolos.

Shuning uchun ham mahalliy byudjetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki, ular faqat shu hududning byudjetiga tushadi va ulardan boshqa byudjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy byudjetlarning soliq va boshqa majburiy to'lovlari kam bo'lganligidan bu byudjetlarning daromadlar va xarajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani yechishda umumdavlat soliqlaridan ajratmalar beriladi (masalan, qo'shilgan qiymat solig'idan, aksiz solig'idan va boshqalar).

## **2. Soliqlarning guruhlanishi**

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliqlar quyidagi belgilari bo'yicha guruhlariga ajratiladi:

- ob'yekti bo'yicha;
- iqtisodiy mohiyati bo'yicha.

***Soliqlar soliqqa tortish ob'yektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:***

1. Oborotdan olinadigan soliqlar.
2. Daromaddan olinadigan soliqlar.
3. Mol–mulk qiymatidan olinadigan soliqlar.
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

***Oborotdan olinadigan soliqlarga quyidagi soliqlar kiradi:***

- Qo'shilgan qiymat solig'i;
- Aksiz solig'i;
- Bojxona boji;

- Yer qaridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar;
- Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq.

***Daromaddan olinadigan soliqlarga quyidagi soliqlar kiradi:***

- Yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq;
- Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq;
- Ixtisoslashtirilgan ulgurji savdo korxonalarining yalpi daromadidan olinadigan soliqlar;
- Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

***Mol–mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga quyidagi soliqlar kiradi:***

- Yuridik shaxslardan olinadigan mol–mulk solig'i;
- Jismoniy shaxslardan olinadigan mol–mulk solig'i.

***Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlarga quyidagi soliqlar kiradi:***

- Qishloq xo'jalik tovarlar ishlab chiqaruvchilarning yagona yer solig'i;
- Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i;
- Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i.

***Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga qarab quyidagi ikki guruhga bo'linadi:***

1. To'g'ri soliqlar (bevosita);
2. Egri soliqlar (bilvosita).

To'g'ri soliqlar to'g'ridan-to'g'ri daromadga va mol-mulkka qaratiladi (soliqqa tortishning bevosita shakli). Tovarining bahosida to'lanadigan yoki tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar egri soliqlarga kiradi. Tovar va xizmatlarning egasi ularni sotishda soliq summalarini olib, ularni davlatga o'tkazadi.

Daromadlar oladigan (mol-mulkka va shu kabilarga egalik qiladigan) xo'jalik yurituvchi sub'yektlar to'g'ri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi, narxlarga ustamalar orqali soliq yuki yuklab qo'yiladigan tovarning iste'molchisi esa egri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi. Amaliyotda nafaqat egri soliqlar, shu bilan birga to'g'ri soliqlarni ham iste'molchilar zimmasiga o'tkazish imkoniyati mavjuddir. Masalan, korxonalar to'laydigan soliqlar yuki inflyasiya davrida ko'pincha narx-navoni oshirib yuborish orqali iste'molchilar zimmasiga yuklab boriladi.

To'g'ri soliqlarga tortishda mablag'larning safarbar qilinishi yangi qiymatni taqsimlash paytida boshlanadi. Davlat daromad olingan paytdayoq uning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qiladi.

Soliq to'lovchining daromadi (ish haqi, foyda, foizlar va hokazo) va uning mol-mulkining (yer, uylar, qimmatli qogozlar va hokazo) qiymati to'g'ri soliqlar ob'yekti bo'ladi. Soliqqa tortishning bu shakli egri soliqlarga nisbatan birmuncha progressivdir, chunki u soliq to'lovchining daromadlilikini, oilaviy ahvolini hisobga oladi, soliq daromadni olish bosqichida undiriladi. Bundan tashqari, to'g'ri soliqlarga tortishda soliq to'lovchi o'z solig'ining summasini aniq biladi.

Egri soliqlar bahoga yoki tarifga ustama sifatida belgilanadigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlardir. Egri soliqlarga tortishda davlat tovar yoki xizmatlarning sotilishi paytida ushbu qiymatning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qilish bilan aslida yangi qiymatning taqsimlanishining ishtirokchisi bo'lib qoladi. Egri soliqlar to'g'ri soliqlardan farqli ravishda to'lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Tovarlar, odatda, shaxsiy iste'mol tovarlari, shuningdek xizmat ko'rsatish sohasining (sartaroshxonalar, hammomlar, kimyoviy tozalash xizmatlari) pullik aylanmasi, tomosha ko'rsatadigan va transport korxonalarining pattalari va shu kabilar soliqqa tortish ob'yekti bo'ladi. Egri soliqlarga tortiladigan tovarlar va xizmatlar soni muntazam kengayib bormoqda.

Xaridor-iste'molchi egri soliqlarning to'lovchisi bo'ladi. Tovarning sohibi yoki xizmatlar ko'rsatadigan shaxs aslida soliqni yig'uvchi hisoblanadi. Egri soliqlarning anchagina qismi mulkdor tomonidan tovarning yoki xizmatlarning narxiga qo'shiladi. Davlat korxonalari va monopoliyalar soliqning butun summasiga narxlarni oshirish bo'yicha juda katta imkoniyatlarga egadir. Tarmoq ichidagi raqobat yuksak bo'lganida va talab barqaror bo'lmagan holda soliqning muayyan hissasi tovarning ishlab chiqaruvchisi va sotuvchi tomonidan to'lanadi. Egri soliqlarning asosiy to'lovchisi pirovard oqibatda iste'molchilar bo'ladilar.

Egri soliqlar daromadlilikni, oilaviy ahvolni hisobga olmaydi. Hamma fuqarolar o'z daromadlarining miqdoridan qat'iy nazar, bunday soliqlarni to'laydilar, chunki egri soliqlarga tortiladigan turmush uchun zarur bo'lgan tovarlarni iste'mol qilishadi va xizmatlardan foydalanishadi.

Egri soliqlarning stavkalari qat'iy (tovar o'lchamining birligiga) va foizli (tovarning narxiga muayyan hissada) bo'ladi. Foizli stavkalar davlat uchun ko'proq foydalidir, chunki narxlar oshganida soliq tushumlari ham ko'payadi. Soliq stavkalarining oshirilishi ularning tovarlarning narxidagi hissasining ortishiga olib keladi.

Egri soliqlar aksizlarni, davlatning fiskal monopoliyalarini va bojxona bojlarini o'z ichiga oladi. Aksizlar undirilish usuliga qarab yakka tartibdagi (pivoga, shakarga, benzina va hokazo) va universal (qo'shilgan qiymat solig'i va boshqalar) turlarga bo'linadi. Ular asosan xo'jalik aktlaridan va aylanmalardan, moliyaviy operatsiyalardan kelib chiqadi.

Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda to'g'ri va egri soliqlar o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlashni belgilovchi me'yorlarni aniqlash muammosi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilganimizda, to'g'ri soliqlarni to'g'ridan - to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy va haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs hisoblanadi.

Egri soliqlarning huquqiy to'lovchisi mahsulot ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar, haqiqiy to'lovchisi esa iste'molchilar hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan to'g'ri va egri soliqlar tarkibiga quyidagi soliqlar kiradi:

<b>To'g'ri soliqlar</b>	<b>Egri soliqlar</b>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yuridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'i</li> <li>2. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq</li> <li>3. Yer solig'i</li> <li>4. Mol-mulk solig'i</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qo'shilgan qiymat solig'i</li> <li>2. Aksiz solig'i</li> <li>3. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq</li> <li>4. Bojxona boji</li> </ol>

To'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Umumiy soliq summasi o'zgarmagan holda birining stavkasini kamaytirish ikkinchisini stavkasini oshirishni talab etadi.

### **3. Soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlar**

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog'liq bo'ladi. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy siyosat o'z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo'linadi. Iqtisodiy siyosat ham o'z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o'rinda soliq siyosatining mazmuniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilganidek, *soliq siyosati iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to'lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir.* Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni ta'minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Hozirgi paytda respublikamiz soliq siyosatining asosi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda o'z aksini topayotgan iqtisodiy rivojlanishning besh tamoyilidir. Soliq siyosati ana shu tamoyillar asosida tashkil etilgan bo'lib, soliq sohasidagi samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



**Soliq konsepsiyasi** - soliqlarning yo'nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g'oyalarining yaxlitligidir. Mamlakatimizda soliq konsepsiyasi Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan chuqur ilmiy asosda ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasiga asoslanadi. Agar soliq konsepsiyasi qanchalik chuqur ilmiy asosga ega bo'lsa, soliq siyosatining barqarorligi shunchalik mustahkam ta'minlanadi. O'z navbatida soliq konsepsiyasi esa soliqlar sohasidagi chuqur ilmiy tadqiqot ishlari hamda soliq amaliyotida orttirilgan boy tajribalarning o'zaro uyg'unligiga asoslangan g'oyalar samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

Soliq siyosati barqarorligini ta'minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e'tiborga olib soliq siyosati: soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasiga bo'linadi.

**Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi.** Bu esa o'z navbatida ilmiy asoslangan soliq konsepsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, respublikamizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi qilib erkin, ochiq bozor iqtisodiyotiga, erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy, demokratik jamiyat qurish belgilangan. Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa davlat byudjeti va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarida muayyan uyg'unlikni ta'minlovchi soliq tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir yoki boshqacha qilib aytganda, soliq siyosati strategiyasi - soliq siyosatining uzoq muddatli yo'nalishi bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan ko'lamli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta'minlash ko'zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig'indisidir.

**Soliq siyosati taktikasi esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi say'i-harakatlarni bildiradi, ya'ni qisqa muddatli va kichik ko'lamli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo'nalishlar majmuasidir.**

Soliq siyosati konsepsiyasi soliq siyosati strategiyasiga nisbatan, soliq siyosati strategiyasi esa soliq siyosati taktikasiga nisbatan barqaror, ya'ni kam o'zgaruvchan bo'lib, ularning barchasi bir-biriga bog'liq holda, bir-birini to'ldirib turadi hamda yaxlit holda soliq siyosatining mohiyatini tashkil qiladi.

**Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:**

- mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to'lovlarni qonuniy joriy etish;
- amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta'minlovchi mexanizm shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;
- soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;
- soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi, o'zining mustaqil soliq tizimini shakllantirishni ham taqozo etadi. Shundan kelib chiqib, mustaqillikning dastlabki yillaridan e'tiboran mustaqil soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirila boshlandi va ushbu islohotlarning samarasi o'laroq hozirgi paytga kelib respublikamizda bir qadar o'ziga xos bo'lgan soliq tizimi shakllantirildi. O'ziga xos bo'lgan soliq tizimining shakllantirilishini soliq siyosatining samarasi sifatida e'tirof etish mumkin. Respublikamiz davlatchilik shaklidan kelib chiqib respublikamizda respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan umumdavlat soliqlari va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishga qaratilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar amal qiladi. Soliqlarning byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi bilan mustahkamlangan bo'lib, unga muvofiq respublikamiz soliq tizimida amal qiladigan har bir soliq turi u yoki bu byudjetga tushishi qat'iy belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ayrim umumdavlat soliqlari mahalliy byudjetlarga to'liqligicha birlashtirilishi yoki ulardan tushumlar respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi mumkin. Ushbu tizim bir necha yillardan buyon mahalliy byudjetlar kamomadini bartaraf etish maqsadida amaliyotda samarali qo'llanilib kelinmoqda.

Shu o'rinda yuridik shaxslarni soliqqa tortishning muhim tartiblariga alohida to'xtalib o'tish zarur. Respublikamiz soliq qonunchiligida hozirgi vaqtda soliqqa tortishning umumbelgilangan tizimi bilan bir qatorda, amaldagi barcha soliqlar o'rniga yagona soliqni to'lashni ko'zda tutuvchi soliqqa tortishning alohida tartiblari ham mavjud. Bu tartib quyidagilar uchun ko'zda tutilgan:

- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini;
- soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimidan foydalanayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari;
- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarini;
- lotoreyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'tkazishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar;
- tadbirkorlik faoliyatining alohida turlari bilangina shug'ullanuvchi yuridik shaxslar (bilyardxonalar, qisqa muddatli avtomobil saqlash joylari, bolalar o'yin avtomatlari).

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibidagi o'ziga xoslikni mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyati sifatida e'tirof etish lozim. Chunki respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim bo'lgan sohalar alohida tartib bo'yicha soliqqa tortilib kelinmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyatlari sifatida soliq to'lovchilarga nisbatan ko'zda tutilgan imtiyozlarni ham qayd etish mumkin. Jumladan, eksport faoliyatini rag'batlantirishga, xorijiy investisiyalar kirib kelishini rag'batlantirishga qaratilgan, aholining ijtimoiy shart-sharoitini hisobga olgan holdagi imtiyozlarni ularning ifodasi sifatida keltirib o'tish mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda **soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari** sifatida ikki yo'nalish: korxonalar va tashkilotlarga nisbatan soliq siyosati va aholining turli ijtimoiy guruhlariga uchun soliq siyosati kabi yo'nalishlarga bo'lib o'rganiladi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishi bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan qator ilmiy asoslangan soliqni joriy etish va shu orqali mavjud soliq tizimini tubdan qayta tashkil etishdan iborat bo'ldi. Soliq siyosatining keyingi yo'nalishi esa joriy etilgan soliqning samarali amal qilishini ta'minlash maqsadida soliq munosabatlarini amalga oshiruvchi tegishli muassasalarni tashkil etishga qaratildi. Xususan, dastlab Vazirlar Mahkamasi qoshida Soliq Bosh Boshqarmasi tashkil etilgan bo'lsa, 1994 yilga kelib bu boshqarma Davlat Soliq Qo'mitasiga aylantirildi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Bundan ko'rinadiki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida soliq siyosatida asosan tashkiliy jihatlarga e'tibor qaratildi, ya'ni soliqni joriy etish va soliq siyosatini bevosita amalga oshiruvchi tegishli muassasalar shakllantirildi.

Bu davrdagi soliq siyosatining asosiy xususiyatlaridan biri soliqning ko'proq fiskal ahamiyat kasb etishida, ya'ni ko'proq e'tibor davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratildi.

**Jahon soliq siyosati tajribasida soliqqa tortishning quyidagi yo'nalishlariga katta e'tibor beriladi:**

- Har xil mulk shakllariga moslangan korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik yuritishiga mumkin qadar iqtisodiy sharoit yaratish, ularni bozor munosabatlariga kirib borishiga har tomonlama ko'maklashish;
- Ijtimoiy-zaruriy umumdavlat vazifalarini bajarish uchun davlatni kerak bo'lgan moliyaviy manbalar bilan ta'minlash;
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tashkil qilishda qatnashish, ishsizlarni ish bilan ta'minlash, iqtisodiy nochorlarga yordam berish;
- Aholi turmush darajasini zaruriy me'yorda saqlab turish imkonini izlash va ta'minlash, soliqqa tortilmaydigan daromad minimumini vaqti-vaqti bilan oshirib borish. Bunda «iste'mol savatchasi» ma'lumotlarini e'tiborga olish.

**Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:**

- soliq yukini yanada pasaytirish,
- yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish,
- bilvosita soliqqa tortish samaradorligini ta'minlash,
- resurs soliqlariga ko'proq e'tibor qaratish,
- soliq tizimining soddaligiga erishish,
- davlat xarajatlarini optimallashtirish.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga nisbatan soliq yukini izchil kamaytirishga alohida e'tibor qaratish lozimligi ko'p bora ta'kidlanmoqda. Bunda birinchi navbatda ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning salmog'ini kamaytirish lozimligi alohida ahamiyatga ega. Buning natijasida korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushining ko'payishi evaziga uning aylanma mablag'lari miqdorini ko'paytirib borish va optimal darajasini saqlash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida ko'proq investisiya kiritish, xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish imkonini beradi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortilishini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan soliq stavkalarini kamaytirish va aholi daromadlarini soliqqa tortishning uch bosqichli tizimidan ikki bosqichli tizimiga asta - sekin o'tish konsepsiyasini davom ettirish vazifasi turibdi.

Bevosita soliqlar bo'yicha soliq yukini izchil kamaytirish soliq siyosatining samaradorligini YaIM ga nisbatan ular tushumining barqaror kamayishi tendensiyasi ham isbotlaydi. Soliq tizimini takomillashtirishda ustuvor ahamiyat bilvosita soliqqa tortishga qaratilgan. Bilvosita soliqlar tovarlarga nisbatan qo'shimcha bo'lgani holda, pirovard natijada ishlab chiqaruvchining moliyaviy holatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi.

Resurs soliqlari yer, suv va boshqa tabiiy boyliklardan samarali foydalanishni ta'minlovchi amaliy vosita bo'lgani holda bozor iqtisodiyotida tabiiy resurslardan foydalanish va kelajak avlodlar uchun saqlash borasida muhim rol o'ynaydi.

Soliqlar davlat faoliyatining moliyaviy manbai bo'lganligidan soliq siyosatini ishlab chiqishning tashkilotchisi va rahbaridir. Buning uchun davlat o'z qo'lidagi butun kuchini idoralarini jalb qilib, uni ishlab chiqadi. Bunday tashkilotlarga Moliya Vazirligi, Davlat Soliq Qo'mitasi va boshqa ilmiy-uslubiy tashkilotlar kiradi. Soliq siyosati muvaffaqiyatli ishlab ketishi uchun davlat ilmiy izlanish tashkilotlari tuzib, ularning ish yakunlaridan foydalanadi. Ana shunday tashkilot Vazirlar Maxkamasi qoshidagi ilmiy tekshirish markazi bo'lishi lozim.

Davlat soliq siyosatini ishlab chiqayotganda mavjud soliqlarni yoki yangi kiritilishiga mo'ljallanayotgan soliqlarni mohiyatini, ahamiyati, kelib chiqish va rivojlanish tarixini chuqur o'rganish lozim. Ayniqsa, yangi soliqlar joriy qilinishi ilmiy asoslanishi kerak. Bunda yirik amaliyotchi mutaxassislar va olimlar o'rtasida erkin bahslashuv asosida biror qarorga kelish zarur. Bu yerda hech qachon bir sohaning mutaxassislari fikri bilangina chegaralanib qolmaslik kerak, chunki ular o'z manfaatlarini ko'proq ko'zlab, umumdavlat manfaatlarini ko'ra olmasliklari mumkin.

Demak, davlat soliq siyosatini tayyorlovchi va uni to'liq hayotga tadbiiq qilishning tashkilotchilik va boshqaruvchilik rolini bajaradi. Davlatning soliq siyosatini faol yuritish bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli o'tish va uning munosabatlarini har tomonlama rivojlantirishning muhim omilidir.

#### **4. Soliq siyosatining makroiqtisodiy samarasi**

Iqtisodiyotning samarali rivojlanishi ko'p darajada davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu tufayli ham O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish xususiyatlaridan biri davlatning iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori va bosh islohotchisi qilib belgilanganidir.

Bozor munosabatlariga o'tishning qiyin davrida aholining manfaatlarini faqat kuchli qayta taqsimlash vositasiga ega bo'lgan davlatgina himoya qilishga qodirdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki yillaridanoq davlat iqtisodiyotni tartibga solishda soliqlardan ushbu konsepsiyaga asoslangan holda foydalanib kelmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, boshqa ko'pgina omillar bilan bir qatorda, unga nisbatan yurgizilayotgan soliq siyosatiga ham bevosita bog'liqdir. Davlat soliq siyosatini ishlab chiqib va uni hayotga tatbiq etib, iqtisodiy rivojlanishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan davlat soliq siyosati orqali makroiqtisodiy samaradorlikka erishishi mumkin.

Soliq siyosatini amalga oshirishda xizmat qiladigan soliq dastklari (imtiyozlar, stavkalar, soliqqa tortiladigan bazani shakllanishi va boshqalar) kuchli ta'sir etuvchi va qiyin boshqariladigan soliq qurollaridir. Masalan, soliq to'lovchilarga keng soliq imtiyozlarini berish byudjetning daromadlarini shakllantirish nuqtai nazaridan butunlay teskari oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Boshqa tomondan esa, soliq imtiyozlarining har tomonlama bekor qilinishi tadbirkorlik faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va korxonalarining ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish sohalariga kapital qo'yilmalarning sezilarli kamayishiga sabab bo'ladi. Buning oqibatida ba'zi tarmoqlardagi mavjud muvozanat buziladi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yurgizilayotgan iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati mustaqil ravishda yurgizilayotgan soliq siyosati hisoblanib, uning markaziy vazifalaridan biri sifatida respublikamizda bozor munosabatlarini qaror toptirish va uni rivojlantirishga xizmat ko'rsatish qaralmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik muhitini yaratish va uni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etganligi uchun soliq siyosati ham bizning respublikamizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi, shak-shubhasizdir.

Bir vaqtning o'zida puxta ishlab chiqilgan soliq siyosatining hayotga qanday tadbiriq etilishi shu siyosatni amalga oshirishda qo'llanilishi lozim bo'lgan soliq mexanizmiga uzviy bog'liqdir.

Soliq siyosatining makroiqtisodiy holatga ta'siri juda katta bo'lib, mamlakatda yaratiladigan yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning o'zgarishi soliq siyosatining samarasiga bevosita bog'liqdir. Soliq siyosatining makroiqtisodiy holatga ta'sirini soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga, investision muhitga, iste'molga, iqtisodiy barqarorlikka ta'siri kabilar bilan baholash mumkin.

Soliq siyosatini amalga oshirishda muhim bir mezon bo'lib soliq stavkalari hisoblanadi.

Soliq stavkalarining o'zgartirilishi bevosita talablar yig'indisiga ta'sir qiladi. Iste'molning ham, investisiyalarning ham hajmi soliqlarning katta-kichikligiga bog'liq bo'ladi. Masalan, byudjetga soliq tushumi kamayib, davlat xarajatlari avvalgicha qolgan paytda iste'mol va investisiya xarajatlarining o'sishi rag'batlantiriladi.

Yalpi talab qanchalik ko'paygani bilan u iqtisodiyotni ishlab chiqarish imkoniyatlari (mavjud resurslar va texnologiyalarning shartli miqdori va sifati) doirasidan tashqariga «surib qo'yishga» qodir bo'lmaydi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasiga yaqinlashganda yig'ma talabning o'sishi asosan real ishlab chiqarishning emas, balki narxlarning ko'tarilishi hisobiga ro'y beradi. Binobarin, rag'batlantiruvchi soliq-byudjet siyosati iqtisodiyot pasayish vaziyatida bo'lgandagina chinakam ijobiy samara beradi. Soliq siyosati olib borilayotganda qisib chiqarish deb ataladigan vaziyat bilan to'qnashuv ro'y beradi. Masalan, davlat xarajatlari o'zgarmay turgan sharoitda soliq tushumlari kamaydi (yoki aksincha, davlat xarajatlari ko'payib, soliq tushumlari esa avvalgi darajasida qoldi). Davlat xarajatlari va daromadlari o'rtasidagi farqning ortishini (byudjet kamomadining o'sishini) davlat qarzlari hisobiga qoplashga majbur. Bunda davlat obligatsiyalar chiqarishi mumkin, bu obligatsiyalarning sotilishi moliya bozori mablag'laridan foydalanish imkonini beradi. Bunday sa'y-harakat moliya bozorida milliy jamg'armalar taklifi kamayishiga olib keladi. Natijada foiz stavkalari ko'tariladi va xususiy investisiyalar hajmi tushib ketadi. Biz ko'rgan holatda soliqlarning kamayishi tufayli kelib chiqqan byudjet kamomadining o'sishi xususiy investisiyalarni «surib chiqaradi»ki, buning natijasi o'laroq, yalpi talab darajasi o'zgarmay qoladi. Binobarin, qisqa muddat ichida surib chiqarish samarasi amal qilmaydi yoki sezilmaydigan darajada ro'y beradi: moliya bozori takomillashmagani (korxonalar kapital mablag' sarflash uchun pul oladigan kredit haqidagi bitimlar ilgari tuzib qo'yilgani) sababli investisiyalar va jamg'armalar uzoq istiqboldagina tenglashadi.

Soliq siyosatining samaradorligi sof eksport samarasi bilan cheklanadi. Biz aniqlaganimizdek, soliqlarning kamaytirilishi milliy jamg'armalar miqdorini kichraytiradi hamda ichki foiz stavkalarini kattalashtiradi. Bunday vaziyat oqibatda faqat ichki (milliy) investisiyalarning qisqarishigagina emas, balki mamlakatga chet el kapitalining oqib kirishi tezlashishiga ham olib keladi. Mazkur holatda xorij investisiyalari o'sib borayotgan ichki foizli stavkalar bilan rag'batlantiriladi. Chet el kapitalining oqib kelishi milliy valyutaga talabni oshiradi. Natijada valyuta kursi ko'tariladi, sof eksport miqdori qisqaradi. Valyuta kursi ko'tarilganida milliy tovarlar jahon bozorida ancha qimmatlashadi, xorij tovarlari esa ichki bozorda arzonlashadi. Shunday qilib, soliqlarni kamaytirish tufayli jamiyat xarajatlarining kengayib ketishi eksportning qisqarishi va importning o'sishi bilan bog'liq yalpi talabning pasayishi hisobidan qisman tekislanadi. Bunday samara qayd etilgan valyuta kurslari sharoitida amal qilmaydi: soliqlar kamaytirilganida valyuta kursi avvalgi darajasida qoladi hamda sof eksport tegishli ravishda o'zgarmaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, rag'batlantiruvchi soliq siyosati faqat qisqa muddatli turkumiy tebranishlar oqibati bo'lgan iqtisodiy pasayish sharoitida, faqat qayd etilgan valyuta kurslari paytida sezilarli makroiqtisodiy samara beradi. Vaqtning uzoq oraliqlarida esa u ta'sirli bo'lmaydi.

Endi soliqlarni qisqartirish oqibatlarini yalpi taklifga ta'sirini ko'rib chiqaylik. Mazkur tadbirning samarasi shundan iboratki, bunda taklifning egri chizig'i o'ngga qarab siljiydi - soliqlarning pasaytirilishi xarajatlarning qisqarishini (bu holat tadbirkorlarni ishlab chiqarishni kengaytirishga rag'batlantiradi) hamda «sof» ish haqining o'sishini (bu holat esa yollanma xodimlarni mehnat taklifini ko'paytirishga rag'batlantiradi) anglatadi. Bunda (soliqlarning kamaytirilishi oqibatida) yalpi talab odatda yalpi taklifga nisbatan ko'proq o'sib boradi. Shuning uchun ham ishlab chiqarishning kengayishi bilan bir qatorda narxlarning umumiy darajasi ko'tarilishi kuzatiladi.

Biroq yig'ma taklif darajasining o'zgarishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Shuning uchun ham makroiqtisodiy barqarorlik maqsadiga erishish uchun davlat eng avvalo yalpi taklifga emas, balki yalpi talabga ta'sir ko'rsatishga intiladi. Buning ustiga, hozirgi zamon iqtisodchilarining aksariyati hisoblashicha, makroiqtisodiy beqarorlik (iqtisodiy turkumlar) asosan yig'ma talab beqarorligining oqibatidir. Masalan, iqtisodiyot yalpi talabning salbiy o'zgarishi ta'siri tufayli pasayish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bunday holatda davlat jamiyatning yig'ma xarajatlarini soliqlarni kamaytirish va davlat xarajatlarini kengaytirish vositasida rag'batlantirishga intiladi. Agar hukumat iqtisodiyotning «zo'riqishi»dan xavotirlansa yoki pulning qadrsizlanish sur'atlarini sekinlashtirishni istasa, u holda o'zining moliya siyosatini qattiq olib borishda soliqlarni oshirishi va davlat xarajatlarini qisqartirishi lozim bo'ladi.

### **Nazorat savollari**

1. Soliq tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Soliq tizimi tarkibiga nimalar kiradi?
3. Umumdavlat soliqlari tarkibiga qaysi soliqlar kiradi?
4. Mahalliy soliqlar tarkibiga qaysi soliqlar kiradi?
5. Byudjetdan jamg'armalarni sanab bering.
6. Yagona ijtimoiy to'lov qaysi jamg'armalar o'rtasida taqsimlanadi?
7. Soliqlarni umumdavlat va mahalliy soliqlarga ajratishning sababi nimada?
8. Soliqlarni guruhlash deganda nimani tushunasiz?
9. Soliqlar qanday guruhlarga bo'linadi?
10. Soliqqa tortish ob'yektiga qarab soliqlar qanday guruhlanadi?
11. Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar qanday guruhlanadi?
12. Oborotdan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
13. Daromaddan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
14. Mol-mulk va yer maydonidan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
15. To'g'ri soliq deganda nimani tushunasiz?
16. To'g'ri soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi?
17. Egri soliq deganda nimani tushunasiz?

18. Egri soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi?
19. Egri soliqlarning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsating.
20. Davlat soliq siyosati nimani bildiradi?
21. Soliq strategiyasi nima?
22. Soliq taktikasi nima?
23. Soliq konsepsiyasi nima?
24. Soliq siyosati yo'nalishlarini izohlab bering.
25. Soliq siyosatining makroiqtisodiy samarasini tushuntirib bering.



## **9-MAVZU. YURIDIK SHAXSLAR TO'LAYDIGAN SOLIQLAR VA YIG'IMLAR**

### **Reja**

1. Yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar va yig'imlar
2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i
3. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi
4. Qo'shilgan qiymat solig'i
5. Aksiz solig'i
6. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i
7. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i
8. Yer qanidan foydalanganlik uchun soliq
9. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
10. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq

### **Tayanch iboralar**

Yuridik shaxs, mol-mulk solig'i, yer solig'i, foyda solig'i, aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, rezidentlar, norezidentlar, yalpi daromad, yalpi tushum

#### **1. Yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar va yig'imlar**


Soliq tizimidagi mavjud soliqlar va xususan, yuqori darajadagi fiskal ahamiyat kasb etuvchi soliqlar yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar hisoblanadi.

#### ***Yuridik shaxs deb quyidagilar e'tirof etiladi:***

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda davog'ar va javobgar bo'la oladigan tashkilot;

chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan hamda O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'lgan xorijiy va (yoki) xalqaro tashkilot.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida belgilangan soliqlar va majburiy to'lovlarning aksariyati yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va majburiy to'lovlarni tashkil etadi. Buni quyidagi (9.1- chizma) ma'lumotlar orqali ko'rishimiz mumkin.



**9.1-chizma. Yuridik shahslar to'laydigan soliqlar va majburiy to'lovlar**

Ushbu chizmadan ko'rinib turibdiki, soliq tizimida mavjud bilvosita va bevosita soliqlarning aksariyati yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar hisoblanadi. Shuningdek, Respublika byudjeti daromadlarini tashkil qiluvchi soliqlar bilan birga mahalliy byudjetlarning daromad manbai hisoblanuvchi soliqlarning asosiy qismi yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarni tashkil qiladi.

## **2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i**

1995 yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarining foydasidan olinadigan soliq joriy etildi.

2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

2002 yilda ushbu soliq stavkasi 24 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilga kelib 9 foizga teng bo'lgan. Daromadning ko'p qismi korxonalar ixtiyorida qolishi ularning investision faolligini oshiradi, yangi ishchi o'rinlar ochish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish hamda ish va xizmatlar ko'rsatish uchun yanada keng moliyaviy imkoniyat yaratadi.

**Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.** Soliq kodeksiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan *foyda solig'i to'lovchilari* bo'lib moliya yilida soliqqa tortiladigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Ammo soliq solishning alohida tartibiga o'tgan korxonalar, jumladan, yagona soliq to'loviga o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish tashkilotlari, yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovari ishlab chiqaruvchilar bu soliqni to'lovchisi hisoblanishmaydi. Ular o'zlari uchun ixchamlashtirilgan soliqni to'laydilar. Bulardan tashqari tadbirkorlik faoliyatining faqat alohida turlariga qat'iy stavkada soliq to'lovchilar ham bu soliq to'lovchilari hisoblanishmaydi.

Soliq solish maqsadida foydaga soliq to'lovchilar rezidentlar va norezidentlarga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan hamda bosh korxonasi O'zbekistonda joylashib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekistonda va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan daromadlaridan foyda solig'iga tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari esa faqat O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishdan olgan daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar.

Rezidentlar doimiy faoliyat ko'rsatuvchilar bo'lsa, norezidentlar faoliyati respublikada vaqtinchalik xarakterga ega bo'ladi.

Soliq kodeksining 127-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan *foyda solig'ining ob'yekti* bo'lib O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va norezidentlarining foydasi hamda rezident va norezidentlarning chegirmalar qilinmagan qolda to'lov manbaidan soliq solinadigan daromadlari hisoblanadi.

*Soliq solinadigan baza* esa jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida, belgilangan imtiyozlarni hamda soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summalari inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi (Soliq kodeksining 128-moddasi).

**Jami daromadlar tarkibi.** Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat haqlari kabi pullik va bepul (pulsiz), qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'larni kiritish mumkin.

*Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:* (Soliq kodeksining 129-moddasi)

- tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olinadigan daromadlar;
- boshqa daromadlar. (Soliq kodeksining 132-moddasi)

O'zbekiston Respublikasidagi to'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar jami daromaddan chegirib tashlanadi.

**Jami daromaddan chegirmalar.** Soliq to'lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi. Xarajatlar haqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegiriladi.

Soliq kodeksiga ko'ra (141-modda) xarajatlar chegiriladigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi.

**Soliq stavkalari.** Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i stavkalari har yili Vazirlar Mahkamasining yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va prognozi Davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 1998 yilda 36 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2001 yilda 26 foizga tushgan, 2002 yilda esa 24 foiz, 2003 yilda 20 foiz, 2004 yilda 18 foiz, 2005 yilda 15 foiz, 2006 yilda 12 foiz, 2007 yilda 10 foiz va 2010 yilda 9 foiz qilib belgilangan.

**Soliq imtiyozlari.** *Soliq kodeksining 158-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:*

• nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assosiasiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941 -1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minlash-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqini belgilayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda turgan xodimlar kiritiladi;

- davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari;
- jazoni ijro etish muassasalari;

- ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

*Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:*

- protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek, nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi;

- shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdai olingan foydasi;

- tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

- investisiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan foydasi;

- Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi;

- to'liq amortizasiya qilingan asosiy vositalarni realizasiya qilishdan yoki tugatishdan olingan foydasi.

Ishlovchilari umumiy sonining 3 foizidan ko'prog'ini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi ushbu qismda belgilangan normadan ortiq ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi bir foiz kamaytiriladigan hisob-kitob asosida kamaytiriladi.

*Soliq Kodeksining 159-moddasiga ko'ra yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:*

- ekologiya, sog'lomlashtirish va hayriya jamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning bir foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlar, akademik liseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya ta'lim muassasalari qurilishiga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

- ishlab chiqarishni modernizasiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihoz xarid qilishga, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga, lizing ob'yekti qiymatining o'rnini qoplashga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizasiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

- yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

- diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), hayriya jamg'armalarining mulkida bo'lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg'armalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan ajratmalari summasiga;

- qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar uchun sof qo'shimcha foyda summasiga.

**Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni byudjetga to'lash muddatlari.** Yuridik shaxslar ortib boruvchi yakun bilan chiqarilgan foyda solig'i bo'yicha soliq hisobini ro'yxatdan o'tgan joydagi soliq idoralariga yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25 kundan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etadilar.

Yilning hisobot choragida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydasi eng kam ish haqining 200 barobaridan ko'proq miqdorni tashkil etadigan yuridik shaxslar foyda solig'i bo'yicha joriy avans (bo'nak) to'lovlarini har oyning 15-kunida yilning choragi bo'yicha taxmin qilinayotgan soliq solinadig'an foydaga nisbatan hisoblab chiqilgan foyda solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'laydi.

Yuridik shaxslar avans to'lovlar summasini hisoblab chiqarish uchun yilning joriy choragi birinchi oyining 5-kunigacha ro'yxatdan o'tgan joydagi soliq organiga yilning tegishli choragida taxmin qilinayotgan foyda hamda belgilangan foyda solig'i stavkasi asosida ma'lumotnoma taqdim etadilar.

Joriy to'lovlar belgilang'an muddatlargacha byudjetga to'lanmasa, ularga nisbatan soliq qonunchiligida ko'zda tutilgan har bir kechiktirilgan kun uchun hisoblangan soliq summasiga nisbatan 0,05 foiz miqdorida penya qo'llaniladi.

Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydasi eng kam ish haqining 200 barobaridan kam bo'lgan yuridik shaxslar chorakda bir marta foyda solig'ini to'laydilar. Ular joriy avans to'lovlarini amalga oshirmaydilar. Oldingi choraklarda to'langan soliqlar hisobga olib boriladi.

### **3. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi «Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida»gi 159-son qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliq solishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi.

**Yagona soliq to'lovi.** Mikrofirmalar va kichik korxonalarni jadal rivojlantirishni yanada rag'batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati va ulushini tubdan oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3620-sonli Farmoniga muvofiq 2005 yilning 1 iyuldan boshlab O'zbekiston soliq tizimida kichik biznes sub'yektlarining ba'zi toifalari uchun yagona soliq to'lovi joriy qilindi.

***Yagona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:***

- mikrofirmalar va kichik korxonalar;
- xodimlarning sonidan qat'i nazar:  
savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;  
lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar;
- oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yakka tartibdagi tadbirkor.

***Soliq solish ob'yekti*** bo'lib yalpi tushum hisoblanadi.

***Yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:***

1. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda (qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar uchun) realizasiya qilishdan tushgan tushum.
2. Soliq Kodeksining 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlar.

***Quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir:***

- davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;
- to'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;
- dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar;
- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;
- ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizasiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;
- mahsulot yetkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar;
- to'liq amortizasiya qilingan asosiy vositalarni realizasiya qilishdan yoki tugatishdan olingan daromadlar.

***Soliq solinadigan baza chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:***

- avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari uchun:  
jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga;

benzin, dizel yoqilg'isi va gazning avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalarining belgilangan eng yuqori ustamadan oshadigan chakana narxi bilan olish narxi o'rtasidagi mahalliy byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan farq summasiga;

- lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun - yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo'lmagan miqdoriga;

- brokerlik tashkilotlari uchun - bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

- vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun - realizasiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga.

*Hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan baza quyidagilarga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi:*

- yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob-uskunalarni foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab besh yil mobaynida amalga oshiriladi;

- yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 10 foiziga.

**Soliq imtiyozlari.** Yagona soliq to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assosiasiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorga kamaytiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar yagona soliq to'lovi summasini qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga ortib boruvchi yakun bilan:



mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan korxonalar tomonidan - har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to'lovini to'lash hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

**Yagona yer solig'i.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi PF-2086-sonli Farmoniga muvofiq 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i joriy etildi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ining joriy etilishi o'z navbatida ularni foyda solig'i; qo'shilgan qiymat solig'i; ekologiya solig'i (amalda bo'lgan); suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; yer solig'i; yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq; mol-mulk solig'i; obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hamda boshqa mahalliy soliqlar va yig'implarni to'lashdan ozod qildi. Shu bilan birga yagona yer solig'i to'lovchilari uchun bojxona to'lovlari, davlat boji, lisenziya yig'implari, byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar, shuningdek aksiz to'lanadigan mahsulotlarga aksiz solig'ini to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolindi.

O'zbekistonda yagona yer solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari mehnatining pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish hamda qishloq xo'jalik korxonalariga soliq solish tizimini soddalashtirishdan iboratdir.

Ushbu soliqning amaliyotga joriy etilishi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z tasarrufidagi yerlardan yanada oqilona foydalanishga da'vat etadi, chunki har bir gektar yer maydoni uchun undan daromad olish yoki daromad olmaslik holatidan qat'i nazar belgilangan miqdordagi soliq summasini to'lash lozim bo'ladi.

***Yagona yer solig'ini to'lovchilar quyidagilardir:***

- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar;
- qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

***Quyidagilar yagona yer solig'ini to'lovchilar sifatida qaralmaydi:***

- o'rmon va ovchilik xo'jaliklari;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Yer uchastkalari ijaraga (shu jumladan ichki xo'jalik pudratiga) berilganida yagona yer solig'ini to'lash majburiyati ijaraga beruvchining zimmasida saqlanib qoladi.

*Soliq solish ob'yekti* bo'lib qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi hisoblanadi.

*Soliq solinadigan baza* bo'lib soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati hisoblanadi.

*Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:*

- yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan boshlab ikki yil muddatga. Mazkur imtiyoz tugatilgan fermer xo'jaliklari bazasida tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga tatbiq etilmaydi;

- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'yektlari - yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

Yagona yer solig'i summasi yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

*Yagona yer solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:*

- hisobot yilining 1 iyuligacha - yillik soliq summasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1 sentyabrigacha - yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1 dekabrigacha - soliqning qolgan summasi.

**Qat'iy belgilangan soliq.** *Qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar quyidagilardir:*

- faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro'yxati, shuningdek faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

*Soliq solinadigan ob'yekt* bo'lib qat'iy belgilangan soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich hisoblanadi.

*Soliq solinadigan baza* fizik ko'rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qat'iy belgilangan soliq summasi soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- yangi tashkil qilinayotgan (boshlovchi) soliq to'lovchilar tomonidan - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay;
- faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan - hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Soliq solish ob'yekti va ish haqining eng kam miqdori o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lovni to'lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash:

- yuridik shaxslar tomonidan - har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - Soliq Kodeks 375-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

#### **4. Qo'shilgan qiymat solig'i**

##### **Qo'shilgan qiymat solig'i, uning iqtisodiy mohiyati va joriy qilinishi.**

*Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra*, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xom ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi.

*Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mazmuni va xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:*

- ushbu soliq turi bilvosita soliqlar turkumiga kiradi, ya'ni soliq yuki iste'molchilarga tushadi. Shuning uchun ham, mazkur soliq yukinining o'sishi iste'mol xarajatlarini ortishiga va inflyasiyani kuchayishiga olib kelishi mumkin. Xususan, ushbu soliq iste'moldan olinadigan soliq hisoblanadi.

- ushbu soliq soliq tizimida faol tartibga soluvchi soliq hisoblanadi, ya'ni me'yoriy ajratmalar orqali mahalliy byudjetlarni daromad va xarajatlarini tartibga solishda faol foydalaniladi;

- qo'shilgan qiymat solig'i har bir aylanma bosqichida undiriladigan soliqdir;

- qo'shilgan qiymat solig'i tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishdagi muhim davlatning moliyaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i 1992 yildan buyon amal qilmoqda.

**Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti.** *Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar quyidagilardir:*

- soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;
- zimmasiga O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;
- tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno;
- oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs.

*Quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar hisoblanmaydi:*

- notijorat tashkilotlar, bundan tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizasiya qilish oborotlari;
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

*Soliq solish ob'yekti quyidagilardir:*

- soliq solinadigan oborot;
- soliq solinadigan import.

*Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizasiya qilish oboroti deb quyidagilar e'tirof etiladi:*

• mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

• bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga, agar tarkibiy bo'linmalar mustaqil soliq to'lovchilar bo'lsa, mol-mulkni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

• mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan lizingga) berish;

• to'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan tovarni jo'natish;

• mol-mulkni operativ ijaraga berish;

• intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish;

• yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda xarajatlari chegirilmaydigan soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

Soliq to'lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizasiya qilish oboroti soliq solinadigan oborotdir.

*Soliq to'lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) quyidagi realizasiya qilish oborotlari soliq solinmaydigan oborotdir:*

- Soliq Kodeksining 208, 209 va 210-moddalariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborot;
- realizasiya qilingan joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lmagan oborot.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir (Soliq Kodeksining 211-moddasiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar bundan mustasno).

**Soliq stavkalari va soliq imtiyozlari.** O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1992 yilda 30 foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir necha marta o'zgartirildi. Jumladan, 1996 yilda 17 foizli, 1997 yilda 18 foizli, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari turlariga (un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999 yilda respublikada qo'shilgan qiymat solig'ining 3 xil stavkasi (20%, 15% va 0%) amalda qo'llanildi. 2000 yildan hozirgi kungacha Soliq Kodeksiga ko'ra respublikamizda 20 foizli va nol darajali stavka qo'llanilib kelmoqda. Umuman olganda nol darajali stavka deganda korxonalar ishlab chiqarayotgan tovarlarning (bajarilgan ish, xizmatlarning) qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanilmaydi, ya'ni «nol» ga teng bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha boshqa soliq turlariga nisbatan ko'proq imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, ular Soliq Kodeksida to'rt guruhga bo'lib berilgan. Ular:

- soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti (208-modda);
- solikdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar (209-modda);
- soliqdan ozod etiladigan sug'urta xizmatlari (210-modda);
- soliqdan ozod etiladigan import (211-modda).

**Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.** Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Tovarlar import qilish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobda turgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

- qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqa-fakturalar reyestrini taqdim etadi. Hisobvaraqa-fakturalar reyestrining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lash qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

## 5. Aksiz solig'i

**Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati. Soliq to'lovchilar.** O'zbekistonda aksiz solig'i 1992 yilda qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda joriy qilingan. Aksiz solig'i individual xarakterga ega bo'lib, faqat aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

Aksiz solig'i qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri (bilvosita) soliq sifatida byudjetga undirish shakli hisoblanadi.

Aksiz solig'i respublika byudjetining daromadlar qismiga to'liq kelib tushadi va uning soliq yuki iste'molchilar zimmasida bo'ladi.

*Aksiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir:*

- O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;
- O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;
- oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).

Aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan aksiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.

**Soliq solish ob'yekti va bazasi.** *Quyidagi operatsiyalar aksiz solig'i solinadigan ob'yektdir:*

- aksiz to'lanadigan tovarlarni realizasiya qilish;
- aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;
- aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnoma ishtirokchilari umumiy mulkidagi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

- aksiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek ulush qo'shish asosida xom ashyo va materiallarni, shu jumladan, aksiz to'lanadigan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

- ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;

- aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

*Soliq solish bazasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:*

- Aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

- Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

- Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

- Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

- Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

*Soliq solinadigan bazaga quyidagi hollarda soliq to'lovchida tuzatish kiritiladi:*

- tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- bitim shartlari o'zgartirilganda;
- baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda.

Soliq solinadigan bazaga tuzatishni kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

**Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati, aksiz solig'i stavkalari va soliqlardan chegirma.** Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

Aksiz solig'i stavkalari tovarning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor) va (yoki) naturada ifodalangan o'lchov birligiga mutlaq summada (qat'iy) belgilanadi.

Hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ining summasi Soliq Kodeksining 237-moddasida belgilangan chegirma summasiga kamaytiriladi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar olinayotganda yoki O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinayotganda, agar mazkur tovarlardan keyinchalik aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida foydalanilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida to'langan aksiz solig'i summasi chegirib tashlanadi.

Aksiz to'lanadigan tovar (xom ashyo) yetkazib beruvchilar mazkur tovar (xom ashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasini hisobvaraqa-fakturada ajratib ko'rsatishlari kerak. Olinayotgan aksiz to'lanadigan tovar (xom ashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasi hisobvaraqa-fakturada ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa, aksiz solig'ining mazkur summasi chegirib tashlanmaydi.

Chegirma soliq davrida realizasiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlar hajmiga to'g'ri keladigan aksiz to'lanadigan tovar (xom ashyo) hajmidan kelib chiqqan holda aniqlangan aksiz solig'ining hisobvaraqa-fakturada yoki bojxona yuk deklarasiyasida ko'rsatilgan summasiga nisbatan amalga oshiriladi.

Ushbu qoidalar qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan aksiz to'lanadigan tovarlar topshirilayotganda ham qayta ishlashga berilgan aksiz to'lanadigan xom ashyo va materiallarning mulkdori aksiz solig'i to'laganligini tasdiqlashi sharti bilan qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

**Aksiz solig'ini to'lash va hisob-kitobni taqdim etish tartibi.** Aksiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- aksiz solig'i to'lovchilar bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Aksiz solig'i summasi byudjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay - joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;
- joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay - joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;
- kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay - hisobot oyining qolgan kunlari uchun.



Import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

## **6. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i**

**Mol-mulk solig'ining joriy qilinishi va uning iqtisodiy mohiyati. Mol-mulk solig'i to'lovchilar, soliq solish ob'yekti.** Mol-mulk solig'i O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi Qonuniga asosan joriy etildi.

Mol-mulk solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad, birinchidan, korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg'otish bo'lsa, ikkinchidan, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirishdan iboratdir.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to'lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalardan qutulishga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi.

*Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar quyidagilardir:*

- O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

- agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining norezidentlaridir. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, shu shaxs soliq to'lovchidir. O'zbekiston Respublikasi norezidentining faoliyati Soliq Kodeksining 20-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa orqali amalga oshiriladigan faoliyat deb e'tirof etiladi.

*Quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar bo'lmaydi:*

- notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, ushbu bo'limda nazarda tutilgan tartibda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilardir;

- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

*Quyidagi mol-mulk soliq solish ob'yektidir:*

- asosiy vositalar, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar;

- nomoddiy aktivlar;
- tugallanmagan qurilish ob`yektlari;
- belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar.

*O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun quyidagilar soliq solish ob`yektidir:*

- O'zbekiston Respublikasining norezidentlari buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq qaysi asosiy vositalar bo'yicha hisob yuritayotgan bo'lsa, o'sha asosiy vositalar;

- ushbu doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, mazkur norezidentlarga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk soliq solish ob`yektidir. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan mulk qilib olingan (realizatsiya qilingan) ko'chmas mulk ob`yekti to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu ob`yektlar joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan yer uchastkalari va (yoki) nomoddiy aktivlar tarkibida hisobga olinadigan ulardan foydalanish huquqi soliq solish ob`yekti sifatida qaralmaydi.

**Soliq solinadigan baza va uni belgilash tartibi.** *Soliq solinadigan baza quyidagilardir:*

- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha - asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi;

- normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish ob`yektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha - tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk ob`yektlariga nisbatan ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati soliq solinadigan bazadir.

Soliq solish ob`yektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob`yektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk ob`yektlari bo'yicha soliq solinadigan baza mazkur ob`yektlarga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

**Mol-mulk solig'i stavkalari, soliq imtiyozlari.** Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkalari har yili keyingi moliya yili uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi 3,5 foiz miqdorida belgilangan.

*Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi:*

- uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'yektlarining. Uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'yektlariga quyidagilar kiradi: uy-joy fondi, vodoprovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizasiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan asbob-uskunalar);

- madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha ob'yektlarining;

- Yuridik shaxslarning madaniyat muassasalari, maktabgacha va umumta'lim o'quv muassasalari ehtiyojlari uchun foydalaniladigan mol-mulkining;

- qishloq xo'jaligi (o'simlikshunoslik, chorvachilik, baliqchilik) mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalarida balansida bo'lgan mol-mulkning;

- sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari ob'yektlarining;

- aloqa yo'ldoshlarining;

- tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'yektlarning;

- umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek, ushbu ob'yektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;

- konservasiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

- lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga;

- soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'yektlarning;

- shahar va shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan shahar yo'lovchilar transporti tashkilotlari transport vositalarining (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poyezdlari);

- tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo'yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan asbob-uskunalarining (foydalanish davriga);

- telekommunikasiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarining;

- ishlab chiqarishga yangi joriy yetilgan yangi texnologik jihozlarning, besh yillik muddatga. Yangi texnologik jihozlar olingan (import qilingan) paytdan e`tiboran uch yil ichida realizasiya qilingan yoki bepul berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi mol-mulk solig`ini to`lash majburiyatlari imtiyoz qo`llaniladigan butun davr uchun tiklangan holda, bekor qilinadi.

*Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:*

- sog`liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta`minot, xalq ta`limi, madaniyat va san`at tashkilotlari;

- uy-joy-kommunal xo`jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo`jaligi korxonalari. Uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo`jaliklari jumlasiga uy-joy fondini bevosita boshqarish, saqlash hamda undan foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanitariya tozalash va yig`ishtirish, obodonlashtirish va ko`kalamzorlashtirish, shaharlar hamda shaharchalarni tashqi yoritish, vodoprovod suv olish inshootlaridan, taqsimlanadigan tarmoqlardan (tozalovchi inshootlari bilan) foydalanish va suvni taqsimlash, kanalizasiya tarmoqlaridan foydalanish (tozalash inshootlari bilan), gaz taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish hamda gazni taqsimlash, qozonxona, issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va kommunal-maishiy ehtiyojlarga hamda aholiga issiqlikni taqsimlashni bevosita amalga oshiruvchi tashkilotlar, xizmat binolarining xo`jalik boshqarmalari, o`t o`chirish komandalari, uy-joy-kommunal xo`jaligining xo`jalik boshqarmalari, uy-joy-kommunal xo`jaligi va shahar xo`jaligining umumfuqaroviy ahamiyatga molik boshqa korxonalari kiradi;

- nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg`armasi va "O`zbekiston chernobilchilari" assosiasiyasi mulkida bo`lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta`minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug`ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo`lgan xodimlar kiritiladi;

- yangi tashkil etilgan korxonalar - davlat ro`yxatidan o`tkazilgan paytdan e`tiboran ikki yil mobaynida;

- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub`yektlarini - yuridik shaxslarni davlat ro`yxatidan o`tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to`g`risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e`tiboran.

**Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to`lash tartibi.** Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to`lovchi - O`zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar har oyda joriy to'lovlarni to'laydilar, mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno. Joriy to'lovlar summasi tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatdan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida belgilanadi. Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga belgilangan shakldagi ma'lumotnomani joriy yilning 20 yanvarigacha taqdim etadi.

Byudjetga joriy to'lovlarni to'lash har oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaning soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solinadigan mavjud mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotnomani hisobot yilidan keyingi yilning 25 yanvaridan kechiktirmay taqdim etishi shart. Taqdim etilgan ma'lumotnoma asosida davlat soliq xizmati organi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitobini o'n kun ichida amalga oshiradi va to'lov xabarnomasini yozadi.

O'zbekiston Respublikasining ko'chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasining ko'chmas mulkka ega bo'lgan norezidentlariga soliq to'lovchidan yoki ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organdan olingan ma'lumotlar asosida to'lov xabarnomasini yozadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta solih hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmasdan to'lanishi kerak.

## **7. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i**

**Yer solig'ining iqtisodiy mohiyati. Soliq to'lovchilar.** Yer solig'i o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir, ya'ni ushbu soliq yer egalari va yerdan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas. Ushbu soliqning joriy etilishidan maqsad – yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy–iqtisodiy shart–sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infratuzilma rivojlanishini ta'minlash hamda yerning talon–taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilaridir.

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi yer solig'ini to'lovchi bo'ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir.

*Quyidagilar yer solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi:*

- notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan taqdirda, notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan yer uchastkalari bo'yicha yer solig'i to'lovchilar bo'ladi;
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

**Soliq solish ob'yekti, soliq solinadigan baza.** Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish ob'yektidir.

*Quyidagilarga soliq solish ob'yekti sifatida qaralmaydi:*

- aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar);
- aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog'lar, sayilgozlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);
- kommunal-maishiy yerlar (qabristonlar, chiqindilarni zararsizlantirish va ularni utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar);
- zaxira yerlar.

Yer uchastkasining soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir.

Qaysi yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, o'sha yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi (ko'paytiriladi).

**Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar.** *Yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:*

- madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari - o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun;

- nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assosiasiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

- yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran ikki yilga;

- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'yektlari - yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

**Soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.** Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yer solig'i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida to'lanadi.

**Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliq to'lash tartibi.** Yer solig'i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15 fevraliga qadar taqdim etiladi.

Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

Yer solig'ini to'lash yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan yer solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1 iyuliga qadar - yillik soliq summasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1 sentyabriga qadar - yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1 dekabriga qadar - soliqning qolgan summasi.

## **8. Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq**

**Soliq to'lovchilar.** O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 23 sentyabrdagi "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq 1995 yildan boshlab yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi va yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning hajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to'lay boshladilar.

Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq joriy etilishidan asosiy maqsad – umumdavlat mulki hisoblangan yer osti boyliklaridan oqilona tarzda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta`minlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.

*Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar quyidagilardir:*

- er qa`ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, shu jumladan, texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olayotgan yer qa`ridan foydalanuvchilar;
- foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa`ridan foydalanuvchilar.

**Soliq solish ob`yekti.** Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq solish ob`yektidir. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizasiya qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul berish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste`moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

Soliq solish ob`yekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.



**Soliq solinadigan baza.** Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o`rtacha olingan realizasiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Hisobot davri uchun o`rtacha olingan realizasiya qilish bahosi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo`yicha alohida, pulda ifodalangan realizasiya qilish hajmlarini (qo`shilgan qiymat solig`i va aksiz solig`ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizasiya qilish hajmiga bo`lish orqali aniqlanadi.

Hisobot davrida tayyor mahsulot realizasiya qilinmagan bo`lsa, soliq solinadigan baza realizasiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida tayyor mahsulotni realizasiya qilishning o`rtacha olingan bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tayyor mahsulot umuman realizasiya qilinmagan taqdirda, soliq solinadigan baza hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni kavlab olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to`lovchi realizasiya qilish amalga oshirilgan o`sha hisobot davrida hisoblangan yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida tarkib topgan o`rtacha olingan bahodan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Tayyor mahsulot tannarxidan past bahoda realizasiya qilingan yoki topshirilgan taqdirda o`rtacha olingan bahoni hisob-kitob qilish uchun tannarx qabul qilinadi, lekin u deklarasiya qilinayotgan baholardan yuqori bo`lmasligi kerak.

Tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo`lgan yoki tayyor mahsulot (qayta ishlab hosil qilingan mahsulot) o`zining ishlab chiqarish yoki xo`jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

**Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to`lash tartibi.** Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo`yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to`lovchilar tomonidan - har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;
- jismoniy shaxslar tomonidan - yilda bir marta, keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

## 9. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

**Soliq to'lovchilar.** O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra 1998 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi.

O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilardir.

**Soliq solish ob'yekti, soliq solinadigan baza.** Yer usti va yer osti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslari soliq solish ob'yekti hisoblanadi.

Yer usti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omborlari, yer yuzasidagi boshqa havzalar va suv manbalari, turli xil kanal va hovuzlar kiradi.

Yer osti manbalariga artezian quduqlar va skvajinalar, vertikal va gorizontol zovur tarmog'i kiradi.

Foydalanilgan suv resurslarining hajmi soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suv o'lchagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suvdan foydalanish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadilar.

Soliq imtiyozlari. *Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:*

- nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assosiasiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

- suv uchun byudjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

- birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari;

- ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar – tadbirkorlik sub'yektlari – yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

*Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:*

- sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari hajmiga, bundan savdo tarmog'ida realizasiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

- dori vositalarini tayyorlash uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

- atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmiga, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi bundan mustasno;

- shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qatriga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

- gidroelektr stansiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

**Soliqni hisoblab chiqarish tartibi va to'lash muddatlari.** Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqning umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jaligi korxonalari, mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno) - har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqning umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida, yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

- yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan - yilda bir marta hisobot davrining 15 dekabrigacha;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - yilning har choragida yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisobot davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashni to'lovchilar tomonidan suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari bundan mustasno.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar joriy yilning 15 yanvarigacha suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi yozma bildirishni belgilangan limitdan kelib chiqqan holda yoki suv yetkazib berish shartnomasiga muvofiq har oyda yoki yilning har choragida erkin shaklda taqdim etadilar, qishloq xo'jaligi korxonalarini bundan mustasno.

## **10. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq**

**Soliq to'lovchilar.** Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilardir.

Soliqqa tortishning alohida tartibi belgilangan yuridik shaxslar asosiy faoliyat turi bo'yicha bu soliqni to'lamaydilar, ular faoliyatning boshqa turlari bilan shug'ullansalar, ushbu faoliyat bo'yicha alohida hisob yuritishlari va byudjetga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni to'lashlari lozim.

Quyidagilar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanmaydilar:

- notijorat tashkilotlari. Bunda tadbirkorlik faoliyatidan daromad oluvchi notijorat tashkilotlari ushbu faoliyat bo'yicha soliqni umumbelgilangan tartibda to'laydilar.
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi o'rnatilgan yuridik shaxslar (agar ularda qonunchilikka binoan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lash majburiyati yuzaga kelmasa).

**Soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.** Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan bazadir, bundan Soliq Kodeksining 297-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno. Bunda soliq solinadigan baza olinishi lozim bo'lgan (olingan) dividendlar summasiga, qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar uchun esa sof qo'shimcha foyda summasiga ham kamaytiriladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob`yektlari bo`lgan soliq to`lovchilar soliq solinadigan bazani hisoblangan foyda solig`i chegirib tashlangan holda yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foydani va ijtimoiy infratuzilma ob`yektlarini ta`minlash uchun haqiqatda sarflangan xarajatlarning mazkur xarajatlar summasidan hisoblab chiqilgan foyda solig`i summasiga kamaytirilgan summasini qo`shish orqali aniqlaydi.

Ijtimoiy infratuzilma ob`yektlariga sog`liqni saqlash ob`yektlari, ta`lim ob`yektlari va bolalar dam olish oromgohlari kiradi.

**Soliq stavkalari va imtiyozlar.** Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`ining eng yuqori stavkasi soliq solish ob`yektlarining 8 foizi miqdorida belgilangan.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`ini to`lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg`armasi va "O`zbekiston chernobilchilari" assosiasiyasi mulkida bo`lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta`minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug`ullanadigan yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqini belgilayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo`lgan xodimlar kiritiladi.

**Soliqni hisoblash, hisobotlarni taqdim etish va soliqni to`lash tartibi.** Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob`yektlari bo`lgan soliq to`lovchilar byudjetga to`lanadigan soliq summasini quyidagi tartibda aniqlaydi:

- agar ijtimoiy infratuzilma ob`yektlarini ta`minlash uchun xarajatlar summasi hisoblab chiqarilgan soliq summasiga teng yoki undan ortiq bo`lsa, soliq to`lanmaydi;
- agar ijtimoiy infratuzilma ob`yektlarini ta`minlash uchun xarajatlar summasi hisoblab chiqarilgan soliq summasidan kam bo`lsa, byudjetga to`lanadigan soliq hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan haqiqatda sarflangan xarajatlar summasi o`rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq to`lovchilar hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i bo`yicha joriy to`lovlar to`laydi.

Joriy to`lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan hisobot davrining birinchi oyi 10-kuniga qadar soliq bo`yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`ining joriy to`lovlari to`g`risidagi ma`lumotnomada ko`rsatilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Joriy to`lovlar hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 15-kunidan kechiktirmay to`lanadi.

*Quyidagilar joriy to`lovlarni to`lamaydi:*

- hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda bo'lgan soliq to'lovchilar;
- ilgari hisobot davrida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarini saqlash xarajatlari summasi soliq solinadigan baza summasiga teng yoki undan ortiq bo'lgan soliq to'lovchilar;
- yagona soliq to'lovini to'lashga o'tmagan mikrofirmalar va kichik korxonalar.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lash mazkur soliq bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

### **Nazorat savollari**

1. Yuridik shaxs tushunchasiga ta'rif bering.
2. Yuridik shaxslardan qanday soliqlar va yig'imlar undiriladi?
3. Foyda solig'i O'zbekistonda qachon joriy qilingan?
4. Yuridik shaxslar foyda solig'ini to'lovchilari kimlar?
5. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ob'yekti va soliq solish bazasi qanday aniqlanadi?
6. Yagona soliq to'lovi qachon joriy etilgan?
7. Yagona soliq to'lovining to'lovchilari kimlar?
8. Qanday yuridik shaxslar yagona yer solig'ining to'lovchilari hisoblanadi?
9. Yagona yer solig'ining ob'yekti va soliq solinadigan baza qanday aniqlanadi?
10. Qo'shilgan qiymat solig'ini qanday shaxslar to'laydi?
11. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?
12. Aksiz solig'i qachon joriy qilingan?
13. Aksiz solig'ining to'lovchilari kimlar?
14. Mol-mulk solig'ini to'lovchilari kimlar?
15. Kimlar yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi?
16. Yer solig'ini undirish ob'yekti nima?
17. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilari kimlar?
18. Yer qa'ridan foydalanganda soliq solishning zarurligi nimada?
19. Yer qa'ridan foydalanganda soliq solish ob'yekti qanday aniqlanadi?
20. Kimlar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining to'lovchilari hisoblanishadi?

## 10-MAVZU. JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH TARTIBI

### Reja

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar.
2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i.
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i.
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.
5. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliq.
6. Mahalliy yig'im.

### Tayanch iboralar

Jismoniy shaxs, mol-mulk solig'i, yer solig'i, daromad solig'i, rezidentlar, norezidentlar, deklarasiya, jami daromadlar, mulkiy daromadlar

#### 1. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar

Soliq kodeksining 16-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar *jismoniy shaxslar* deb e'tirof etiladi.

*Jismoniy shaxslar davlat byudjetiga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydilar:*

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- Mol-mulk solig'i;
- Yer solig'i;
- Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- Jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanganda daromadiga o'rnatilgan qatt'iy stavkadagi soliq;
- Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa soliqlar va majburiy to'lovlar.

#### 2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i

*Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.* Soliq kodeksiga ko'ra soliq solinadigan mol-mulkga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilaridir.

Jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylari, kvartiralar, chorbog' va bog' uylari, garajlar va boshqa imoratlari, binolar va inshootlari qiymati soliq solish ob'yektidir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkining inventarizasiya qilish qiymati soliq solinadigan bazadir. Agar jismoniy shaxslarning mol-mulkini bahosi tegishli vakolatli idoralar tomonidan aniqlanmagan bo'lsa, bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan mol-mulkning shartli qiymati soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

***Soliq stavkalari va soliq imtiyozlari.*** Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi. Soliq stavkalari har yili keyingi moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarori asosida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi mol-mulkning inventarizasiya qiymatiga nisbatan foiz miqdorida belgilanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkleri texnik inventarizasiyalash byurosi (TIB) xodimlari tomonidan baholanadi.

Mulkida soliq solinadigan mol-mulk bo'yicha pensionerlar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdor umumiy maydonning 60 kv. metri hajmida belgilanadi.

*Soliq qonunchiligiga ko'ra quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan imoratlar, binolari va inshootlariga soliq solinmaydi:*

- "O'zbekiston Qahramoni", "Sovet Ittifoqi Qahramoni", "Mehnat Qahramoni" unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi "Shuhrat ordeni" bilan taqdirlangan fuqarolarning;

- 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning;

- o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning;

- Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolarning (shu jumladan u yerga vaqtincha yo'llangan yoki xizmat safariga yuborilgan shaxslarning);

- qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida pensionerlarning;

- I va II guruh nogironlarining;

- sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan xarbiy xizmatchilar hamda ichki ishlar organlari xodimlari ota-onalarining va beva xotinlarining (beva erlarining);

Yuqorida nazarda tutilgan imtiyozlar mol-mulk egasining tanlashiga binoan, imtiyoz olish huquqini beruvchi zaruriy hujjatlar soliq organlariga taqdim etilganda, mol-mulkning faqat bir ob'yektiga taalluqli bo'ladi.

Yil davomida to'lovchilarda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda ular ko'rsatilgan to'lovlardan ana shu huquq paydo bo'lgan oydan boshlab ozod etiladilar.

Yil o'rtasida mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz huquqini yo'qotganda soliq solish ushbu huquq yo'qolgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

***Soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi.*** Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladi.



Bir necha mulkdorning ulushbay asosidagi umumiy mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i har bir mulkdor tomonidan ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq ular barpo etilgan yoki olingan yildan keyingi yilning boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulkdan soliq merosxo'rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'i undirish ular yo'q qilingan yoki butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran to'xtatiladi.

Mol-mulikka mulk huquqi taqvimiy yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor o'sha yilning 1-yanvaridan bu mol-mulikka mulk huquqini yo'qotgan oyning boshigacha to'laydi, yangi mulkdor esa mulk huquqini qo'lga kiritgan oydan etiboran to'laydi.

Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi. Hisoblangan yillik soliq miqdori teng ulushlarda ikki muddatda - 15 iyun va 15 dekabrda kechiktirmay mahalliy byudjetga to'lanadi.

### **3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i**

*Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.* Soliq kodeksiga ko'ra o'z mulkida, egaligida, foydalanishida yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ining to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

*Jismoniy shaxslarning quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan ob'yekt hisoblanadi:*

- dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari;
- xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlar;
- meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy, dala hovli bilan birgalikda egalik qilish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
- tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Soliq kodeksiga ko'ra ko'chmas mulkka ega bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organing yer uchastkalari maydoniga doir ma'lumotnomalari soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

**Yer solig'i stavkalari va soliq imtiyozlari.** Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soligi stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

Berilgan yerlardan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig'i uch baravar miqdorida undiriladi.

*Soliq kodeksiga ko'ra quyidagi jismoniy shaxslar yer solig'idan ozod qilinadilar:*

- yaylov chorvachiligining cho'ponlari, yilqiboqarlari, mexanizatorlari, veterinar vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislari va ishchilari;
- "O'zbekiston Qahramoni", "Sovet Ittifoqi Qahramoni", "Mehnat Qahramoni" unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi "Shuhrat ordeni" bilan taqdirlangan fuqarolar;
- 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda qonun hujjatlarida belgilanadigan doiradagi ularga tenglashtirilgan shaxslar;
- I va II guruh nogironlari;
- yolg'iz pensionerlar;
- boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir.
- Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan, vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolar);
- shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar;
- ko'chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan yer uchastkalari bo'yicha - yer uchastkalari berilgan paytdan e'tiboran besh yilgacha;
- shaxslar - ularga yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va dehqon xo'jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida berilgan yer uchastkalari bo'yicha - yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan e'tiboran ikki yil muddatga.

**Yer solig'ini hisoblab chiqarish tartibi.** Jismoniy shaxslar uchun yer solig'ini davlat soliq organlarining xodimlari hisoblab chiqaradi.

Soliq to'lanishi to'g'risidagi to'lov xabarnomalari jismoniy shaxslarga davlat soliq organlari tomonidan har yili, joriy yilning 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Yer uchastkalarining maydoni o'zgarganda va yil davomida imtiyoz huquqi paydo bo'lganda yoki bekor qilinganda davlat soliq organlari bir oy davomida soliqni qayta hisob-kitob qilishlari va soliq to'lovchiga to'lash muddatlari o'zgarganini hisobga olgan holda yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari shart.

Ko'p xonadonli turar joylarda yashaydigan jismoniy shaxslardan yer solig'i undirilmaydi. Xonadondan yoki ko'p xonadonli turar joylarning bir qismidan odamlarning yashashi bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanilganda, belgilangan tartibda xonadonning umumiy maydonidan kelib chiqib, yer solig'ining tegishli hissasi undiriladi.

***Yer solig'ini byudjetga to'lash muddatlari.*** Jismoniy shaxslar hisoblangan yillik yer solig'ini teng ulushlarda yiliga ikki muddatda - 15 iyundan va 15 dekabrda kechiktirmay to'laydilar. To'langan soliq summasi belgilangan tartibda mahalliy byudjetga tushadi.

Yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan boshlab to'lanadi.

#### **4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i**

***Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.*** Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mohiyati bo'yicha to'g'ri soliq hisoblanadi. Ushbu soliqdan tartibga soluvchi soliq sifatida foydalaniladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini joriy qilishda aholining ijtimoiy qatlamlari va ijtimoiy adolat tamoyillari hisobga olingan, ya'ni ushbu soliq bo'yicha soliqqa tortish tizimi daromadlarning hajmiga qarab bosqichma-bosqich undiriladi. Shuning uchun ham ushbu soliq bo'yicha belgilangan stavkalar progressiv stavka hisoblanib, hozirgi uch bosqichli soliqqa tortish tizimi amal qiladi.

Soliq kodeksiga ko'ra moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to'lovchilar hisoblanadi.

Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslar rezidentlar va norezidentlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi soliq solish ob'yekti hisoblanadi. Soliqqa tortiladigan baza bo'lib jismoniy shaxslarning jami daromadidan soliq qonunchiligiga ko'ra belgilangan chegirmalarni ayirib tashlagandan keyingi qoldiq summa hisoblanadi.

***Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi.*** Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, Soliq kodeksining 179 va 180-moddalariga muvofiq soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

*Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:*

- mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- mulkiy daromadlar;
- moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- boshqa daromadlar.

*Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarga* jismoniy shaxslarning mehnat shartnomasi bo'yicha qilingan ishlardan va fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha oladigan daromadlari kiradi. Bundan tashqari mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar, kompensasiya to'lovlari hamda ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash tarzidagi daromadlar ham kiradi.

*Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga* foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar, royalti va shu kabi qonunchilikda ko'zda tutilgan daromadlar kiradi.

*Moddiy naf tarzidagi daromadlarga* yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to'lash, shu jumladan: jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitish, tarbiyalash; kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash; oziq-ovqat, oylik yo'l chiptalari yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash; sanatoriy-kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymatini, dam olish, stasionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash kabilar kiradi.

*Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlariga* davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar; stipendiyalar; donorlik uchun pul mukofotlari; alimentlar; musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari; yutuqlar; grantlar; jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha olingan foizlar va boshqa daromadlar kiradi.

***Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari.*** Ushbu soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- jismoniy shaxslarning ish haqi, mukofotlar va boshqa daromadlariga solinadigan tabaqalashgan progressiv soliq stavkalari;
- jismoniy shaxslarning dividend va foiz tariqasida oladigan daromadiga soliq stavkasi;
- norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga to'lov manbaida solinadigan soliq stavkalari;
- imtiyozli soliq stavkalari.

***Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar.*** Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar 3 guruhga bo'linadi:

- Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari;
- Soliq solishdan to'liq ozod etiladigan jismoniy shaxslar;
- Qisman, ya'ni daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha soliq solishdan ozod qilinadigan jismoniy shaxslar.

• Jismoniy shaxslarning imtiyozlarga bo'lgan huquqi ular hisobot yili uchun tegishli hujjatlarni soliq organlariga taqdim etganida vujudga keladi.

**Soliqni hisoblab chiqarish tartibi.** Asosiy ish joyidan olinadigan mehnat haqi to'lovlari va boshqa to'lovlardan jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan ularni hisoblab yozishning borishiga qarab soliq solinadigan jami daromad summasidan belgilangan stavkalarda amalga oshiriladi.

Fuqaro bir yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyini o'zgartirsa, u yangi ish joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi olguniga qadar belgilangan shakl bo'yicha joriy yilda to'langan daromadlar hamda ushlab qolingani soliq summasi haqidagi ma'lumotnomani taqdim etishi shart.

Yangi ish joyi bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish taqvim yili boshidan ilgari va yangi ish joyida olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Avvalgi ish joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan hollarda soliq solinadigan daromaddan eng yuqori stavka bo'yicha soliq undiriladi. Ma'lumotnoma keyinroq taqdim etilsa, u holda undirilgan soliq umumbelgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilinadi.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni ushlab qolish va byudjetga o'tkazish uchun yuridik shaxs javobgardir. Soliq summasi ushlab qolinmaganda yuridik shaxs ushlab qolinmagan soliq summasini hamda u bilan bog'liq jarima va penyalarni byudjetga to'lashi shart.

**Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya usulida soliq solish tartibi.** Deklaratsiya - soliq idoralariga soliq to'lovchi jismoniy shaxslar tomonidan topshiriladigan va o'z ichida olingan daromadlar va ushbu daromadlar bilan bog'liq xarajatlar haqidagi ma'lumotlarni aks ettiradigan hamda soliq to'lovchining hisoblangan soliqlarni ixtiyoriy ravishda va belgilangan vaqtda davlat byudjetiga to'lashga majbur etadigan hujjat hisoblanadi. Soliq kodeksiga ko'ra jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi haqidagi deklaratsiya quyidagi hollarda soliq organlariga topshiriladi:

• mulkiy daromad, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromad (agar bunday daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa);

• asosiy bo'lmagan ish joyidan (O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek uning hududidan tashqaridagi manbalardan) daromad olgan jismoniy shaxslar tomonidan (asosiy bo'lmagan ish joyidagi mehnat to'lovi bo'yicha daromad oluvchi jismoniy shaxs buxgalteriyaga eng yuqori stavka bo'yicha daromadidan soliq ushlab qolinishi haqida ariza topshirganlar bundan mustasno);

• rezident - chet ellik jismoniy shaxslar tomonidan.

Jismoniy shaxslar doimiy istiqomat joyidagi davlat soliq xizmati organlariga jami yillik daromadlari haqida deklarasiyani quyidagi muddatlarda taqdim etishlari kerak:

asosiy bo'lmagan ish joyidan daromad olgan rezident - jismoniy shaxslar hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay;

rezident - chet ellik jismoniy shaxslar nazarda tutilayotgan daromadlar haqida - O'zbekiston Respublikasiga kelgan kundan boshlab bir oy mobaynida belgilangan shaklda.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lash chog'ida deklarasiya topshirish orqali soliqlar quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- asosiy bo'lmagan ish joyidan daromad olgan rezident - jismoniy shaxslar - jami yillik daromad haqidagi deklarasiya ma'lumotlari bo'yicha hisobot yilidan keyingi yilning 1 iyunidan kechikmay, yil mobaynida qayta hisoblanganda esa, - deklarasiya davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan kundan e'tiboran bir oy ichida;

- jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valyutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

## **5. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliq**

**Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.** Soliq kodeksiga ko'ra, jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga olinadigan soliq to'lovchilari bo'lib jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gazni chakana sotadigan, mulkchilik shaklidan qatt'iy nazar xo'jalik yurituvchi sub'yektlar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gazni chakana sotish soliq solish ob'yekti hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga sotilgan o'zi ishlab chiqargan hamda chetdan xarid qilingan benzin, dizel yonilg'isi va gazning natural hajmi soliq solish bazasi hisoblanadi.

Benzin, dizel yonilg'isi va gazni sotish deganda ularni jismoniy shaxslarga amalda berish tushuniladi.

**Soliq stavkasi va hisoblash tartibi.** Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga olinadigan soliq stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi, uning miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi. Soliq stavkasi yil davomida tegishli me'yoriy hujjatlar asosida o'zgartirilishi ham mumkin.

Soliq summasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi va jismoniy shaxs - xaridorga beriladigan chekda alohida satr bilan ko'rsatiladi.

Soliq summasi jismoniy shaxslarga sotiladigan benzin, dizel yonilg'isi va gaz uchun mablag' to'lanishi bilan bir vaqtda undiriladi.

Soliq summasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N = V \times St$$

bu yerda:

**N** - hisoblab yozilgan soliq;

**V** - jismoniy shaxslarga sotilayotgan benzin, dizel yonilg'isi yoki gazning natural ifodadagi hajmi;

**St**; - soliq stavkasi.

Hisoblab chiqarilgan va ushlangan soliq summasi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun tushum deb hisoblanmaydi hamda boshqa to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solish ob'yekti yoki bazasi bo'lmaydi.

**Soliq hisobini yuritish va uni byudjetga to'lash muddatlari.** Soliq to'lovchilar sotilgan benzin, dizel yonilg'isi, gaz hisobi hamda hisoblangan soliq summaları hisobini alohida yuritadilar.

Byudjet bilan hisob-kitoblar hisobi «Byudjet bilan hisob-kitoblar» hisobvarag'i bo'yicha «Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga soliq» ilova hisobvarag'ida yuritiladi, soliqni o'tkazish «Hisob-kitob varag'i» hisobvarag'i bo'yicha aks ettiriladi.

Undirilgan soliq mahalliy byudjetga O'zbekiston Respublikasi byudjetlari daromad va xarajatlarining tegishli tasnifiga ko'ra bo'lim va paragrafga to'lanadi.

Joriy o'n kunlik to'lovlar hisobga olingan soliq bo'yicha hisob-kitob avtomobilga yonilg'i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga:

- korrxonalar tomonidan (mikrofirmalar va kichik korrxonalaridan tashqari) - har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi;

- mikrofirmalar va kichik korrxonalar tomonidan - yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa- yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida, belgilangan shaklda taqdim etiladi.

Soliq bank muassasalari orqali har o'n kunda, benzin, dizel yonilg'isi va gaz jismoniy shaxslarga sotilgan oy o'n kunligi tugaganidan so'ng uchinchi kundan kechiktirmay to'lanadi.

## **6. Mahalliy yig'im**

### **(Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im)**

Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tarkibiga kiradi va u mahalliy byudjet daromadlaridan biri hisoblanadi.

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imning to'lovchilari bo'lib O'zbekiston Respublikasi hududida ushbu tovarlar bilan qonunchilikda belgilangan tartibda chakana savdoni amalga oshiradigan va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Ushbu yig'im ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdoni amalga oshirish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqini olish uchun to'lanadi. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi ruxsat guvohnomasi bilan tasdiqlanadi. Ruxsat guvohnomasi joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi. Ayrim tovar turlarining va xizmatlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun ruxsat guvohnomasi yuridik shaxs yoki yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga o'z arizalarida ko'rsatilgan muddatlarga, lekin ushbu muddat qonunchilikda nazarda tutilgan muddatdan ortiq bo'lmagan muddatga beriladi. Jumladan, yuridik shaxslarga ko'pi bilan - 3 yil, jismoniy shaxslarga - 2 yil.

Yig'imler o'rnatilgan minimal ish haqi miqdoriga nisbatan belgilanadi. Ushbu yig'imler har oyda hisobot oyining 25-kuniga qadar byudjetga to'lanadi.

Mahalliy yig'im o'z vaqtida to'lanishi, qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik yig'imni to'lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Davlat soliq xizmati organlari esa o'zlariga berilgan vakolat doirasida qonun hujjatlariga muvofiq yig'imni to'lovchilarning byudjet oldidagi majburiyatlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

### **Nazorat savollari**

1. Jismoniy shaxslardan qanday soliqlar va yig'imler undiriladi?
2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining to'lovchilari kimlar?
3. Jismoniy shaxslarning qanday mol-mulkari soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza hisoblanadi?
4. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasi 2010 yilda necha foiz qilib belgilangan?
5. Mol-mulk solig'idan kimlar ozod etiladi?
6. Pensionerlarning necha kvadrat metr mol-mulki qiymati soliqqa tortilmaydi?
7. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ining to'lovchilari kimlar?
8. Jismoniy shaxslarning qanday yerlari soliq solish ob'yekti bo'la oladi?
9. Jismoniy shaxslar berilgan yerlardan foydalanmagan holatda qanday tartibda ulardan soliq undiriladi?
10. Qanday toifadagi fuqarolar yer solig'idan ozod etiladi?
11. Mol-mulk va yer solig'i bo'yicha to'lov xabarnomalari soliq to'lovchilarga qaysi muddatgacha yetkaziladi?
12. Mol-mulk va yer solig'i qaysi muddatda mahalliy byudjetga to'lanadi?
13. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lovchilari kimlar?



14. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlariga qaysi daromad turlari kiradi?
15. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari qaysi mezonlar asosida belgilanadi?
16. Jismoniy shaxslarning qaysi daromadlariga soliq solinmaydi?
17. Soliq solishdan to'liq ozod etiladigan jismoniy shaxslarni sanab o'ring.
18. Qisman, ya'ni daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha soliq solishdan ozod qilinadigan jismoniy shaxslarni sanab o'ring.
19. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklarasiya usulida soliq solish tartibini tushuntirib o'ring.
20. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga soliqni byudjetga bevosita to'lovchilar kimlar?
21. Soliq summasi qaysi formula yordamida aniqlanadi?
22. Soliq solish ob'yekti va bazasi qanday aniqlanadi?
23. Mahalliy yig'im deganda nimani tushunasiz?
24. Ayrim tovar turlarining va xizmatlarining ro'yxati qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?
25. Mahalliy yig'im o'z vaqtida to'lanishi ustidan javobgarlik kimlarning zimmasiga yuklanadi?

## GLOSSARIY

**Amortizasiya** - mablag'larini maqsadli jamg'arilishi va ularni kelajakda yemirilgan asosiy fondlar va nomoddiy aktivlarni qoplashda foydalanish.

**Amortizasiya** - foydali xizmat muddati mobaynida aktivning amortizasiyalanadigan qiymatini asosiy vositalarning vazifasidan kelib chiqqan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga yoki davr xarajatlariga muntazam taqsimlash va o'tkazish ko'rinishida eskirishning qiymat ifodasi

**Byudjet daromadlari** – qonunchilikda belgilangan tartibga binoan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan mahalliy organlar, ixtiyoriga beg'araz va qaytarib bermaslik shartlari bo'yicha kelib tushayotgan pul mablag'lari.

**Byudjet dotasiyalari** – o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

**Byudjet jarayoni** – hokimiyat ijro va vakillik organlarining fiskal siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish va byudjet tizimini boshqarish faoliyatining majmui.

**Byudjet yili** – tasdiqlangan byudjetning ijrosi amalga oshiriladigan davr.

**Byudjet profisiti** – byudjet daromadlarining xarajatlaridan oshib ketishi (byudjetning ijobiy saldos).

**Byudjet ssudalari** – yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarish sharti bilan yoki respublika byudjetidan yuridik shaxs-rezidentga yoki xori-jiy davlatga ajratiladigan mablag'.

**Byudjet subvensiyalari** – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga ajratiladigan pul mablag'lari.

**Byudjet taqchilligi** – byudjet xarajatlarning daromadlardan oshib ketishi (byudjetning salbiy saldos).

**Byudjet tashkiloti** – davlat byudjetida byudjet ajratmalari nazarda tutilgan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti, va bu uning o'z vazifa va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbasi hisoblanadi.

**Byudjet tizimi** turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, byudjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek byudjetlar hamda byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi (O'zRning "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni).

**Byudjet transfertlari** – byudjetdan bevosita yoki vakolatli organ orqali yuridik yoki jismoniy shaxsga beg'araz ajratiladigan pul mablag'lari.

**Byudjet tuzilishi** – byudjet tizimini tashkil etish, uni tuzish prinsiplari. Byudjet tuzilishi davlat byudjeti va mamlakat byudjet tizimining tashkil etilishini, uning alohida bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, byudjet tizimiga kiruvchi byudjetlarning faoliyat yuritishi huquqiy asoslarini, byudjetlarning tarkibiy tuzilishini, byudjet mablag'larini shakllantirish va foydalanish tartib-taomillarini va boshqalarni belgilaydi.

**Byudjet xarajatlari** – davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining vazifa va funksiyalarini bajarish uchun yo'naltirilayotgan pul mablag'lari; davlat pul mablag'lari fondini taqsimlash va uni tarmoq, maqsadli va hududiy yo'nalishlarda foydalanish yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

**Byudjetdan mablag' ajratish** – turli darajadagi byudjetlardan tasdiqlangan xarajatlar parametrlariga binoan va davlat oldida turgan vazifalarni moliyalashtirishga mo'ljallangan pul mablag'lari.

**Byudjetdan moliyalashtirish** – korxonalar, muassasa, tashkilotlarga ularning xarajatlarini to'liq yoki qisman qoplash uchun davlat byudjetidan qaytarilmaydigan mablag'larni ajratish.

**Byudjetdan tashqari jamg'armalar** – byudjetdan alohida tashkil etiladigan, maqsadli xususiyatga ega bo'lgan, umumdavlat yoki mahalliy ahamiyatga molik tadbirlarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan mustaqil moliya muassasalari tizimi; davlat tomonidan ba'zi ijtimoiy ehtiyojlar uchun mustaqil ravishda kompleks sarflanadigan jalb etilayotgan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va ishlatish shakli.

**Byudjetni tartibga solish** – bu turli darajadagi byudjetlar o'rtasida daromadlar manbasining qonun bilan birlashtirilgan taqsimlanishi, ya'ni davlat byudjeti daromadlarini taqsimlash tartibi (turli darajadagi byudjetlar o'rtasida moliyaviy resurslar qisman qayta taqsimlanishi).

**Davlat byudjeti** – davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Davlat zayomlari** – kredit munosabatlarining turi bo'lib, unda davlat (yoki uning mahalliy organlari) zayom beruvchi yoki kreditor rovida namoyon bo'ladi.

**Davlat maqsadli jamg'armalari** – Davlat byudjeti tarkibida jamlanadigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek, shu mablag'lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

**Kapital qo'yilma** – asosiy fondlar, binolar, uskunalarni sotib olish yoki takomillashtirish uchun pul mablag'lari xarajatlari.

**Mahalliy byudjet** – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi (O'zRning "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni).

**Moliya yili** – 12 oydan tashkil topgan hisobot davri bo'lib, uning yakunida buxgalteriya kitoblari yopiladi va daromadlar va xarajatlar hisobga olinadi. Moliya yili kalendar yil bilan mos bo'lmasligi mumkin.

**Respublika byudjeti** – Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi (O'zRning "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni).

**Sof milliy mahsulot (SMM)** – iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini xarakterlaydi, unga faqatgina sof investisiyalar kiradi, takror ishlab chiqaruvchi (tiklovchi) investisiyalar (amortizasiya) hisobga olinmaydi.

**Soliq** – 1) byudjetga majburiy badal bo'lib, qonunchilikda belgi-langani tartibda soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi; 2) soliqlar, o'z moddiy mazmuniga ko'ra, milliy daromadning xo'jalik sub'yektlari va aholidan umumdavlat ehtiyojlari uchun undirilgan qismidir.

**Soliq** – muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari (O'zRning Soliq kodeksi).

**Soliq bazasi** – soliq ob'yektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori.

**Soliq manbai** – bu sub'yektning daromadidir. Ba'zi soliqlarda daromad va foyda ham soliq ob'yekti, ham soliq manbai bo'ladi. Lekin boshqa soliqlarda ob'yektlar har xil, manba esa – daromad bo'ladi.

**Soliq ob'yekti** – soliq solinadigan daromad, oborot yoki mulkdir. Uning foyda, ish haqi, yer, imorat, jami xarajat kabi turlari mavjud.

**Soliq salohiyati** – amaldagi qonunchilikka binoan soliq bazalarining tarkibi va tuzilishi kelib chiqqan byudjetning maksimal soliq daromadlari summasi. Soliq salohiyatini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi: faktik (haqiqiy) soliq tushumlari, soliq to'lovlari bo'yicha qarzdorlikni qo'shimcha o'sishi, soliq imtiyozlari qismidagi tushib qolayotgan daromadlar, soliq organlarining nazorat ishlari natijasi bo'yicha qo'shimcha hisoblab chiqilgan soliqlar, iqtisodiyotning yashirin sektori bo'yicha soliq daromadlarini yo'qotish, ya'ni yashirin iqtisodiyot resurslari.

**Soliq solinadigan baza** soliq solish ob'yektining soliq yoki boshqa majburiy to'lovning stavkasi tatbiqan belgilangan ko'rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi (O'zRning Soliq Kodeksi).

**Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi** – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim tur-dagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

**Soliq stavkasi** – ob'yektning har birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir, ya'ni davlatning soliq ob'yektidagi ulushi, hissasidir.

**Soliq sub'yekt** – soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar.

**Soliq tizimi** – bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi

**Soliqqa tortish birligi** – bu ob'yektning o'lchov birligi. Bu daromad solig'ida so'm, yer solig'ida kv. metr, suv solig'ida kub. metr va boshqalar.

**Soliqli daromadlar** – soliq salohiyatining qismi bo'lib, milliy daromadning xo'jalik sub'yektlaridan va aholidan umumdavlat ehtiyojlari uchun undiriladi

**Stavka** – soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdor (O'zRning Soliq Kodeksi).

**Sug'urta** – bu uning qatnashchilari o'rtasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan maqsadli sug'urta fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari majmuasidan iborat.

**Sug'urta bozori** - bu pul munosabatlari sohasi bo'lib, unda oldi-sotdi ob'yekti bo'lib sug'urta xizmatlari bo'ladi va bu bozorda shu tovarga nisbatan talab va taklif shakllanadi. Sug'urta bozori bir necha sug'urta tashkiloti tashabbusi bilan shakllanadi.

**Sug'urtalanuvchi** – o'z manfaatlaridan kelib chiqib sug'urta himoyasi bo'yicha xizmatlarni sotib oluvchilar, sug'urtadan manfaatdor bo'lgan va sug'urtalovchi bilan qonun yoki shartnoma asosida munosabatga kiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

**Sug'urtalovchi** – sug'urta qiluvchi tashkilot, sug'urta xizmatlarini ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar, sug'urta fondini tashkil qilish, sarflash va sug'urta operatsiyalarini o'tkazish uchun davlat lisenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxslar.

**Uy xo'jaligi byudjeti** – bu uy xo'jaligi pul mablag'lari fondini shakllantirish va foydalanish shaklidir

**Uy xo'jaligi moliyasi** – bu uy xo'jaligi a'zolarining moddiy va ijtimoiy hayot sharoitlarini ta'minlash maqsadida pul mablag'lari fondini shakllantirish va foydalanish bo'yicha vujudga keladigan iqtisodiy pul munosabatlarining ifodasidir.

**Fiskal siyosat** – 1) hukumat tomonidan qo'yilgan makroiqtisodiy maqsadlarga erishish uchun hukumatning xarajat va soliq funksiyalarini ongli ravishda qo'llash; 2) byudjet, soliq va boshqa moliyaviy imkoniyatlarni boshqarish sohasidagi chora-tadbirlar yordamida hukumat tomonidan tadbirkorlik faolligini tartibga solish.

**Qayta moliyalashtirish** – 1) yangi zayomlar chiqarish orqali davlat qarzini qoplash, bunda asosan qisqa muddatli majburiyatlar yoki qoplash muddati tugayotgan majburiyatlar, uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar almashtiriladi; 2) qarz, zayom muddatini uzaytirish va (yoki) uning summasini oshirish; 3) kredit shartlarini o'zgartirish (qoplash grafigi, foiz stavkasi).

**G'aznachilik** – Davlat byudjetining ijrosini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli moliyaviy organ.

**Xarajatlar smetasi** – tashkilot tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkilot uchun mo'ljallangan byudjet ajratmalari (xarajatlar rejasi) xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladi.

**Yalpi ichki mahsulot (YaIM)** - yil davomida mamlakat hududidagi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida pirovard natijada (ya'ni bevosita iste'mol uchun), foydalanilgan ishlab chiqarish omillarining qaysi millatga mansubligidan qat'iy nazar iste'mol, eksport va jamg'arish maqsadida yaratilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor qiymatida hisoblangan miqdoridir.

**Yalpi milliy mahsulot (YaMM)** – yil davomida ishlab chiqarilgan pulda ifodalangan pirovard mahsulot va xizmatlarning yalpi hajmi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarishning milliy hajmini xarakterlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2005.
2. Ислом Каримов “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси”. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик Палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. Ноябрь 2010 йил.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998.
4. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ Кодекси. – Т.: “Адолат”, 2008.
5. “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 2 сентябрдаги 913-ХП-сон Қонуни.
6. “Бюджет тизими тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 14 декабрдаги 158-П-сон Қонуни.
7. “Давлат бюджетининг ғазна ижроси тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 26 августдаги 664-П-сон Қонуни.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Асосий макроиктисодий кўрсаткичлар ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги 2010 йил 24 декабрдаги ПҚ-1449-сон қарори.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат бюджетининг ғазна ижроси тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2007 йил 28 февралдаги ПҚ-594-сон Қарори.
10. “Бюджет ташкилотларини маблағ билан таъминлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида” ЎзР ВМнинг 1999 йил 3 сентябрдаги 414-сон Қарори.
11. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2009 йил 16 сентябрда 2007-сон билан рўйхатга олинган Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2009 йил 4 августдаги 69-сон буйруғига илова – “Давлат бюджетининг ғазна ижроси Қоидалари”.
12. Vahobov A.V., Jorayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. – Т.: Sharq, 2009. 448 б.
13. Вахабов А.В. ва бошқ. Хорижий инвестициялар. -Т.: Молия, 2010 йил.
14. Вахабов А., Срожиддинова З. Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети. –Т.: ТМИ, 2002.
15. Gadoyev E.F., Qurbonov X.A. Moliya. - Т. O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2005.- 189 б
16. Галанов В. А. Финансы, денежное обращение и кредит: Учебник.- ФОРУМ: ИНФРА-М, 2008. - 416 с.
17. Грачев А.Н. Финансовая устойчивость предприятия. Критерии и методы оценки в рыночной экономике. Учеб. пособ. - М.: «Дело и Сервис», 2010. – 400 с.
18. Жўраев А. Тошматов Ш., Абдурахмонов О. Солиқлар ва солиққа тортиш. Ўқув қўлланма. – Т.: NORMA, 2009. 184б.
19. Купцов М.М. Финансы: Учеб. пособие.- 4-е изд., - М.: РИОР, 2008.-113 с
20. Трошин А.Н. и др. Финансы и кредит. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 408 с.

21. Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник. Под. ред. М.В. Романовского, О.В. Врублевской. – М.: «ИД Юрайт», 2010. – 714 с.
22. Яхёев Қ. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. Дарслик. – Т.: 2003. 248б.
23. Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими: Дарслик/Срожиддинова З.Х. «InfoCOM.UZ», Тошкент, 2010



Иқтисод  
ва молия  
журналига илова

П р и л о ж е н и е  
к журналу Экономика  
и ф и н а н с ы

№ 2, 2012 года.

Бош муҳаррир:  
**Алишер Файзиевич  
Расулев**, иқтисод фанлари  
доктори, профессор

Таҳририят  
Кенгаши: Бутиков Игорь Леонидович, иқтисод фанлари доктори,  
Иминов Одилжон Каримович, иқтисод фанлари доктори,  
Афзалов Зокирхон, техника фанлари доктори, профессор  
Воронин Сергей, иқтисод фанлари доктори

Бош муҳаррир  
ўринбосари: Муминов Нозим, иқтисод фанлари номзоди, доцент

Таҳририят  
аъзолари: Ахмедиева Алия, иқтисод фанлари номзоди  
Ғуломова Гульнора, иқтисод фанлари номзоди  
Хайдаров Мирёқуб, иқтисод фанлари номзоди, доцент  
Ашурова Насиба, иқтисод фанлари номзоди, доцент

**Таҳририят манзили:** 100015, Тошкент ш., Чилонзор тумани, 34/14. Тел.  
(998 71) 277-80-87, E-mail: [iqtisodvamoliya@itm.uz](mailto:iqtisodvamoliya@itm.uz)

Журнал ва унинг иловаси Тошкент вилояти матбуот ва ахборот  
бошқармасида 2007 йил 24 декабрда 03-047 рақами билан рўйхатга  
олинган

**Журнал иловасининг «Matbuot tarqatuvchi» АК обуна каталогидagi  
индекси -1247**

формат 60x84 1/8. Чоп этишга 16. 3. 2012 йилда рухсат этилди.

**Тираж 100 экземпляр**

Ризография усулида босилди. -сонли буюртма.

«TARAQQIYOT ICh» ХК босмахонасида чоп этилди.

Ўзбекистон, Тошкент ш. Фаробий кўчаси 1-б уй.

«Иқтисод ва молия» журнали ва ва унинг иловасидан кўчириб босиш  
фақат таҳририятнинг ёзма розилиги билан амалга оширилади.  
Маърузалар курсидаги далилларнинг ҳаққонийлигига муаллифлар  
шахсан маъсул. Таҳририят фикри муаллифлар фикрига мос келмаслиги  
мумкин.